

SH.S. ABDIRAIMOV, A.Z. MAXMUDOV,
R.S. TOJIBOYEV

TA'LIMDA BAHOLASH VA MONITORING ASOSLARI

O'QUV-USLUBIY QO'LLANMA

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH RESPUBLIKA ILMIY-METODIK MARKAZI

SH.S. ABDIRAIMOV, A.Z. MAXMUDOV, R.S. TOJIBOYEV

TA'LIMDA BAHOLASH VA MONITORING ASOSLARI

O'quv-uslubiy qo'llanma



Toshkent – 2026

UO'K: 372.2
KBK 74.5ya73
A 14

Mas'ul muharrir:

Baxtiyor Mengliyev – Toshkent amaliy fanlar universiteti professori, filologiya fanlari doktori

Taqrizchilar:

Dilrabo Davidova – Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi huzuridagi Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi direktori

Dildora Xakimova – Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti «Ijtimoiy va amaliy fanlar metodikasi kafedrası mudiri, pedagogika fanlari doktori, dotsent

Mirshod Ermamatov – Bilim va malakalarni baholash agentligining Ilmiy-o'quv amaliy markazi bo'limi boshlig'i, fizika-matematika fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim

Doniyor Ahmadaliyev – Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi O'quv-metodik komplekslar va multimedia resurslarining samaradorligini tahlil qilish bo'limi boshlig'i, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

A 14 **Ta'limda baholash va monitoring asoslari** [Matn]: o'quv-uslubiy qo'llanma / Sh. Abdiraimov v.b. – T.: TDYU nashriyoti, 2026. – 208 bet.

Ushbu o'quv-uslubiy qo'llanmada ta'limda o'lchash va baholash, baholash turlari, formativ baholash, summativ baholash, an'anaviy va autentik baholash, mezonli va nisbiy baholash, test topshirig'i va uning turlari, loyiha ishlari, baholash sifatini ta'minlash, baholashda adolatlilik va shaffoflik, validlik, ishonchlilikni ta'minlash, baholash vositalarini ekspertiza qilish, umumiy o'rta ta'limda bilimni baholashning yangi tartibi va ta'limda monitoring modellari, ichki monitoring o'tkazish tartibi kabilar izchil bayon qilingan.

Qo'llanma ta'lim sifatini nazorat qilish sohasida faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, pedagoglar va rahbar xodimlar, pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari talabalari, malaka oshirish markazlari tinglovchilari hamda sohaga qiziquvchilar uchun mo'ljallangan.

Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi Ilmiy-uslubiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan. (2025-yil 1-iyulda o'tkazilgan navbatdan tashqari 3-son yig'ilish bayonnomasi)

ISBN 978-9910-239-60-1

© Shohruh Abdiraimov v.b., 2026.

© TDYU nashriyoti, 2026.

MUNDARIJA

I. KIRISH

1.1. Soʻz boshi	5
1.2. Qisqartmalar	8
1.3. Atamalar izohli lugʻati	9

II. TA'LIMDA O'LCHASH VA BAHOLASH

2.1. Ta'limda o'lchash va uning turlari	22
2.2. Ta'limda baholash jarayonini loyihalashtirish	29
2.3. Ta'limda baholash mazmun sohalari	39
2.4. O'quv natijalari, o'qitish va baholashning mutanosibligi	48
2.5. Baholashda inklyuzivlik va gender masalasi	52
2.6. Ta'limda imtihon jarayonini tashkil etish	57
2.7. Baholashning ta'lim va jamiyatga ta'siri	64

III. TA'LIMDA BAHOLASH TURLARI VA YONDASHUVLAR

3.1. Ta'limda baholash turlari	70
3.2. Formativ baholash va uning metodlari	75
3.3. Summativ baholash va uning metodlari	85
3.4. Bilimni baholashning yangi tartibi	93
3.5. An'anaviy va autentik baholash	101
3.6. Mezonli va nisbiy baholash	105
3.7. Qog'ozli va raqamlashgan baholash	109

IV. TA'LIMDA BAHOLASH VOSITALARI

4.1. Test topshirig'i va uning turlari	112
4.2. Yopiq test va unga qo'yilgan talablar	117
4.3. Ochiq test va unga qo'yilgan talablar	126

4.4. Test topshiriqlarining qiyinlik darajasi	131
4.5. Baholashda loyiha ishlaridan foydalanish	135

V. TA'LIMDA BAHOLASH SIFATINI TA'MINLASH

5.1. Ta'limda o'lchash va baholashdagi xatoliklar	142
5.2. Baholash jarayonida validlikni ta'minlash	147
5.3. Baholash vositalarining ishonchliligini ta'minlash	154
5.4. Baholash jarayonida adolatlilik va shaffoflikni ta'minlash	161
5.5. Baholash vositalarini ekspertiza qilish	168

VI. TA'LIMDA MONITORING VA BAHO BERISH

6.1. Ta'limda monitoring va uning modellari	178
6.2. Ta'lim sifatini monitoring qilish turlari	184
6.3. Ta'lim muassasasida monitoring o'tkazish tartibi	190

VII. XULOSA

Ta'lim sifatini oshirishda baholash va monitoringning o'rni	203
--	-----


I. KIRISH

1.1. So'z boshi

Mamlakat iqtisodiy o'sishi uchun nafaqat to'g'ri ta'lim berish kerak, balki baholash va monitoring jarayonini to'g'ri tashkil etish zarur. Buning uchun, avvalo, bu tushunchalarning mazmun-mohiyatini to'g'ri anglash lozim. Baholash va monitoring deganda nima tushuniladi? Biz nimani tushunishimiz lozim?

Baholash – ta'lim maqsadlariga erishilganlik darajasini aniqlash, o'qitish va o'rgatish natijalarini o'lchash va baho berish jarayoni. Monitoring esa ta'lim tizimi to'g'ri yoki noto'g'ri ishlayotganini baholash, ta'lim natijalariga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash, o'qitish natijasi aynan nima sababdan shunday ekanligini o'rganish jarayoni. Shu bois ham baholash va monitoring jarayoni to'g'ri tashkil etish ta'lim sifatining kafolati hisoblanadi.

Ta'lim-tarbiya jarayonini baholash va monitoring qilish bir qator jihatlardan iborat. (1.1-rasmqarang.)



1.1-rasm: baholash va monitoring qilishning o'ziga xos tomonlari

Ko'rinadiki, baholash va monitoringni tashkil etishning to'rt muhim ustuni mavjud. Ta'limni tashkil etishda ular bilan bog'liq bo'lgan barcha jarayonlarni to'g'ri amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ta'limda ushbu jihatlar bilan bog'liq bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan:

- formativ, diagnostik va summativ; mezonga asoslangan va normaga asoslangan baholash farqlanmaydi;

- baholash mezonlarining o'ta umumiyligi, fanlar bo'yicha sinflar/kurslar va nazorat ishlari kesimida baholash mezonlari ishlab chiqilmagan;

- bir-birini takrorlovchi baholash turlarini amalga saqlanib qolmoqda. Jumladan, yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari va oliy ta'limga qabul testlari;

- ta'lim maqsadlari, o'qitish va baholashning mazmungan mosligini ta'minlash mexanizmi mavjud emas;

- baholash diapazonining qisqaligi, baholash shkalasi ta'lim oluvchilarning turli xil darajadagi natijalarini baholashga yetarli darajada imkon bermaydi. Faqatgina "a'lo", "yaxshi", "qoniqarli" va "qoniqarsiz" baho qo'yish mumkin;

- *o'quv jarayonida asosan quyi kognitiv ko'nikmalarni (bilish, tushunish, qo'llash v.b.) baholashga urg'u berilmoqda.*

- *baholash jarayonining obyektivligi yetarli darajada ta'minlanmagan;*

- *o'qitish natijalarini baholashda nazorat ishlari soni haddan ziyod ko'p;*

- *o'qitish natijalarini baholash bo'yicha metodik ta'minot yaratilmagan;*

- *o'qitish sifatini baholash uchun imkoniyat va resurslarning yetarli emas;*

- *o'qitish natijalarini xalqaro baholash dasturlari talablari asosida milliy baholash tadqiqoti tashkil etilmagan.*

- o'qitish natijalarini baholashning umumiy va yagona yo'riqnomasi mavjud emas;
- baholashning qayta aloqa qilish mexanizmi ishlamayapti;
- baholash va monitoring ilmiy tarmoq sifatida rivojlanmagan;
- baholash jarayoni raqamlashtirilmagan, sun'iy intellekt imkoniyatlari joriy etilmagan;
- ta'lim sifatini baholash sohasi bo'yicha mutaxassis kadrlar yetishmaydi, soha mutaxassislarini tayyorlash tizimli yo'lga qo'yilmagan;
- pedagoglarda baholash savodxonli va ta'lim oluvchilarda baholanish madaniyati yetarli darajada shakllanmagan;
- umumiy o'rta ta'limda milliy baholash tizimi joriy etilmagan, vakolatli tashkilotlarning baholashga doir majburiyatlari va vazifalari yetarli darajada aniq belgilanmagan.

“Ta'limda baholash va monitoring asoslari” qo'llanmasida ushbu muammolarning asosini tushunishga, ularga yechim yo'llarini taqdim etishga, jarayonlarni bir harakatlar chizig'iga keltirishga, shuningdek, baholash nazariyasi va amaliyoti bilan bog'liq nazariy atamalarning mazmun-mohiyatini tavsiflash, mazmun chegaralarini farqlashga harakat qilingan.

Umuman olganda, ushbu qo'llanma ilmiy izlanishlar, hayotiy misollar va samarali vositalarga asoslangan amaliyotlarni mohirona uyg'unlashtirgan holda, baholash va monitoring jarayonlarini yaxlit tizim sifatida tavsiflaydi hamda o'rganuvchilarga jarayonni to'liq tushunishiga yordam beradi.



1.2. Qisqartmalar

AT – amaliy bajarishni talab etadigan test;

BDI – bosqichli davlat imtihoni;

BKM – bilim, ko'nikma va malakalar;

BSB – bob bo'yicha summativ baholash;

CHSB – choraklik summativ baholash;

FB – formativ baholash;

OT – javobini yozishni talab etadigan ochiq test;

PIRLS: Progress in International Reading and Literacy Study – boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini baholovchi xalqaro dastur;

PISA: The Programme for International Student Assessment – 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholovchi xalqaro dastur;

SAT: Scholastic Aptitude Test – AQShning akademik baholash testi;

SB – summativ baholash;

TALIS: The Teaching and Learning International Survey – rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitish va ta'lim olish muhitini hamda o'qituvchilarning ish sharoitlarini o'rganish bo'yicha xalqaro baholash dasturi;

TIMSS: Trends in International Mathematics and Science Study – 4 va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'zlashtirish darajasini baholovchi xalqaro dastur;

YaDA – yakuniy davlat attestatsiyasi;

YSB – yillik summativ baholash;

YT – muqobil javobli yopiq test.

1.3. Atamalar izohli lug'ati

“A”

Adaptiv test – test topshiruvchilarning bilim salohiyatiga moslashib taqdim etiladigan avtomatlashtirilgan test topshiriqlari. Bunda nomzod savolga noto'g'ri javob bersa, topshiriqlar bazasidan avtomatik ravishda tanlangan keyingi savol biroz osonroq bo'ladi; Agar nomzod savolga to'g'ri javob bersa, keyingi savol biroz qiyinroq bo'ladi.

Adolatlilik – testning mazmuni, konteksti (o'tkazilish shart-sharoitlari) va testdan kutilayotgan natijalar barcha test topshiruvchilarga o'z qobiliyatlarini birdek namoyon etishlariga sharoit yaratib berishi.

Affektiv ko'nikmalar – o'qitish va o'rganish jarayonida o'quvchilarning his-tuyg'ulari, munosabatlari, qiziqishlari, qadriyatlar va motivatsiyalari bilan bog'liq bo'lgan rivojlantiriladigan va baholanadigan ko'nikmalari.

Amaliy topshiriq – fan bo'yicha maket yasash, model yaratish, dastur tayyorlash, rasm chizish, sxema tayyorlash kabi vazifalarni talab etadigan topshiriq.

An'anaviy baholash – ta'lim oluvchilarning o'rganganlarini hayotiy kontekstdan tashqarida, nazariy tomonlarini o'lchash va baholash jarayoni.

Apellyatsiya – imtihon natijalaridan norozi bo'lgan test topshiruvchilarining e'tirozlarini ko'rib chiqish jarayoni.

Aprobatsiya – tuzilgan test topshiriqlarining sifatini aniqlash uchun o'tkaziladigan tajriba-sinov ishlari. Bunda testning psixometrik xarakteristikalarini (ya'ni testning shaxsdagi xususiyatlarni qay darajada o'lchay olishini) aniqlash hamda testdagi noaniqliklar va xatolarni aniqlash maqsadida o'tkaziladigan jarayon.

Attestatsiya – ta'lim tashkilotining faoliyatini baholashda davlat nazoratining asosiy shakli hisoblanadi va ta'lim tashkilotlarida kadrlar tayyorlash mazmuni, darajasi va sifatining davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablariga hamda o'quv dasturlariga muvofiqligini aniqlashdan iborat. Ya'ni ta'lim tashkilotida davlat ta'lim standartlari talablarining bajarilishini baholash, nazorat qilish jarayoni.

Autentik baholash – ta'lim oluvchilarning o'rganganlarini real hayotiy kontekstlarda qo'llay olishini o'lchash va baholash jarayoni.

“B”

Baho berish – o'rganilgan kuzatishlar va o'lchash orqali olingan natijalar asosida ta'lim sifati belgilangan talablarga javob berishi yoki bermasligi haqida qaror qabul qilish jarayoni.

Baholash davriyligi – baholash jarayonini tashkil etishdagi belgilangan vaqtlar oralig'i.

Baholash funksiyalari – baholash jarayonining ta'limdagi vazifalari.

Baholash maqsadi – baholash jarayonini amalga oshirishdan nazarda tutilgan muddao.

Baholash mazmun sohasi – ta'limda o'quvchilarning baholanadigan bilim va ko'nikmalari majmui.

Baholash metodi – ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasini o'lchash va baholash usuli.

Baholash mezonlari – o'quvchining belgilangan bilim va ko'nikmalarni egallaganlik darajasini to'g'ri va haqqoniy tekshirish imkonini beruvchi o'lchovlar majmui.

Baholash rubrikalari – o'quvchilarning ta'lim olish jarayonidagi muvaffaqiyatini baholashda ishlatilishi mumkin bo'lgan darajali mezonlar yig'indisi.

Baholash spetsifikatsiyasi (tafsilotlari) – baholashda qamrab olingan mazmun sohalari, baholash formati, mazmun tarkibi, o'lchanadigan va baholanadigan o'quv natijalari, baholash mezonlari, test turlarini aks ettiradigan test topshirig'ini tuzish uchun asos bo'luvchi me'yoriy hujjat.

Baholash yo'riqnomasi – baholash jarayoni tartiblari va talablari aks etgan instruksiya.

Baholashda qulaylik – sinov ta'lim maqsadlaridan kelib chiqqan holda, ta'lim standartlariga mos bo'lishi, murakkab bo'lmasligi, baholovchilar va imtixon topshiruvchilar uchun qulay bo'lishi.

Baholashning qulayligi – baholash vositalarining ishlab chiqish va foydalanish jarayonlarida kam vaqt, xarajat hamda harakat talab qilishi.

Bashorat validligi – test topshiruvchilarning natijasiga qarab baholash domeniga doir ko'nikma va qobiliyatlarini egallay olishini bashorat qila olishi.

Belgilar bilan o'lchash shkalasi – o'quvchining ta'limdagi yutuqlarini o'lchab, natijalarni belgilar bilan ifodalash shkalasi.

Benchmarking – ta'lim sifatining xalqaro, mahalliy va ta'lim tashkilotlari kesimida o'zaro taqqoslash va eng yaxshi amaliyotlarni aniqlash jarayoni.

Bevosita o'lchash – baholash obyekting xususiyatini to'g'ridan to'g'ri o'lchash jarayoni.

Bilvosita o'lchash – baholash obyekting xususiyatini bilvosita – vositachi xususiyat yordamida o'lchash jarayoni.

Binar test – hukmni to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini tasdiqlovchi javob variantlaridan iborat bo'ladi.

Bosqichli davlat imtihoni – boshlang'ich ta'lim yoki tayanch o'rta ta'lim bosqichi bitiruvchilarining muayyan fanlardan egallagan bilim va ko'nikmalarini o'lchash va baholash.

“D”

Dastlabki ekspertiza – test muallifi tomonidan test baholash qonuniyatlariga amal qilingan holatda tuzilgani yoki tuzilmaganini nazariy jihatdan o'rganib chiqish va zaruriy o'zgartirishlarni kiritish jarayoni.

Davlat akkreditatsiyasi – ta'lim tashkilotlari faoliyatining davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablariga hamda o'quv dasturlariga muvofiqligining davlat tomonidan e'tirof etilishi hamda ularning bitiruvchilariga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ma'lumot to'g'risidagi hujjatlarni topshirish huquqini berishdan iborat. Ya'ni ta'lim tashkilotlariga tekshirish va o'rganish natijalari asosida faoliyat yuritishi uchun hujjat berish jarayoni.

Diagnostik (tashxislovchi) baholash – o'quv yili boshida va oxirida o'quvchining egallagan bilim va ko'nikmalarini norasmiy tashxislash hamda o'rganish jarayoni.

Distraktorlar – testning to'g'ri javobiga yaqin bo'lgan chalg'ituvchi variantlari.

Dolzarblik va hayotiylik tamoyili – real hayotda qo'llay olish mumkin bo'lgan dolzarb bilim va ko'nikmalarni baholash.

Domen – baholanadigan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarning umumiy nomi.

“E”

Egallash testlari – ta'lim oluvchining belgilangan ko'nikma va qobiliyatlarni egallash darajasini baholash uchun ishlatiladigan topshiriqlar.

Ekspertiza qilish – malakali mutaxassislar tomonidan sinov materiallarining baholash qonuniyatlari talablariga javob berishini tekshirish jarayoni.

“F”

Formativ (shakllantiruvchi) baholash – joriy dars mashg'uloti davomida o'lchash va kuzatish orqali o'quvchining egallagan bilim va ko'nikmalari haqida ma'lumot to'plash va natijani yaxshilash uchun ko'rsatmalar berish jarayoni.

“G”

Geterogen test – bir nechta fan sohalarini qamrob oluvchi test.

Gomogen test – faqat bir fan sohasi bo'yicha test topshiriqlaridan iborat bo'ladi.

Gradual test – javoblari ichidan eng to'g'risi tanlanadigan darajali testlar.

“H”

Haqiqiy baho – test topshiruvchining standart xatoliklardan xoli haqiqiy bahosi.

Hosilaviy o'lchash – baholash obyektining xususiyatini ikki va undan ortiq jihatlarning o'zaro bog'liqligini tahlil qilish orqali o'lchash jarayoni.

“I”

Ichki baholash – vakolatli tashkilot tomonidan tasdiqlangan normativ hujjatlar asosida ta'lim tashkilotlarining o'zini o'zi baholash jarayoni.

Imtihon komissiyasi – nazorat ishi natijalarini tekshiruvchi hakamlar hay'ati.

Imtihon materiallarining maxfiyligi – nazorat materiallarining tarqalib ketmasligi, sir qolishi.

Imtihon nazoratchisi – nazorat ishini o'tkazilishini kuza-tib boruvchi ma'sul xodim.

Imtihondan chetlatish – imtihonda ta'lim oluvchi belgi-langan talablarni buzgan taqdirda imtihondan chiqarib yubo-rish holati.

Indikator – baholash obyektining xususiyatini o'lchashda foydalaniladigan o'lchov mazmuni.

Ipsativ baholash – o'quvchining natijalarini xuddi shu mazmundagi imtihonda qayd etgan oldingi natijalari bilan so-lishtirilishi.

Ishonchlilik – baholash vositalarining tasodifiy xatolardan xolilik darajasi o'lchov vositasida olingan natijalarning barqa-rorligi.

“J”

Joriy nazorat – dars davomida o'quvchining bilim va ko'nikmalarni muntazam nazorat qilib borish.

“K”

Kognitiv ko'nikmalar – o'qitish va o'rganish jarayonida o'quvchilarning bilish faoliyati bilan bog'liq bo'lgan ko'nikmalari. Jumladan, eslab qolish, tushunish, qo'llash, sintez qilish, analiz qilish, baho berish, yaratish kabilar.

Konstrukt – baholanayotgan obyektning o'lchanadigan xu-susiyati.

Ko'p baholash (“over-assessment”) – ta'lim jarayonida haddan tashqari ko'p darajada summativ baholashni amalga oshirish.

“L”

Laboratoriya ishi – laboratoriyada tadqiqot qilib, tajriba o'tkazib, o'lchab, tekshirib ko'rishni talab etadigan topshiriqlar.

Loyiha ishi – fan bo'yicha muayyan muammoga yechim topish, o'z g'oyasini taqdim qilish va shu kabilarni talab etadigan topshiriqlar. Baholashda bajariladigan ish sifati va ish jarayoni inobatga olinadi.

“M”

Mazmuniy validlik – test topshiriqlari o'lchanishi va baholanishi lozim bo'lgan domen mazmuniga mos bo'lishi.

Mezoniy validlik – baholash mezonining asosli ekanligi, baholash natijalari tegishli boshqa test natijalariga mutanosib bo'lishi.

Mezonli baholash – ta'lim oluvchilarning oldindan belgilangan talablarni bajarishi yoki bajara olmasligini tekshirish jarayoni.

Milliy baholash tadqiqoti – ta'limning samaradorligini aniqlash, milliy ta'lim taraqqiyotini kuzatib borish va ta'lim tizimining xalqaro standartlarga mos kelishini o'rganish maqsadida muayyan fanlardan o'qitish natijalarini xalqaro baholash dasturlari talablari asosida o'lchash va baholash jarayoni.

Monitoring qilish – baholash natijalari va so'rovnomalar tahlili asosida o'tkaziladigan ta'lim haqida xulosa chiqarishga imkon beradigan baho berish jarayoni.

Moslashtirish testi – javoblarini moslashtirishni talab etadigan testlar.

Muqobil baholash usullari – me'yoriy baholash usullari o'rnini bosuvchi baholash usullari. Jumladan, suhbat, og'zaki taqdimot va boshqalar.

Muqobil javobli test – to'g'ri javob va muqobil javob variantlari mavjud bo'lgan test.

Muvaffaqiyat testlari – ta'lim oluvchining aniq o'quv materialini o'zlashtirish darajasini baholash uchun ishlatiladigan topshiriqlar.

Muvofiqlik tamoyili – baholash talablari o'quvchilarning saviyasi va o'rganayotgan ta'lim mazmuniga mos bo'lishi.

“N”

Nazariy ekspertiza – test topshirig'ini nazariy jihatdan testologiya talablariga mos ekanini, test topshiruvchining haqiqiy bilimini aniqlashga salbiy ta'sir qiladigan holatlar bor yoki yo'q ekanligini aniqlash hamda test sifatini yaxshilash uchun tavsiya beriladigan jarayon.

Nazorat ishi grafigi – nazorat ishi o'tkaziladigan vaqt, joy aks etgan jadval.

Nazorat material – nazorat ishida foydalaniladigan topshiriqlar.

Nazorat varaqalari – o'quvchilar ta'lim olish jarayonida o'zlashtirishi kerak bo'lgan bilim va ko'nikmalari ro'yxati aks etgan va u asosida o'quvchi muvaffaqiyati tekshiriladigan varaqa.

Nazorat xonasi – nazorat ishi o'tkaziladigan auditoriya.

Nisbiy baholash – ta'lim oluvchilarning bilim va ko'nikmalarni egallaganlik darajasini boshqalar natijasi bilan qiyoslab tekshirish jarayoni.

“O”

Ochiq test – javob yozishni talab qiladigan topshiriq.

Oraliq nazorat – chorak oxirida yoki bob tugaganda o'quvchining ta'limda erishgan natijalarini baholab borish.

“P”

Portfolio – har bir bajargan vazifalari, kichik individual loyihalari, viktorina javoblari, amaliy ishlanmalar, yozma ishlar,

rubrikalar, nazorat varaqalari, umuman, o'quvchi yutuqlari va o'qituvchisining unga bergan rag'batlari yig'ib borilgan portfel. Bunda portfel hajmi va sifatiga qarab baho qo'yiladi.

Prognostik baholash – o'quvchining keyingi harakatlarini va mavjud qobiliyatlarini bashorat qilish uchun amalga oshiriladi.

Pisixomotor ko'nikmalar – pisixologik jaroyonlar va jismoniy harakatlarni mofiqlashtirishga xizmat qiladigan qobiliyat va ko'nikmalar. Masalan jismoniy harakatlarni nazorat qilish.

“R”

Raqamlar bilan o'lchash shkalasi – o'quvchining ta'limdagi yutuqlarini o'lchab, natijalarni sonlar bilan ifodalash shkalasi.

“S”

Solishtirma validlik – baholash natijasining belgilangan mezon bo'yicha boshqa aynan shu mazmundagi test natijalari bilan teng bo'lishi.

So'rovnoma – ta'lim ishtirokchilaridan ta'lim muhiti va si-fati yuzasidan olinadigan yozma so'rovlar majmui.

Subdomen – domenning ichki bo'linishi. Masalan, til bilish darajasi bo'yicha: o'qish savodxonligi, yozish savodxonligi, eshi-tish savodxonligi, gapirish savodxonligi.

Subyektiv validlik – test topshirig'ini o'lchash uchun mo'ljallangan baholash domenini to'g'ri o'lchashini baholovchi-lar tomonidan subyektiv ravishda tasdiqlash.

Summativ (xulosalovchi) baholash – ta'lim jarayoni-ning muayyan bir davri (choraklik, yarim yillik yoki o'quv yili nihoyasida) oxirida yoki bosqichi (boshlang'ich, tayanch, o'rta ta'lim) yakunida o'quvchining o'quv maqsadlariga qay daraja-da erishganligini, o'qituvchilar faoliyatining samaradorligini,

o'qitishning natijadorligini muntazam ravishda rasmiy nazorat qilish jarayoni.

"T"

Ta'lim haqida xulosa berish – ta'lim samaradorligini baholash va monitoring natijasida chiqarilgan xulosalar.

Ta'lim sifati monitoringi – ta'lim jarayonining borishi, uslubiy va tashkiliy jihatdan ta'minlanganligi kuzatiladigan, tahlil qilinadigan, baho beriladigan va ta'limdagi sifat ko'rsatkichlari aniqlanib, xulosa qilinadigan hamda istiqboldagi rejalar belgilanadigan ta'lim sifatini baholash va nazorat qilishning uzluksiz jarayoni.

Ta'limda baho daxlsizligi – ta'lim oluvchining o'qish va o'rganishdagi muvaffaqiyatsizliklari, qayd etgan past natijalari uchun jazolanmasligi va kamsitilmasligi.

Ta'limda benchmarking – turli baholash usullari orqali ta'lim tizimlarining sifatini aniqlash va ularni o'zaro qiyoslash.

Ta'limda monitoring – milliy ta'lim tizimining yutuqlarini, ta'lim dasturlari va o'qitish kontentlari (darslik, multimedia vositalari va boshqalar)ning samaradorligini, maktabdagi ta'lim sifati va muhitini, o'qituvchilar salohiyatini, o'quvchilarning shaxsiy muvaffaqiyatlarini aniqlash orqali ta'lim tashkilotlarini davlat akkreditatsiyadan o'tkazish, ularda javobgarliklarni oshirish va o'zini-o'zi takomillashtirish choralari tavsia etish jarayoni.

Ta'limga rag'bat – ta'lim oluvchining o'qish va o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirish jarayoni.

Tarkibiy validlik – baholash mazmuniy tarkibi fanga doir o'quv natijalarini to'liq qamrab olishi.

Tashqi baholash – vakolatli tashkilot va u bilan kelishilgan holda jamoat tashkilotlari hamda talabgorlar tomonidan ta'lim

tashkilotidagi ta'lim sifatini o'lchash uchun normativ hujjatlarda belgilangan tartibda o'tkaziladigan baholash jarayoni.

Test topshirig'ining tashqi ekspertizasi – tashkilotning boshqa bir mutaxassisi yoki tegishli sohaning yetuk mutaxassislari tomonidan test topshirig'ining testologiya talablariga mos ekanini, test topshiruvchining haqiqiy bilimni aniqlashga salbiy ta'sir qiladigan holatlar bor yoki yo'q ekanligini nazariy jihatdan aniqlash hamda testni sifatini yaxshilash uchun tavsiya berilish jarayoni.

Test dizayni – test topshiriqlarining savollar kitobida ifodalanishi, qay holatda ko'rinishi.

Testtopshirig'i (ing: sinov, tekshirish) – test topshiruvchilarning bilim, ko'nikma va qobiliyatlarining shakllanganlik darajasini baholashda qo'llanadigan har qanday topshiriq yoki topshiriqlar majmui.

Testologik ekspertiza – aprobatsiya natijalari asosida test topshiriqlarining validlik, ishonchlilik ko'rsatkichlari, qiyinlik darajasini aniqlash va distraktorlar tahlilini amalga oshirish jarayoni.

Tizimlilik va izchillik tamoyili – baholash amaliyotlari izchil va davriy ravishda amalga oshirilishi.

“V”

Validlik – baholashning maqsadidan kelib chiqqan holda test natijalari yordamida chiqarilgan xulosalarning ilmiy jihatdan asosli ekanligi.

“X”

Xalqaro baholash – hukumatning tegishli qarori va xalqaro shartnomalar asosida xalqaro tashkilotlar hamkorligida respublika bo'yicha ta'lim tashkilotlaridagi ta'lim sifatini baholash va xalqaro benchmarking qilish maqsadida o'tkaziladigan baholash jarayoni.

Xom ball – testning to'g'ri bajarilgan javoblari asosida hisoblangan dastlabki bali.

“Y”

Yagona davlat imtihoni – umumiy o'rta ta'lim bitiruvchilari ning muayyan fanlardan umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarida belgilangan o'quv natijalarini hamda oliy ta'lim tashkilotlariga qabul qilish uchun tegishli mutaxassislik fanlaridan egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini o'lchash va baholash.

Yagona sinov – ta'lim oluvchilarning egallagan bilim va ko'nikmalarni yagona umumiy baholash mezonini yordamida baholash jarayoni.

Yakuniy ekspertiza – testologik ekspertiza natijalari asosida test topshiriqlaridan yaroqlilarini ajratib olib, bazaga kiritish haqida xulosa berish, yaroqsizlarini qayta ishlash uchun test muallifiga qaytarish jarayoni.

Yakuniy nazorat – bitiruvchi sinflarning DTS talablarini qay darajada bajarganligini baholab borish.

Yaxlit baholash – o'quvchilarni fan bo'yicha akademik darajasi va kognitiv bo'lmagan ko'nikmalarining rivojlanish darajasini yaxlit o'lchash va baholash jarayoni.

Yillik summativ baholash – o'quvchining muayyan fanlardan egallagan bilim va ko'nikmalarini o'quv yili oxirida o'lchash va baholash.

Yillik yig'ma reyting ko'rsatkichi (bahosi) – o'quvchilarning o'quv yili davomida nazorat turlari bo'yicha olgan ballari yig'indisi.

Yopiq test – berilgan javob variantlaridan to'g'risini tanlashni talab qiladigan topshiriq.

“O”

O'lchanadigan xususiyat – baholash obyektining baholash vositalari yordamida baholanayotgan xususiyatlari.

O'lchash – baholash obyektining xususiyatlarini raqamlar yoki belgilar bilan o'lchash jarayoni.

O'lchash elementlari – o'lchash jarayoni muhim tushunchalari.

O'lchash vositasi – baholash obyektining xususiyatini o'lchash vositalari va usullari.

O'lchov – baholanayotgan obyektning jihatlarini, xususiyatlarini o'lchashda ishlatiladigan miqdoriy ko'rsatkichlar, o'lchagich. Bu ballar yoki belgilar sifat darajalari bilan ifodalanadi.

O'quv natijalari – o'quv dasturida fan bo'yicha o'quvchi egallashi lozim bo'lgan, o'lchash va baholash mumkin bo'lgan bilim va ko'nikmalar.

“SH”

Shaffoflik – test jarayoning barcha qatnashchilari (test topshiruvchilar, testni o'tkazishga mas'ullar, testni baholaydiganlar, test natijalarini ishlatadiganlar) testda nima talab qilinishi va test topshiruvchilarning ishlari qanday baholanishi haqida yetarlicha ma'lumotga ega bo'lishi.

“CH”

Chiziqli test – oldindan belgilangan ketma-ketlikda taqdim etiladigan topshiriqlarni taqdim etish shakli, baholash usuli

Choraklik summativ baholash – chorak davomida o'quvchining egallagan bilim va ko'nikmalarini o'lchash va baholash.

II. TA'LIMDA O'LCHASH VA BAHOLASH

2.1. Ta'limda o'lchash va uning turlari

Ta'lim jarayonida o'lchash va baholash tushunchalari bir-biridan farqlanadi. Ta'lim taraqqiyotini uzoq vaqt bu tushunchalar farqlanmagan. O'quvchilarning bilim va ko'nikmalari baholab kelingan. Testologiya va psixometrikaning rivojlanishi natijasida ta'limda o'lchash va baholash farqlana boshlandi. O'lchash miqdoriy ko'rsatkichlarni aniqlash, hisoblash jarayoni sifatida, baholash esa sifat ko'rsatkichlarini belgilash deya talqin qilina boshlandi.

O'lchash tushunchasi. Ta'limda baholash jarayonining muhim bir qismi "o'lchash" hisoblanadi. Bu tushuncha haqida ko'plab olimlar o'z munosabatlarini bildirgan. "O'lchash" tushunchasiga o'zbek mutaxassislaridan K.Jalilov to'xtalar ekan, klassik test nazariyasining asoschilaridan Frederik Lord (Frederick Lord) va Melvin Novik (Melvin Novick) "o'lchash" atamasiga bergan ta'rifini keltiradi: "o'lchash – bu tajriba obyekting konkret xususiyatlariga raqamlar (ballar)ni biriktirish jarayoni."¹ Yuqorida nomi keltirilgan olimlar o'lchashni amalga oshirishning uch bosqichini ajratib ko'rsatadi:

- birinchi: tajriba *obyektini* aniqlash;
- ikkinchi: o'lchanadigan *xususiyatni* aniqlash;
- uchinchi: tajriba obyekting o'lchanayotgan xususiyatini *raqam bilan ifodalash qoidasini* aniqlashtirishimiz lozim.²

¹ Jalilov K. Baholash nazariyasi asoslari. –Toshkent, Akademnashr, 2020, 10-bet. Lord F. and Novick M. Statistical Theories of Mental Test Scores. – Reading, MA: Addison-Wesley Pub. 1968. – P.17.

² Jalilov K. Baholash nazariyasi asoslari. –Toshkent, Akademnashr, 2020, 10-bet. Lord F. and Novick M. Statistical Theories of Mental Test Scores. – Reading, MA: Addison-Wesley Pub. 1968. – P.17.

O'lchash elementlari. Darhaqiqat, "o'lchash"da ushbu jarayonlarni amalga oshirish uchun quyidagi to'rt tushunchani farqlab olishimiz kerak:

- *obyekt*;
- *obyektning o'lchanadigan xususiyati*;
- *o'lchash vositasi*;
- *o'lchov*.

Obyekt – o'lchanayotgan shaxs yoki narsa-predmet hisoblanadi.

O'lchanadigan xususiyat esa baholanayotgan obyektning o'lchanayotgan jihatlari va sifatlari hisoblanadi.

O'lchash vositasi – baholanayotgan obyektning jihatlari, xususiyatlarini o'lchashda foydalaniladigan vosita yoki usul hisoblanadi.

O'lchov – baholanayotgan obyektning jihatlari, xususiyatlarini o'lchashda ishlatiladigan miqdoriy ko'rsatkichlar, o'lchash moslamasidir.

Keling, buni soddaroq tushuntiramiz. Quyidagi jumlani tahlil qilib ko'ramiz:

Ali ona tili fani bo'yicha testdan 86 ball oldi.

Bunda *baholash obyekti* – Ali; *o'lchanadigan xususiyat* – Alining ona tili fanini bilish darajasi; *o'lchash vositasi* – test; *o'lchov* esa 86 ball hisoblanadi.

Qadrli o'rganuvchi, shu o'rinda *o'lchanadigan xususiyat nima ekanligini* yanada yaxshiroq aniqlab olishimiz kerak: baholanayotgan obyektning qaysi xususiyati o'lchanishiga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Masalan, biror-bir insonning *bo'yi uzunligini* o'lchash, uning *aqliy salohiyatini* o'lchashdan farq qiladi. Insonning uzunligi – uning aniq xususiyati hisoblanadi. Shuning uchun u predmet – "metr" yordamida o'lchanadi va natija ham aniq bo'ladi. Biroq insonning aqliy salohiyati – mavhum, to'g'ridan to'g'ri ko'rinmaydigan xususiyati hisoblanadi.

Shuning uchun uni bevosita o'lchashning imkoni yo'q. Demak, baholanayotgan obyektning o'lchanayotgan xususiyatlari ikki xil bo'ladi:

-*aniq xususiyat*;

-*mavhum xususiyat*.

Baholash nazariyasi taraqqiyotining ilk davrlarida ta'limda o'lchanadigan mavhum xususiyatlar kuzatish orqali tekshirilib kelingan. Biroq testologiyaning rivojlanishi natijasida mavhum tushunchalarni aniq o'lchash imkoni paydo bo'ldi. Bunda baholanayotgan predmetning bevosita o'lchab bo'lmaydigan mavhum xususiyatlarining shakllanganlik darajasi unga biror-bir topshiriqni bajartirib ko'rish orqali aniqlanadi. Bu *vositachi xususiyat* deb ataladi *Vositachi xususiyat* – baholanuvchi bajarib ko'radigan topshiriqlar xususiyati. Masalan, ***Ali ona tili fani bo'yicha testdan 86 ball oldi.***

Mazkur jumladagi *o'lchash vositasi* – test edi. *Vositachi xususiyat* – test topshiriqlarining mazmuni hisoblanadi.

Bir so'z bilan aytganda, baholashda foydalaniladigan topshiriqlar mazmuni o'lchanayotgan predmetning mavhum xususiyatlarini tekshirishga qaratilgan bo'lishi lozim.

O'lchash usullari. O'lchash usullari nimani qanday tekshirishiga qarab uch guruhga ajratiladi:

1) *bevosita o'lchash* – obyektning aniq xususiyatini to'g'ridan to'g'ri o'lchash jarayoni. Masalan, *uzunlikni, vaqtni v.b.*

2) *bilvosita o'lchash* – obyektning mavhum xususiyatini bilvosita – vositachi xususiyat yordamida o'lchash jarayoni. Masalan, *bilim darajasini, issiqlikni, yozish savodxonligini v.b.*

3) *hosilaviy o'lchash* – obyektning xususiyatini ikki va undan ortiq jihatlarining o'zaro bog'liqligini tahlil qilish orqali

o'lchash jarayoni. Masalan, *tezlikni (km/s), IQ darajasini (tafakkur darajasi va yosh) v.b.*

Ta'limda o'quvchilarning o'qish va o'rganishdagi natijalarini tekshirishda "bilvosita o'lchash" yoki "hosilaviy o'lchash" usullaridan foydalaniladi. Chunki o'quvchining egallagan ta'lim natijalarini to'g'ridan to'g'ri o'lchash imkoni mavjud emas.

O'lchash va baholash shkalalari. Baholanayotgan objektning xususiyatlarini o'lchash natijalarini ifodalashda bir-biridan farqli ikki xil shkaladan foydalaniladi:

-belgilar bilan o'lchash shkalasi;

-raqamlar bilan o'lchash shkalasi.


1. Belgilar bilan o'lchash shkalasi – o'quvchining ta'limdagi yutuqlarini o'lchab, natijalarni belgilar bilan ifodalash shkalasi. Bunda ikki xil yondashuv mavjud:

a) guruhlash shkalasi – o'quvchining ta'limdagi yutuqlarini tekshirib, farqli va o'xshash xususiyatlari asosida alohida-alohida guruhlarga ajratiladigan shkala. Masalan, *"qoniqarli"* va *"qoniqarsiz"*.

b) tartiblash shkalasi – o'quvchining ta'limdagi yutuqlarini tekshirilib, natijalar yuqoridan pastga yoki pastdan yuqoriga qarab tartiblashtiriladigan o'lchash shkala. Masalan, *"5", "4", "3", "2", "yuqori", "o'rta", "quyi" v.b.*

2. Raqamlar bilan o'lchash shkalasi – o'quvchining ta'limdagi yutuqlarini o'lchab, natijalarni sonlar bilan ifodalash shkalasi.

Reyting shkalasi – o'quvchilarning egallagan o'quv natijalarini baholash, reyting asosida raqamlar bilan o'lchash shkalasi. Masalan, *100, 99, 98 ... 2, 1, 0.*



2.1-rasm. Ta'lim tizimida o'lchash va baholash jarayoni

Yuqoridagi o'lchash shkalalarining afzalliklari va kamchiliklari quyidagi jadvalda ifodalangan.

2.1-jadval

O'lchash shkalalarining afzalliklari va kamchiliklari

O'lchash shkalalari	Yutuqlari	Kamchiliklari
guruhlash shkalasi	Ta'lim oluvchilarni sinovda qayd etgan natijalari asosida muayyan guruhlariga ("qoniqarli" va "qoniqarsiz") ajratishga imkon beradi.	Baholarning guruhlar ("qoniqarli" va "qoniqarsiz") ichida sezuvchanligi yo'q. Masalan, "qoniqarli" natija olganlarni bir-biridan farqlashga imkon bermaydi.
tartiblash shkalasi	Ta'lim oluvchilarni sinovda qayd etgan natijalari asosida muayyan tartibdagi guruhlariga ("5", "4", "3") ajratishga imkon beradi.	Ta'lim oluvchilarni sinovda qayd etgan natijalari asosida ketma-ketligini qiyosiy aniqlash imkonini beradi, ammo birinchi va ikkinchi o'rinda turganlarning aniq farqini ajratishga imkon bermaydi.

reyting shkalasi	Ta'lim oluvchilarni sinovda qayd etgan natijalari asosida ketma-ket joylashtirishga va ketma-ket turganlarning aniq farqini ajratishga imkon beradi.	Hisoblash uzoq vaqtni talab etadi.
-------------------------	--	------------------------------------



Mustahkamlash.

Quyidagi savollarga birma-bir og'zaki javob bering hamda keys topshiriqlarini guruhdoshlaringiz bilan muhokama qilib mavzuni mustahkamlang.



SAVOLLAR

1. O'lchash tushunchasiga ta'rif bering.
2. O'lchash elementlarini sanang va har birini izohlang.
3. O'lchash usullari haqida ma'lumot bering.
4. Bevosita o'lchash haqida ma'lumot bering.
5. Bilvosita o'lchash haqida ma'lumot bering.
6. Hosilaviy o'lchash haqida ma'lumot bering.
7. Baholash shkalalari haqida ma'lumot bering.
8. Ta'lim tizimimizdagi baholash shkalasini tahlil qilib bering.
9. Baholash shkalalarining afzalligi va kamchiligi haqida ma'lumot bering.
10. Nima uchun maktablarda o'quvchilardan kundaligiga 2 ta "5" yoki "+5" qo'yib berishini so'rashadi?



KEYS

Quyidagi ta'limiy vaziyatni o'qing va savolga munosabatingizni bildiring.

“A” maktabda o'quvchilarning bilim va ko'nikmalari “bajardi” va “bajara olmadi” shaklasidan foydalanilgan holda baholanadi. “B” maktabda esa o'quvchilarning bilim va ko'nikmalari “a'lo”, “yaxshi”, “qoniqarli” va “qoniqarsiz” shaklasidan foydalanilgan holda baholanadi. “C” maktabda esa o'quvchilarning bilim va ko'nikmalari 100 ballik shkalada baholanadi. Oliy ta'limga kirish sinovlarda “C” maktab o'quvchilari eng yuqori natijada erishdi.

Yuqoridagi vaziyatdan kelib chiqib, quyidagi savollarga javob toping.

1. “C” guruhining yuqori natija ko'rsatishiga sabab nima deb o'ylaysiz?
2. “A” va “B” guruhlarda baholashni tashkil etish bilan bog'liq qanday xatolikka yo'l qo'yildi?
3. Ushbu vaziyatda baholash shkalalari bilan bog'liq qanday muammo namoyon bo'lmoqda va u o'quvchilarning natijalariga qanday ta'sir ko'rsatgan bo'lishi mumkin?

ADABIYOTLAR

1. Jalilov K. (2022) Baholash nazariyasi asoslari. Toshkent. Akademnashr.
2. Lord F. and Novick M. (1968) Statistical Theories of Mental Test Scores. – Reading, MA: Addison-Wesley Pub.
3. Dr. Bob Kizlik. Measurement, Assessment, and Evaluation in Education. [<http://www.adprima.com/measurement.htm>]
4. Bastanfar, Ali. “Alternatives in assessment” Islamic Azad University, Khoy, Iran (2012). [<https://www.academia>]

edu/download/ 43362488/DrJJ-Measure-assess-evaluate-ADPRIMA-n-more-7052012.pdf]

5. Ahmet Salih Şimşek. (2020) Ölçme, Ölçme Türleri ve Ölçek Türleri. [https://www.youtube.com/watch?v=lOvl41CdZJE&t=839s]

2.2. Ta'limda baholash jarayonini loyihalashtirish

Zamonaviy ta'limning maqsadi faqat bilim berish emas, qobiliyat va fazilatlarini rivojlantirish. Darhaqiqat, bugungi ta'lim faqatgina bilimli avlodni emas, balki uni hayotda qo'llay oladigan ijodkor, tashabbuskor, moslashuvchan avlodni tarbiyalashni taqozo etmoqda. Bunga esa faqat ta'lim tizimini to'g'ri tashkil etish orqali erishish mumkin. Ta'lim tizimini tashkil etish murakkab bo'lib, bir-biriga bog'liq bo'lgan bir nechta jarayonlardan iborat. Bu jarayonlarni loyihalashtirish, tashkil etish va amalga oshirishda biror-bir kichik xatolikka yo'l qo'yilsa, tizimli muammolarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun ta'limni tashkil etishda uning har bir komponentiga alohida e'tibor berish lozim.

Baholash jarayonini loyihalash. Bu – ta'lim oluvchilarning belgilangan o'quv natijalariga qay darajada erishganligini to'g'ri o'lchash va baholash tartibini rejalashtirishdir.

Ta'lim jarayonini tashkil etishda baholash jarayonini to'g'ri loyihalash ahamiyatli hisoblanadi. U – ta'lim muhiti, ta'lim davomiyligi, har bir fanning individual xususiyatlari, ta'lim oluvchilarning subyektiv jihatlari hamda umumiy baholash prinsiplari asosida amalga oshiriladi.

Baholash rejasini ishlab chiqishda quyidagilarni hisobga olish lozim:

– *baholashdagi yondashuvlarni;*

- baholash tamoyillarini;
- baholash formatini;
- instruksiyalar taqdim etishni;
- ta'limdagi inklyuzivlik va tenglikni;
- o'quvchilarni har tomonlama baholashni;
- so'rovnomalar o'tkazishni;
- alternativ baholashni;
- baholashning qayta aloqasini.

Baholash jarayonini loyihalashda quyidagilar ketma-ket amalga oshirilishi lozim:

- baholash maqsadlarni aniq belgilash;
- baholash mezonlarini belgilash;
- baholash usullarini tanlash;
- baholashni o'tkazish tartibini belgilash;
- baholash vositalarini tuzish;
- baholash instrumentlarini ekspertiza qilish;
- baholash instrumentlarini tajriba-sinovdan o'tkazish;
- baholash instrumentlarining sifatini ilmiy asoslash;
- qaror qabul qilish uchun tavsiyalar ishlab chiqish;

Bir so'z bilan aytganda, baholash jarayonini to'g'ri loyiha-lash ta'lim tizimini yaxshi tuzish va o'quvchilar uchun samarali ta'lim berishni ta'minlash asosi hisoblanadi.

Baholash jarayonini tashkil etish bosqichlari. Baho-lashni tashkil etish tizimli jarayon bo'lib, u bir qancha bosqich-larni o'z ichiga oladi. Bu bosqichlar ketma-ketligiga amal qilish sifatli ta'limni kafolatlaydi hamda baholashning ta'limga va ja-miyatga salbiy ta'siri oldini oladi. Baholash jarayoni quyidagi bosqichlarda tashkil etiladi:

Baholash jarayonini tashkil etish bosqichlari

Bosqich-lar	Amalga oshiriladi-gan ishlar	Amalga oshiriladigan ishlar mazmuni
1-bosqich	Maqsadni aniqlash	Baholashning maqsadi aniqlanadi. Test nima maqsadda o'tkazilishiga qarab uning qanday shaklda bo'lishi, qanday xarakteristikalarga ega bo'lishini belgilab beradi.
2-bosqich	Mazmunni belgilash	O'lchanishi kerak bo'lgan baholash mazmuni aniqlanadi. Bunda ta'lim standartlarida belgilangan talablar o'rganilib, o'lchash imkoni bo'lgan va hayotda qo'llay olishi mumkin bo'lgan bilim va ko'nikmalar ro'yxati ajratib olinadi. Ya'ni baholash domeni, subdomeni va konstruktleri tuzib chiqiladi.
3-bosqich	Baholash spetsifikat-siyasini ishlab chiqish	Baholash tafsilotlari aks etgan hujjat – baholash spetsifikatsiyasi ishlab chiqiladi. Undan baholash maqsadi, huquqiy-me'yoriy asosi, baholanayotgan bilim va ko'nikmalar, baholashda foydalaniladigan topshiriqlarning soni, turi, qiyinlik darajasi, baholash mezoni va imtihon uchun ajratilgan vaqt kabilar o'rin oladi.
4-bosqich	Topshiriqlar-ni tuzish	Spetsifikatsiyasida belgilangan talablar asosida topshiriqlarni tuzib chiqiladi.
5-bosqich	Topshiriqlar sifatini ta'minlash	Yaratilgan topshiriqlar malakali mutaxassislar ishtirokida nazariy ekspertizadan o'tkaziladi, ularga zaruriy o'zgartirishlar kiritiladi. Tayyor bo'lgan topshiriqlar test topshiruvchilar ishtirokida tajriba-sinovdan o'tkaziladi va testologik, psixometrik ekspertizadan o'tkaziladi. Kerakli o'rinlarda tahrirlar amalga oshiriladi. Umuman, maqsadga muvofiqligi tekshiriladi. Tajriba-sinovda olingan natijalar asosida topshiriqlarning validligi, ishonchligi testologik nazariyalar asosida tasdiqlanadi. Zarurat tug'ilsa, qaytadan aprotatsiya ham o'tkazilishi mumkin.
6-bosqich	Yo'riqnoma-lar ishlab chiqish	Test topshiruvchilar, imtihon nazoratchilari va baholovchilar uchun baholash jarayonini tashkil etish tartiblari, ko'rsatmalari aks etgan yo'riqnima ishlab chiladi.

7-bosqich	Imtihon jarayonini o'tkazish	Bunda ta'lim oluvchilardan belgilangan tartibda imtihonlar olinadi hamda nazorat ishi materiallari tekshirilib, javoblar e'lon qilinadi.
8-bosqich	Monitoring qilib, baho berish	Nazorat ishi natijalari asosida o'quvchilarning o'zlashtirish, sifat ko'rsatkichlarini aniqlash. Shuningdek, imtihon va so'rovnoma natijalarini tahlil va talqin qilish asosida ta'limni takomillashtirish uchun tavsiyalar taqdim etish.

Baholash spetsifikatsiyasini ishlab chiqish. Ta'lim oluvchilarda bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarning rivojlanganlik darajasini tekshirishda eng muhim hujjat baholash spetsifikatsiyasi hisoblanadi.

Baholash spetsifikatsiyasi – imtihon uchun asos bo'luvchi me'yoriy hujjat bo'lib, unda baholashda fan bo'yicha qamrab olingan bo'limlar, baholash formati, fan mazmuni tarkibi, baholanadigan kognitiv ko'nikmalar, o'lchanadigan o'quv natijalari, baholash mezonlari, test topshiriqlarining turlari kabi baholash tafsilotlari aks etadi.

Baholash spetsifikatsiyasi quyidagi qismlardan iborat bo'ladi:

I. Test topshiriqlarini ishlab chiqish uchun asos bo'luvchi me'yoriy hujjatlar

II. Fan bo'limlari

III. Test topshiriqlarining turlari

IV. Baholash formati

V. Fan mazmuni tarkibi

VI. Kognitiv ko'nikmalar

VII. Tekshiriladigan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar


VIII. Baholash mezonlari

Baholash spetsifikatsiyasi bilan tanishishingiz uchun ushbu QR kod berildi. Unda ona tili va



adabiyot fanidan Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan milliy test tizimi uchun e'lon qilingan baholash spetsifikatsiyasi berilgan.

Baholash spetsifikatsiyasini ishlab chiqish olti boshqich amalga oshadi. (2.2-rasm)



2.2-rasm. Baholash spetsifikatsiyasini ishlab chiqish

Bunda, avvalo, baholash maqsadi aniqlanadi. Summativ yoki formativ yoki diagnostik baholash o'tkazilishi belgilab olingach, baholash mazmuni belgilanadi.

Baholash mazmuni – sinovda o'quvchidan baholash uchun talab etilayotgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar majmuidir. Baholash mazmuni odatda davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlarida ta'lim oluvchilar uchun belgilangan o'quv natijalariga qarab belgilanadi. Shuningdek, baholash spetsifikatsiyasini tuzayotganda quyidagilarni ham hisobga olish kerak:

- o'quvchining psixofiziologik xususiyatlari;
- baholash qonuniyatlari va tamoyillari;
- fanning o'ziga xos xususiyatlari;

– baholash jarayonini tashkil etish uchun belgilangan vaqt me'yorlari;

– ta'lim natijalari mazmuni va qamrovi;

– ta'limdagi mavjud shart-sharoitlar.

Baholash mazmuni belgilangandan so'ng, baholash formati va strukturasi ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Baholash formati – baholanishi lozim bo'lgan kompetensiyalar, o'quv natijalari (domen, subdomen, konstrukt) va kognitiv ko'nikmalar, baholashda foydalaniladigan topshiriqlar soni, turi, qiyinlik darajasi, baholash mezonlari, imtihon uchun ajratilgan vaqt va imtihon bosqichlari kabilar aks etadigan baholash spetsifikatsiyasining bir qismi.

Quyida 10-sinf uchun ona tili fanidan choraklik nazorat uchun baholash formati namunasi berilgan.

2.3-jadval

BAHOLASH FORMATI

T/R	Kompetensiyalar	O'quv natijalari	Kognitiv jarayon	Topshiriq turlari	Baholash mezonlari	Ajratilgan vaqt	Nazorat qismi
1	O'QIB TUSHUNISH	O'1	T	YT-1	1 ball	20 daqiqa	I qism
2		O'2	T	YT-2	1 ball		
3		O'3	T	YT-1	1 ball		
4		O'4	Q	YT-1	1 ball		
5		O'5	A	YT-1	2 ball		
6		O'6	A	YT-3	2 ball		
7		O'7	A	YT-4	2 ball		
8		O'8	B	YT-4	3 ball		
9		O'9	B	YT-4	3 ball		
10		O'10	B	OT-1	4 ball		
11	YOZISH	Y.1 – Y.10	Y	OT-2	20 ball	25 daqiqa	II qism
12	TINGLAB TUSHUNISH VA SO'ZLASH	T.1 – T.10 S.1 – S.10	Y	AT-1	20 ball	1-2 daqiqa	

Bunda 1-ustunda testlar tartib raqami va miqdori, 2-ustunda o'quv faniga oid kompetensiyalar, 3-ustunda o'quv natijalari, 4-ustunda kognitiv jarayon, 5-ustunda testlar shakli, 6-ustunda baholash mezonlari, 7-ustunda imtihon uchun ajratilgan vaqt va 8-ustunda imtihon bosqichlari qayd etiladi. Fanlar bo'yicha baholash formati o'quv dasturi asosida har bir sinf uchun alohida ishlab chiqiladi.

Baholash formati elementlarini belgilanish tartibini izohlaymiz.

Baholash formatida kompetensiyalarni belgilash – o'quv dasturida fanga oid kompetensiyalar belgilangan, ushbu kompetensiyalar olinadi.

Baholash formatida o'quv natijalarini belgilash – o'quv dasturida fan bo'yicha o'quv natijalari kodlab berilgan. Bu qismda ushbu kodlar yoziladi. Sinflar bo'yicha egallanishi lozim bo'lgan o'quv natijalari tarkibidagi ulushiga proporsional tarzda olinadi. Masalan, tegishli sinfda fanni o'qitish orqali 20 ta o'quv natijasiga erishish nazarda tutilgan. Ushbu natijalar umumlashtirilib, baholash formatidagi savollar miqdoriga taqsimlanadi.

Baholash formatida kognitiv jarayonlarni belgilash – belgilangan o'quv natijalari Blum taksonomiyasining qaysi kognitiv darajalariga mosligi belgilab chiqiladi. Jumladan, *E* – *eslab qolish*; *T* – *tushunish*; *Q* – *qo'llash*; *A* – *analiz qilish*; *B* – *baho berish*; *Y* – *yaratish*.

Baholash formatida testlar miqdorini belgilash – nazorat uchun ajratilgan vaqt va baholanishi lozim bo'lgan bilim va ko'nikmalar qamrovidan kelib chiqib belgilanadi.

Baholash formatida testlar turini belgilash – baholanayotgan o'quv natijasiga mos bo'lgan test topshirig'i uslubi, shaklidan foydalaniladi. Jumladan,

- YT-1: to'rt va undan ortiq yopiq javoblardan iborat bo'lgan muqobil javobli test;
- YT-2: ikkita/uchta: ha/yo'q/berilmagan; to'g'ri/noto'g'ri/berilmagan javoblardan iborat bo'lgan binar test;
- YT-3: to'rt va undan ortiq yopiq javoblardan iborat bo'lgan moslashtirish testi;
- YT-4: to'rt va undan ortiq yopiq javoblardan iborat bo'lgan bir nechta to'g'ri javobli test;
- OT-1: qisqa javob (so'z yoki birikma)ni yozishni talab etadigan test;
- OT-2: kengaytirilgan javobni yozishni talab etadigan test, insho, yozma matn, esse;
- AT-1: ijro etish, chizib // yasab berish, og'zaki bayon qilish kabilarni talab etadigan test.

Baholash formatida baholash mezonini belgilash – topshiriqning qiyinligi, bajarish uchun sarf etiladigan vaqt va talab etilayotgan kognitiv darajaga ko'ra belgilanadi. Jumladan, eslab qolish ko'nikmasi quyi ko'nikma, shuning uchun juda past ball qo'yiladi. Yaratish yuqori kognitiv ko'nikma, bunda yuqori ball beriladi.

Baholash formatida imtihon uchun ajratilgan vaqtni belgilash – o'quv rejada nazorat uchun ajratilgan vaqtga asoslanadi. Bu odatda o'zgarmas bo'ladi. Har bir nazorat turi uchun kami-da 2 akademik soat belgilanadi.

Baholash formatida nazorat bosqichlarini belgilash – fan xususiyatidan kelib chiqib bir yoki bir necha bosqichdan iborat etib belgilanadi.

Xulosa qilib aytganda, baholash jarayonini loyihalashtirish baholashning ta'limga va jamiyatga kutilmagan ta'sirini kamaytiradi, ijobiy effektini oshiradi.



Mustahkamlash.

Quyidagi savollarga birma-bir og'zaki javob bering hamda keys topshiriqlarini guruhdoshlaringiz bilan muhokama qilib mavzuni mustahkamlang.



SAVOLLAR

1. Baholashni loyihalash tushunchasiga ta'rif bering.
2. Baholash bosqichlarini sanab bering.
3. Baholash bosqichlarini sanab bering.
4. Baholash spetsifikatsiyasi qanday hujjat?
5. Baholash formati deganda nimani tushundingiz?
6. O'quv natijalari deganda nimani tushundingiz?
7. Baholash formati qanday ishlab chiqiladi?
8. Baholash mazmuni qanday belgilanadi?
9. Kognitiv ko'nikmalarni sharhlang.
10. Testning qiyinlik darajasi haqida ma'lumot bering.



KEYS

Quyidagi ta'limiy vaziyatni o'qing va savolga munosabatingizni bildiring.

O'qituvchi matematika fanidan nazorat ishi o'tkazishi kerak edi. Fan maqsadiga mos tarzda taqvim-rejada keltirilgan 10 ta mavzu bo'yicha 100 ta test topshirig'i ishlab chiqdi va testlar ba'zasini tayyorladi. Shundan so'ng test bankidagi topshiriqlardan ixtiyoriy 25 tasi asosida 4 ta variant shakllantirdi. Ushbu variantlardan foydalangan

holda talablarga qat'iy amal qilib, shaffof tarzda nazorat ishini o'tkazdi. Imtihon jarayonida aniq bo'ldiki, qaysidir o'quvchilarga faqat 1-, 2-, 3-mavzulardan, qaysidirlariga esa faqat oxirgi 8-, 9-,10-mavzulardan savollar tushgan. Boshqa bir guruh o'quvchilarga esa hamma mavzulardan savollar tushgan. Natijada fanni o'rtacha o'zalshtiradigan o'quvchilar a'lo natija qayd etishgan. Ular "omadim keldi, o'qigan mavzuyimdan savollar tushdi", deb xursand bo'lishdi. Aksincha, a'lochi o'quvchilarning ko'pchiligi o'rtacha natija qayd etishgan. Bu a'lochi o'quvchilarning noroziligiga sabab bo'ldi.

Yuqoridagi vaziyatdan kelib chiqib, quyidagi savollarga javob toping.

1. A'lochi o'quvchilarning ko'pchiligi o'rtacha natija qayd etishiga nima sabab bo'ldi, deb o'ylaysiz?
2. O'qituvchi baholashni loyihalashtirish bilan bog'liq qanday xatolikka yo'l qo'ydi?
3. Ushbu vaziyatda baholash jarayonini tashkil etish bilan bog'liq qanday muammo namoyon bo'lmoqda va u o'quvchilarning natijalariga qanday ta'sir ko'rsatgan bo'lishi mumkin?

ADABIYOTLAR

1. Jalilov K. (2022) Baholash nazariyasi asoslari. Toshkent. Akademnashr.
2. Mirvaliyev Z.Z. (2018) Pedagogik o'lchovlarda test topshiriq turlari. Toshkent.
3. Standards for Educational and Psychological Testing. (2014) Published by the American Educational Research Association.

2.3. Ta'limda baholash mazmun sohalari

XX asrga kelib ta'lim jarayoni yangi bosqichga ko'tarildi. O'qitish va o'rgatish jarayonlari nazariy jihatdan tadqiq qilina boshlandi. Turli ta'lim nazariyalari paydo bo'la boshladi. Shular qatorida Benjamin Bloom boshchiligidagi bir qator olimlar tomonidan o'quvchilarning *bilish, his-tuyg'u va harakat ko'nikmalarini* rivojlantirish samarali modellini yaratish, ta'lim jarayonini samarali qilish maqsadida taksonomiya ishlab chiqiladi. Mazkur taksonomiya 1956-yilda nashr etilgan "*Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals*" nomli kitobda keng jamoatchilikka taqdim etiladi.

Mazkur kitobda Bloom taksonomiyasi uchta asosiy sohani o'z ichiga olishi qayd etilgan:


- *kognitiv ko'nikmalar (cognitive domain);*
- *affektiv ko'nikmalar (affective domain);*
- *psixomotor ko'nikmalar (psychomotor domain).*

Kognitiv ko'nikmalar. Ular o'qitish va o'rganish jarayonida o'quvchilarning bilish faoliyati bilan bog'liq bo'lgan ko'nikmalarini o'z ichiga oladi.

Bloom taksonomiyasiga ko'ra kognitiv ko'nikmalar *bilish, tushunish, qo'llash, tahlil, sintez, baholash* kabilardan iborat bo'lgan. 2001-yilda esa Lorrin Anderson va David Krathwohl tomonidan taksonomiya qayta ko'rib chiqilib, zamonaviy ta'lim va o'qitish talablariga mos ravishda unga o'zgartirishlar kiritiladi, takomillashtiriladi va yangilangan modeli taqdim etiladi (2.3-rasmga qarang.).

Ushbu modelga ko'ra kognitiv soha quyidagi 6 ta darajani o'z ichiga oladi:

1. *Eslab qolish* – o'quvchilar faktlarga asoslangan materiallarni, qoidalarni, ta'riflarni yoddan bilishi, eslab qolishi. *Masalan, ko'chim turlaridan metaforaning ta'rifini yoddan bilish.*



2.3-rasm: Kognitiv ko'nikmalar

2. *Tushunish* – o'quvchilar berilgan ma'lumotning ma'nosini tushunishi va o'z nutqida mazmunini saqlagan holda aytib bera olishi, sharhlashi. *Masalan, metaforani sharhlab bera olish.*

3. *Qo'llash* – o'quvchilar bilimlarini qo'llagan holda muam-molarni hal eta olishi va masalalarni yecha olishi, bilimlarini yangi vaziyatlarda qo'llay olishi. *Masalan, metafora usulida ko'chim yuz berishiga misol keltira olish.*


4. *Tahlil qilish* – o'quvchilarning muammoni tarkibiy qism-larga ajrata olishi, bo'lingan qismlarning xususiyatlarini aniqlab, ular orasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlay olishi. *Masalan, metaforaning boshqa ko'chim turlaridan farqini bilish, misollari-ni farqlay olish.*

5. *Baho berish* – o'quvchilarning axborot yoki faoliyatni ba-holashi, uning qiymatini aniqlay olishi va tanqidiy tahlil qila olishidir. *Masalan, metafora usulida ma'no ko'chishi yuz bergan*

misollarga baho bera olish, ijodkorning metaforadan foydalana olishiga baho bera olish.

6. *Yaratish* – o'quvchilar egallagan bilim va ko'nikmalaridan foydalangan holda yangi mahsulot yoki tushuncha yaratishi, ishlab chiqishi. *Masalan, betakror metaforalardan foydalanib she'riy yoki nasriy ijod namunalari yarata olish.*

O'quvchilarning bilim va ko'nikmalarining rivojlanganlik darajasini aniqlashda va qobiliyatlarini baholashda kognitiv ko'nikmalarga tayanish samarali. Ular asosida sinov savollari va testlarini tuzish maqsadga muvofiq hisoblanadi.



2.4-rasm: Affektiv ko'nikmalar

Affektiv ko'nikmalar. Bu ko'nikmalar – o'qitish va o'rganish jarayonida o'quvchilarning his-tuyg'ulari, munosabatlari, qiziqishlari, qadriyatlari va motivatsiyalari bilan bog'liq bo'lgan rivojlantiriladigan sohalarini, ko'nikmalarini nazarda

tutadi. Ta'limda o'quvchilarning nafaqat kognitiv ko'nikmalari, balki hissiy intellekti ham rivojlantiriladi (2.4-rasmga qarang.). Bu orqali o'quvchilarning bilim olishga, mehnat qilishga, shaxslararo muloqot qilish kabilarga nisbatan munosabatlari shakllantiriladi va rivojlantiriladi. Bu esa ularning hayotiy qadriyatlarini vujudga keltiradi va mustahkamlaydi.

Affektiv ko'nikmalarning rivojlantirilishida o'quvchilarda quyidagi ko'nikmalar shakllantiriladi va rivojlantiriladi:

1. *Qabul qilish.* Bu quyi affektiv ko'nikma bo'lib, unda o'quvchi atrofidagi axborot yoki hodisalarni his qiladi, unga diqqat va qiziqish bildirib, javob berishga tayyorlanadi. *Masalan, o'quvchi o'qituvchi dars o'tayotganda diqqatini jamlab, e'tiborini darsga qaratishi va eshitayotgan axborotini qiziqish bilan qabul qilishi.*

2. *Javob qaytarish.* Bunda o'quvchining berilgan savolga yoki muayyan hodisaga faol javob berishi, reaksiya qatarishi hisoblanadi. *Masalan, o'quvchi o'qituvchining bergan savoliga javob berishi.*


3. *Muhim deb hisoblash.* Bunda o'quvchi biror narsa va hodisani ahamiyatli deb biladi, voqeyilikni muhim va nomuhimga ajratadi, unda muayyan bir tamoyillarga, qadriyatlarga, tartiblarga amal qila boshlaydi. *Masalan, o'quvchi bilim olishni muhim deb bilishi, shunga astoyidil harakat qilishi.*

4. *Qaytadan tashkil etish.* Bunda o'quvchi turli qadriyatlarini birlashtirib, o'zining hayotiy tamoyillariga moslashtiradi va harakatlari o'rtasida muvozanatni saqlaydi. *Masalan, o'quvchi o'zining o'rganish uslubini, vaqtini va resurslarini tartibga solib, bilim olishni optimallashtirishi.*

5. *Qadriyatlarga ko'ra xarakterlash.* Bunda o'quvchining amal qilayotgan qadriyatlari va prinsiplari uning shaxsiyati, xarakterining ajralmas qismiga, hayot tarziga aylanadi. Natija-

da o'quvchining xarakteri va prinsiplari shakllanadi. Ya'ni o'zi uchun qilishi mumkin bo'lgan va qilmasligi kerak bo'lgan xatti-harakatlar ro'yxatini shakllantirib oladi. *Masalan, o'quvchi ta'lim olishni hayotiy prinsipi sifatida bilishi, shaxsiy va kasbiy prinsiplari muvozanatini saqlashi.*

Affektiv ko'nikmalarni rivojlantirish ta'lim jarayonida muhim rol o'ynaydi, chunki u o'quvchining o'qish, o'rgangan bilimlarni qabul qilish va ularni amalda qo'llash qobiliyatini hamda hissiy intellektini rivojlantiradi. Shuningdek, his-tuyg'ular va qadriyatlar insonning motivatsiyasini, o'z-o'ziga bo'lgan ishonchini va ijtimoiy munosabatlarini shakllantiradi. Bu ko'nikmalar nafaqat ta'lim sohasida, balki kundalik hayotda ham insonning muvaffaqiyatini ta'minlaydi.



2.5-rasm: Psixomotor ko'nikmalar

Psixomotor ko'nikmalar. Bular – shaxsning jismoniy harakatlarni samarali va aniq bajarish qobiliyatlarini anglatadi (2.5-rasmga qarang.). Bu ko'nikmalar kognitiv va motorik (harakat) qobiliyatlarning uyg'unlashuvi natijasida shakllanadi. Psixomotor ko'nikmalar har qanday harakatni amalga oshirishda, ayniqsa sport, san'at, qo'l mehnati va boshqa jismoniy faoliyatlarda muhim rol o'ynaydi. Bu ko'nikmalar takroriy mashg'ulot va tajribalar orqali rivojlanadi va avtomatlashadi.

Psixomotor ko'nikmalar bir necha turga bo'linadi, ularning har biri shaxsning jismoniy va aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi:

1. *Reflekslar* – nazorat qilinmaydigan avtomatik javob beriladigan harakatlaridir. Ular tug'ma bo'lib, asosan nevrologik mexanizmlar orqali boshqariladi. *Masalan, qo'lni issiqdan tortib olish.*

2. *Birlamchi harakatlar.* Bu harakatlar asosiy jismoniy faoliyatlarga asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu harakatlar oddiy va birlamchi bo'lib, murakkab harakatlarga zamin yaratadi. *Masalan, yurish, yugurish, sakrash.*

3. *His qilish qobiliyatlari.* Ushbu ko'nikmalar atrof-muhitdan keladigan axborotni sezgi organlari orqali qabul qiladi va unga mos harakatlarni amalga oshiradi. Ular harakatlarning fazoviy va vaqt jihatidan aniqligini ta'minlaydi. *Masalan, muvozanat saqlash, narsalarni ushlash.*

4. *Jismoniy qobiliyatlar.* Ushbu ko'nikmalar jismoniy jihatdan rivojlantirishga qaratilgan harakatlar hisoblanadi. *Masalan, fitnes mashg'ulotlari, suzish.*

5. *Maxsus harakatlar.* Bu ko'nikmalar murakkab va maxsus tayyorgarlikni talab qiladigan harakatlardir. Bunda harakatlar tizimli muvofiqlashtiriladi.

6. *So'zsiz muloqot.* Ushbu ko'nikmalar so'zsiz muloqotni ifodalaydi. Bu harakatlar orqali shaxs his-tuyg'ularini, fikrlarini va maqsadlarini ifodalaydi. *Masalan, raqs, mimika.*

Psixomotor ko'nikmalarni rivojlantirish jarayoni bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi. Ushbu bosqichlar Simpson (1972) va Harrow (1972) tomonidan tasniflangan:

a) *qabul qilish va tayyorlanish* – bu bosqichda shaxs sezgi organlari orqali axborotni qabul qiladi va harakatni amalga oshirishga tayyorlanadi. *Masalan, bilyard o'yinida to'pni urishdan oldin vaziyatni tahlil qilish.*

b) *javob berish* – bu bosqichda o'quvchi ustozining ko'rsatmasi yoki yo'riqnomasi asosida javob harakatini bajaraadi. Bunda o'rgangan harakatni takrorlash orqali o'zlashtiriladi. *Maslan, o'q otishda ko'rsatma asosida nishonga olish.*

c) *mexanizatsiyalash* – ushbu bosqichda harakatlar avtomatlashadi va kamroq e'tibor talab qiladi. Shaxs harakatni muntazam va aniq bajarishga o'rganadi. *Masalan, mashinani boshqarish.*

d) *murakkab javob* – bu bosqichda o'quvchi murakkab harakatlarni aniq va samarali bajarishga o'rgangan bo'ladi. Harakatlar yaxshi rivojlangan va aniqlik bilan amalga oshiriladi. *Masalan, raqsdagi murakkab harakatlarni bajarish.*

e) *moslashish* – bu bosqichda o'quvchi o'rgangan harakatlarni yangi vaziyatlarga moslaydi. Harakatlar moslashuvchan va yangi sharoitlarga oson integratsiyalashadi. *Masalan, futbol o'yinida to'pni boshqa o'yinchilarga uzatish.*

g) *ijodkorlik* – ushbu bosqichda o'quvchi yangi va ijodiy harakatlarni shakllantiradi. Bu harakatlar original va boshqa ko'nikmalardan farqli bo'lib, yangi vaziyatlarga moslashgan holda paydo bo'ladi. *Masalan, yangi raqs harakatini yaratish yoki sportda yangi texnika kiritish.*

Psixomotor ko'nikmalarni rivojlantirish ta'limda va kundalik hayotda muhim ahamiyatga ega. Ular nafaqat jismoniy qobiliyatlarni, balki shaxsning umumiy rivojlanishini ham ta'minlaydi. Psixomotor ko'nikmalar shaxsning sog'lom tur-

mush tarzini shakllantirishda, sport va san'atda muvaffaqiyat qozonishda, shuningdek, murakkab jismoniy vazifalarni samarali bajarishda katta ahamiyatga ega.



Mustahkamlash.

Quyidagi savollarga birma-bir og'zaki javob bering hamda keys topshiriqlarini guruhdoshlaringiz bilan muhokama qilib mavzuni mustahkamlang.



SAVOLLAR

1. Kognitiv ko'nikmalarga ta'rif bering.
2. Affektiv ko'nikmalarga ta'rif bering.
3. Psixomotor ko'nikmalarga ta'rif bering.
4. Kognitiv va psixomotor ko'nikmalarni farqini tushuntiring.
5. Kognitiv va affektiv ko'nikmalarni farqini tushuntiring.



KEYS

Quyidagi ta'limiy vaziyatni o'qing va savolga munosabatingizni bildiring.

Ixtisoslashgan-sport maktabida "A" o'qituvchi jismoniy tarbiya fanidan nazorat ishlarida o'quvchilarining asosan kognitiv ko'nikmalarini baholadi. "B" o'qituvchi o'quvchilarining psixomotor ko'nikmalarini baholadi. "C" o'qituvchi esa ham kognitiv, ham psixomotor, ham affektiv ko'nikmalarini baholadi. Respublika birinchiligida "C" o'qituvchining o'quvchilari yuqori natija qayd etdi.

Yuqoridagi vaziyatdan kelib chiqib, quyidagi savollarga javob toping.

1. "C" o'qituvchining muvaffaqiyati siri nimada edi?
2. "B" o'qituvchi o'quvchilarining asosan psixomotor ko'nikmalarini baholagan bo'lsa ham, nega yaxshi natija qayd etmadi?
3. "A" o'qituvchining baholash jarayonini tashkil etish bilan bog'liq xatosi nimada edi?


ADABIYOTLAR

1. Sh.Egamberdiyev v.b. (2024) 4K ko'nikmalarini baholash rubrikalari. Uslubiy qo'llanma. Toshkent. Bookmany print.
2. Bloom, B. S., Engelhart, M. D., Furst, E. J., Hill, W. H., & Krathwohl, D. R. (1956). Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. Handbook I: Cognitive Domain. New York: David McKay Company.
3. Krathwohl, D. R., Bloom, B. S., & Masia, B. B. (1964). Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. Handbook II: Affective Domain. New York: David McKay Company.
4. Anderson, L. W., & Krathwohl, D. R. (Eds.). (2001). A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom's Taxonomy of Educational Objectives. New York: Longman.
5. Simpson, E. J. (1972). The Classification of Educational Objectives in the Psychomotor Domain. Washington, DC: Gryphon House.
6. Harrow, A. J. (1972). A Taxonomy of the Psychomotor Domain: A Guide for Developing Behavioral Objectives. New York: David McKay Company.
7. Dave, R. H. (1970). Developing and Writing Behavioral Objectives. (R. J. Armstrong, Ed.). Educational Innovators Press.

2.4. O'quv natijalari, o'qitish va baholashning bog'liqligi

O'quv natijalari, o'qitish va baholash ta'lim jarayonining bir-biri bilan chambarchas bog'liq komponentlari hisoblanadi. Bu uch tushunchaning mazmuniy uyg'un bo'lishi ta'lim samaradorligini yuqori bo'lishiga xizmat qiladi. Bunda ular o'rtasidagi "konstruktiv moslashtirish"ni ta'minlash muhim hisoblanadi. Bu tushuncha pedagogikada o'quv natijalari, o'qitish usullari va baholash jarayonini maqsadli loyihalashni anglatadi. Ya'ni, konstruktiv moslashtirish ta'limda o'quv maqsadlarini aniq belgilash, ushbu maqsadlarni qo'llab-quvvatlaydigan o'quv strategiyalarini ishlab chiqish va belgilangan natijalarga erishganligini o'lchaydigan aniq baholash mezonlari, usullari va instrumentlarini ishlab chiqish orqali amalga oshirish mumkin. Bu 2.6-rasmda berilgan. Shuningdek, bunda har uchala komponentning izchilligi va mazmuniy tomonlarini yaxlit moslashtirish lozim bo'ladi. Natijada ta'lim tizimida o'quvchilarning bilim va ko'nikmalari har tomonlama rivojlantiriladi.

Maktab ta'limida bu o'qitish va o'rganishga faol hamda sezgir yondashuvni o'z ichiga oladi. Bu darsni moslashuvchan tarzda rejalashtirish, tabaqalashtirilgan, sinfdagi har bir o'quvchiga mos tarzda o'qitish, uzluksiz kasbiy rivojlanish va o'quvchilarning turli ehtiyojlarini inobatga olish uchun ta'lim texnologiyalari integratsiyasini o'z ichiga oladi. O'qituvchilar doimiy ravishda shakllantiruvchi baholashda qatnashadilar va o'zlarining o'qitish usullarini mos ravishda o'zgartiradilar, bu esa o'qituvchilar va o'quvchilarda o'sishni ta'minlaydi. Bundan tashqari, individual, moslashuvchan ta'lim uslublariga javob beradigan va doimiy takomillashtirishga intiladigan ta'lim muhitini yaratadi.



2.6-rasm. Ta'lim komponentlarining mazmuniy uyg'unligi

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bu uch komponent uyg'un bo'lishi kerak. O'quv natijalari ta'limni loyihalash, o'qituvchilarga samarali o'qitish strategiyalarini ishlab chiqish va baholash jarayonini rejalashtirish uchun asos bo'ladi. Baholash esa o'qitish jarayoni o'quv natijalariga qay darajada erishilganligini o'lchaydi. Ta'lim tizimini takomillashtirish uchun qimmatli fikr-mulohazalarni taqdim etib, uni yaxshilashga yordam beradi. Bir so'z bilan aytganda, ta'limda konstruktiv moslashtirish baholashning o'quv jarayoniga salbiy ta'sirini oldini oladi.



Mustahkamlash.

Quyidagi savollarga birma-bir og'zaki javob bering hamda keys topshiriqlarini guruhdoshlaringiz bilan muhokama qilib mavzuni mustahkamlang.



SAVOLLAR

1. Affektiv va psixomotor ko'nikmalarni farqini tushuntiring.
2. Qaysi fanlarda psixomotor ko'nikmalarni baholash ustuvorlik qiladi?
3. Qaysi fanlarda affektiv ko'nikmalarni baholash ustuvorlik qiladi?
4. Qaysi fanlarda kognitiv ko'nikmalarni baholash ustuvorlik berish maqsadga muvofiq?
5. Til va adabiyot fanlaridan Blum taksonomiyasiga ko'ra o'quvchilarning qaysi ko'nikmalarini baholanadi?



KEYS

Quyidagi ta'limiy vaziyatni o'qing va savollarga munosabatingizni bildiring.

“M” davlatida maktab ta'limida choraklik summativ baholash uchun baholash spetsifikatsiyasi ishlab chiqilib, o'quvchilarning nazariy bilimlari, jumladan, eslab qolish, tushunish va qo'llash ko'nikmalari baholanishi belgilandi. Shunga muvofiq test topshiriqlari ishlab chiqilib, summativ imtihon jarayonlari muntazam tashkil etib kelindi. Shuningdek, mazkur davlatda maktab ta'limidagi yakuniy

davlat attestatsiyasi sinovlari va oliy ta'limga kirish testlarida ham aynan shu ko'nikmalar baholanib kelindi. Bu esa o'quvchilarda aynan ushbu ko'nikmalarini rivojlantirishga ikki karra urg'u berilishiga olib keldi. Ushbu mamalakatning o'quvchilari xalqaro miqyosda tashkil etiladigan hayotiy vaziyatlarda bilimni qo'llash, baholash va kreativlik ko'nikmalarini baholaydigan baholash dasturlarida ishtirok etishdi. Xalqaro baholash tadqiqotida ular eng oxirgi o'rinlardan birini egallashdi. Shundan so'ng o'qituvchilari xalqaro baholash dasturi ta'lim maqsadiga muvofiq emasligini ta'kidlab e'tiroz bildirishdi.

Yuqoridagi vaziyatdan kelib chiqib, quyidagi savollarga javob toping.

1. "M" davlati o'quvchilari xalqaro baholash dasturlarida nima uchun yomon natija qayd etdi, sababini izohlang.
2. "M" davlatda o'quvchilarni bilim va ko'nikmalarini baholash bilan bog'liq qanday xatolik yuz berdi?
3. "M" davlati o'qituvchilarining xalqaro baholash dasturi borasidagi e'tirozi haqli bo'lishi mumkinmi, nima uchun?

ADABIYOTLAR

1. Каримов Р.Қ. (2006) Умумий ўрта таълим давлат таълим стандартлари мониторингини таъминлашнинг педагогик асослари: пед.фан.номз. ... дис. Тошкент.
2. Jalilov K. (2022). Baholash nazariyasi asoslari. Toshkent. Akademnashr.
3. Roziqov O.v.b. (2005) Ona tili didaktikasi. Toshkent. Yangi asr avlodi.
4. Pedagogika ensiklopediyasi. I-III jildlar. (2015). Toshkent. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti.

5. Tolipova J. (2017) Pedagogik kvalimetriya. O'quv qo'llanma. Toshkent. Toshkent davlat pedagogika universiteti.

2.5. Baholashda inklyuzivlik va gender masalasi

Inklyuziv baholash – har bir o'quvchining o'ziga xos ehtiyojlari, imkoniyatlari va turli darajadagi qobiliyatlarini hisobga olgan holda baholash jarayonlarini tashkil qilish hisoblanadi. Bu yondashuv baholashda barcha uchun tenglik va adolatni ta'minlash hamda bir xil imkoniyatlarni yaratish maqsadida amalga oshiriladi. Inklyuzivlikning bir qator turlari bor(2.7-rasmga qarang.)

Inklyuziv baholashda baholash metodlari va imtihon o'tkazish shart-sharoitlari test topshiruvchilarning individual ehtiyojlardan kelib chiqib belgilanadi. Jumladan, ko'rish qobiliyati past bo'lgan talabgorlar uchun imtihon materiallari Brayl alifbosida yoki audio shaklda beriladi; eshitish qobiliyati past bo'lgan o'quvchilar uchun imo-ishoralar tili yordamida yoki yozma shaklda taqdim etiladi.

Maktabda o'qitish va o'rganish hamda baholash jarayonida gender tengligini ta'minlash muhim hisoblanadi. Ayniqsa, baholash jarayonida mazmunni belgilash, jarayonni o'tkazish, natijalarni tekshirishda beixtiyor gender tengsizlik yoki yon bosish, muayyan jins vakillariga ustunlik berishga yo'l qo'ymaslik uchun quyidagilarga alohida e'tibor berish maqsadga muvofiq.



2.7-rasm. Inklyuzivlik turlari

1. Baholash mazmunida muayyan jins vakillariga ustunlik berishga yo'l qo'ymaslik kerak. Bunda baholash mazmunida yoki baholashda foydalaniladigan topshiriqlar mazmunida gender tengsizlikka yo'l qo'ymaslik, muayyan jins vakili odatda duch keladigan, u uchun tanish bo'lgan mavzuda sinov o'tkazmaslik kerak. Masalan, til ko'nikmalarini, jumladan o'qish savodxonligini tekshirishda *futbol haqidagi* matnlardan foydalanish tavsiya etilmaydi, chunki bu mavzu o'g'il bolalar uchun tanish va ularga ustunlik beradi. Shuningdek, qiz bolalar uchun tanish mavzuda foydalanib, ularga ustunlik berish ham mumkin emas.

2. Baholashda neytral tildan foydalanish kerak. Bunda baholash jarayonida foydalaniladigan topshiriqlar, yo'riqnomalar va ko'rsatmalarni tayyorlashda neytral tildan foydalanish, qaysidir jins vakili uchun tushunarli, boshqa jins vakili uchun tushunarsiz bo'lgan til birliklaridan foydalanmaslik, gender tengsizlikni yuzaga keltirishi mumkin bo'lgan lingvistik jihatlardan tiyilish, qochish kerak.

3. Baholash kontentida gender xilma-xillikni ta'minlash kerak. Bunda baholash jarayonida foydalaniladigan kontentda, ya'ni topshiriqlar, matnlar, rasmlar, hikoyalar, video yoki audio materiallarda ham o'g'il bola, ham qiz bola ismlaridan, qahramon va personajlardan foydalanish, gender bir yoqlamalikka, muayyan jins vakillarini ulug'lash, boshqalarini kamsitishga yo'l qo'ymaslik lozim.

4. Gender-inklyuziv baholash muhitini yaratish kerak. Bunda baholash jarayonida baholovchilar, imtihon natijalarini tekshiruvchilar kesimida ham gender tenglikni, inklyuzivlikni ta'minlash, gender simpatiya yoki antipatiyaning baholash natijalariga ta'sirini oldini olish choralari ko'rish kerak. Jumladan, baholash jarayonida ayol jinsiga oid baholovchilar qiz bolalarga yoki erkak jinsiga oid baholovchilar o'g'il bolalarga qattiqqo'llik bilan yondashishi mumkin. Shu kabi holatlarni oldini olish uchun gender-inklyuziv baholash muhitini yaratish lozim.

5. Adolatli baholash siyosatini ta'minlash kerak. Bunda baholash jarayonida qo'yilgan talablar va mezonlar – gender xilma-xillikdan qat'i nazar hamma uchun bir xil bo'lishini ta'minlash, baholash talablarini hamma teng bajarishiga erishish kerak. Umuman, muayyan jins vakiliga baholash talablarini bajarishda yengillik yoki qo'shimcha imtiyozlar berilishiga yo'l qo'ymaslik lozim.

Xulosa qilib aytganda, baholashda inklyuzivlik va gender masalasiga alohida e'tibor qaratish orqali tenglik va adolatli baholashga erishish, baholash talablarini bajarishda muayyan test topshiruvchilarga yengillik, qo'shimcha imtiyozlar berilishiga yo'l qo'ymaslik va shu bilan birga, boshqa bir talabgorlarga to'siq, mushkullik keltirmaslikka erishish mumkin.



Mustahkamlash.

Quyidagi savollarga birma-bir og'zaki javob bering hamda keys topshiriqlarini guruhdoshlaringiz bilan muhokama qilib mavzuni mustahkamlang.



SAVOLLAR

1. Inklyuziv baholash haqida ma'lumot bering.
2. Inklyuzivlikning qanday turlari mavjud?
3. Baholashda gender masalasi deganda nimani tushunasiz?
4. O'zbekiston ta'lim kontekstida inklyuziv baholash bilan bog'liq qanday muammolar mavjud?
5. O'zbekiston ta'lim kontekstida baholashda gender masalasi bilan bog'liq qanday muammolar mavjud?



KEYS

Quyidagi vaziyatni o'qing va savolga munosabati- ngizni bildiring.

Maktabda ingliz tili fanidan olimpiada sinovlari tashkil etildi. Test sinovlari qog'oz shaklda olindi. Olimpiadada ko'zi ojiz o'quvchi ham qatnashish istagini bildirdi. Sinov materiallari brayl alifbosida tayyorlanmagani uchun unga qatnashishga ruxsat berilmadi. Sinov jarayoni boshlandi. Birinchi kuni o'quvchilarning eshitish, o'qish va yozish ko'nikmalari, ikkinchi kun esa gapirish ko'nikmalari baholandi. Bunda olimpiadada qatnashayotgan yagona o'g'il bolaga nisbatan yuqori baho qo'yilgani ma'lum bo'ldi. Chunki baholovchilarning barchasi ayol o'qituvchilar edi. Ikkinchi kuni barcha natijalar birlashtirilib umumiy natija e'lon qilindi. Ma'lum bo'ldiki, yozma imtihonlarda eng yuqori natija qayd etgan Aliyeva Barno Sobir qizi birinchi o'rinni egalladi.

Yuqoridagi vaziyatdan kelib chiqib quyidagi savollarga javob toping.

1. Ushbu vaziyatda Aliyeva Barno Sobir qizi qaysi holatda birinchi o'rinni egallay olmagan bo'lar edi?
2. Ushbu vaziyatda inklyuziv baholash bilan bog'liq qanday xatolikka yo'l qo'yildi?
3. Ushbu vaziyatda gender bilan bog'liq qanday xatolikka yo'l qo'yildi?

ADABIYOTLAR

1. Overton, T., & Jordan, A. W. (2023). Inclusive Assessment: An Applied Approach. Pearson. One Lake Street, Upper Saddle River, New Jersey 07458.

2. Morris, C., Milton, E., & Goldstone, R. (2019). Case study: suggesting choice: inclusive assessment processes. *Higher Education Pedagogies*, 4(1), 435-447.
3. Jaap Scheerens. Cees Glas, Sally M.Thomas. Educational evaluation, assessment, and monitoring. A systemic approach. Lisse abingdon exton (pa) Tokyo.

2.6. Ta'limda imtihon jarayonini tashkil etish

Maktab ta'limida summativ baholashda ta'lim oluvchidan nima so'ralsa, undagi qanday ko'nikmalar baholansa, u o'shani o'rganishga, egallashga harakat qiladi. Shuning uchun ham, nazorat ishlarini o'tkazishni baholash qonuniyatlari talablariga mos tarzda tashkil etish shart.

Baholash jarayonlarini tashkil etish bilan bog'liq uchta muhim bosqich bor: *nazorat ishini o'tkazishga tayyorlanish, nazorat ishini o'tkazish hamda nazorat ishi natijalarini baholash va e'lon qilish*. Mazkur bosqichlar summativ sinovlarni tashkil etishda o'ziga xos talablarni belgilaydi va unga amal qilishni taqozo etadi.

Summativ sinovlarni tashkil etishda imtihonni o'tkazish jarayoni muhim bosqich hisoblanadi. Uning o'ziga xos talablari mavjud. Mazkur talablarni quyidagi uch guruhga ajratishimiz mumkin:

- *imtihon topshiruvchilarga qo'yilgan talablar*;
- *imtihon nazoratchilariga qo'yilgan talablar*;
- *imtihon o'tkaziladigan auditoriyaga qo'yilgan talablar*.

Ushbu talablar imtihon shakliga qarab farq qilishi mumkin.

Imtihon topshiruvchilarga qo'yilgan talabalar. Summativ sinovlar ta'lim oluvchilarni saralash, ularning BKMLari haqi-



da xulosa berish maqsadida o'tkazilayotgani bois ular amal qilishi lozim bo'lgan talablar ishlab chiqilgan. Jumladan, nazorat ishlarining o'tkazilish shakliga qarab ta'lim oluvchilar imtihonga kirishda o'zlari bilan sharikli ruchka yoki qalam; toza ichimlik suvi hamda turli jadvallar (formulalar jadvali, davriy jadval, fizik kattaliklar jadvali) olib kirishi mumkin. Biroq elektron qurilmalar (telefon, planshet, eshitish moslamalari, aqlli soatlar va shu kabilar); darslik va o'quv qo'llanmalar; shpargalkalar va boshqa taqiqlangan narsalarni olib kirishlari mumkin emas.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, test topshiruvchilar nazorat ishlarida quyidagi holatlarda imtihon talablarini buzgan hisoblanib, imtihondan chetlatiladi:

- man etilgan manbalardan foydalanganda;
- boshqa o'quvchilar bilan gaplashganda;
- boshqa o'quvchilardan yordam olganda yoki berganda;
- nazorat materiallarini boshqa o'quvchilarga berganda yoki almashtirganda.

Imtihon nazoratchilariga qo'yilgan talabalar. Summativ sinovlarni o'tkazishda imtihon nazoratchilari muhim vazifani bajarishadi. Maktabda nazoratchilar ro'yxatini shakllantirish va ularga vazifani taqsimlab berish maktab direktorining o'quv ishlari bo'yicha o'rinbosari tomonidan amalga oshiriladi. Talab bo'yicha ko'pi bilan har 15 nafar imtihon topshiruvchi uchun 1 nafar imtihon nazoratchisi birlashtirilishi kerak.

Imtihon nazoratchilarining vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- sinovlarni to'g'ri va adolatli o'tkazilishini ta'minlash;
- sinov materiallarini mas'uldan qabul qilib olish va imtihon tugagach topshirish;
- imtihon yo'riqnomasi bilan ta'lim oluvchilarni og'zaki ta'nishtirish;
- sinov materiallarini imtihon topshiruvchilarga tarqatish va yig'ib olish;
- sinov boshlanganini e'lon qilib, sinovning boshlangan va tugash vaqtini doskaga yozib qo'yish;
- sinov jarayoni talablarini buzgan ta'lim oluvchilarni imtihondan chetlatib dalolatnoma tuzish;
- sinov jarayonini belgilagan vaqtdan boshlab, belgilangan vaqtda tamomlash;
- sinov jarayonida ishtirok etmagan ta'lim oluvchilar ro'yxatini tuzish va bayonnomada aks ettirish;
- ta'lim oluvchilarni imtihon topshiruvchilar qayd varag'iga imzo qo'yishini ta'minlash;
- sinov jarayonida yuzaga keladigan nazarda tutilmagan muammoli vaziyatlarni barcha roziligi asosida ta'lim oluvchi foydasiga hal etish;
- sinov jarayonida ta'lim oluvchilar bilan axloq doiralarida muloqot qilish.

Shuningdek, imtihonda ta'lim oluvchilarga sinov materiallarini bajarishda yordam berish va imtihonga xalal berishi

mumkin bo'lgan xatti-harakatlarni amalga oshirish taqiqlanadi.

Nazorat sinovi o'tkaziladigan auditoriyaga qo'yilgan talablar. Summativ sinovlar o'tkaziladigan auditoriyalarga maxsus talablar belgilangan. Ular:

- auditoriya yetarli darajada yorug' bo'lishi;
- auditoriyada havo aylanishi;
- ta'lim oluvchiga quyosh nuri tik tushmasligi;
- ortiqcha shovqin bo'lmasligi;
- auditoriya kerakli jihozlar (parta, stul, soat, doska v.b.) bilan jihozlanganligi.

Summativ baholash jarayonida imtihon o'tkaziladigan auditoriyada har bir test topshiruvchi uchun kamida 2 m² dan joy bo'lishi lozim. Bu auditoriyalarga ta'lim oluvchilarni taqsimlashda inobatga olinishi kerak.

Imtihon natijalarini baholash va e'lon qilish. Saralash, xulosalash maqsadida o'tkazilayotgan sinov natijalarini baholash uchun imtihon komissiyasini tuzish lozim bo'ladi. Maktab ta'limida imtihon komissiyasi tarkibini maktab direktorining o'quv ishlari bo'yicha o'rinbosari va metodik birlashma raisi birgalikda shakllantiradi. Talab bo'yicha ayni guruhga dars o'tgan o'qituvchi imtihon komissiyasi tarkibida bo'lishi mumkin emas. Imtihon komissiyasi tomonidan baholash mezonini ekspertizadan o'tkaziladi. Nazorat ishini tekshirishda aniq baholash imkonini beradigan baholash mezonidan foydalanish maqsadga muvofiq.

Summativ sinov natijalarini tekshirish imtihon shakllariga bog'liq bo'ladi. Til va adabiyot ta'limida sinovlar ko'p komponentli bo'lganligi bois barcha talablarga amal qilish lozim.

Odatda, summativ sinov natijalari uch xil usulda tekshiriladi:
-avtomatik;

-qisman avtomatik/qisman inson tomonidan;

-inson tomonidan.

Avtomatik tekshiruv. Sinov yopiq turdagi testlar bilan olinganda, natijalari maxsus kompyuter qurilmalari yordamida tekshiriladi. Masalan, OTM qabul sinovlari.

Qisman avtomatik // qisman inson tomonidan tekshirish. Sinov ochiq va yopiq turdagi testlar bilan o'tkazilganda, natijalari maxsus kompyuter qurilmalari hamda malakali mutaxassislar yordamida tekshiriladi. Masalan, til ko'nikmalarini baholash sinovlari.

Inson tomonidan tekshirish. Bunda sinov yozma ish yoki og'zaki sinovlar yoki amaliy ishlar orqali o'tkazilganda natijalar faqat malakali mutaxassislar tomonidan tekshiriladi. Masalan, tillardan malaka sinovlari.

Agarda sinov yozma shaklda olingan bo'lsa, imtihon nazoratchilari tomonidan, avvalo, yozma ish natijalari shifrlanadi. So'ngra titul qismi olib qolinib, faqat yozma ish tekshiruvchilarga yetkaziladi. Tekshiruvchilar tomonidan yozma ish tekshirilib, taqrizlar yozib beriladi. Yozma ishlar kamida 2 nafar mutaxassis tomonidan tekshirish tavsiya etiladi. Agarda qo'yilgan ballar keskin (20%dan ko'p) farq qilsa, uchinchi bor yuqori malakali mutaxassis tomonidan tekshiriladi. Shundan so'ng shifrlangan yozma ishlarga ko'ra bajaruvchilar natijasi aniqlanib, baholar qayd varag'ida belgilab chiqiladi. Shundan so'ng natija e'lon qilinadi.

Agarda sinov og'zaki shaklda olinayotgan bo'lsa, kamida 2 nafar malakali mutaxassislar tomonidan real vaqt rejimida baholanadi va baholash qayd varag'ida natijalar belgilab boriladi. Sinov tugagach, natijalar e'lon qilinadi. Shuningdek, og'zaki javoblar elektron qurilmalarda yozib olinishi lozim. Agarda e'tirozli holatlar yuzaga kelganda qayta tekshirishda foydalaniladi.

Imtihon natijalari e'lon qilingach, natijalardan norozi bo'lgan o'quvchilarning e'tirozlarini ko'rib chiqish uchun apellyatsiyaga berish imkoniyati ham taqdim etiladi.



Mustahkamlash.

Quyidagi savollarga birma-bir og'zaki javob bering hamda keys topshiriqlarini guruhdoshlaringiz bilan muhokama qilib mavzuni mustahkamlang.



SAVOLLAR

1. Nazorat ishini o'tkazishga tayyorlanishda nimalarni hisobga olish lozim?
2. Nazorat ishini o'tkazish jarayoni haqida ma'lumot bering.
3. Nazorat ishi natijalarini tekshirish jarayoni haqida ma'lumot bering.
4. Nazorat sinovi o'tkaziladigan auditoriya qanday bo'lishi kerak?
5. Imtihon nazoratchisi kim va uning vazifalari nimalardan iborat?
6. Og'zaki va yozma ishlarni tekshirishdagi farqlarni tushuntiring.
7. Imtihon topshiruvchi summativ sinovda qanday talablarga amal qilishi lozim?
8. Nazorat ishini tashkil etishda direktor o'rinbosarining vazifalarini sanang.
9. Nazorat ishini tashkil etishda fan o'qituvchisining vazifalari haqida ma'lumot bering.
10. Nazorat ishini tashkil etish bilan bog'liq qanday qo'pol xatoliklarga duch kelgansiz, fikrlaringizni argumentlar bilan asoslang.



KEYS

Quyidagi ta'limiy vaziyatni o'qing va savolga munosabatingizni bildiring.

Imtihon sinovlari boshlandi. Sinov xonasiga birin-ketin o'quvchilar kirib kelmoqda. Hamma xonaga kirdi. Imtihon boshlandi. Savollar kitobi tarqatildi. Hamma test topshiriqlarini bajarishni boshladi. Shunda oxirgi qatorda o'tirgan o'quvchi yonidagi o'quvchidan topshiriqlarni bajarishga yordam so'radi. Tengdoshi unga yordam berdi. Buni ko'rgan birinchi qatordagi o'quvchi ham sherigidan yordam so'radi. Buni sezib qolgan nazoratchi o'quvchini xonadan chiqarib yubormoqchi ekanligini aytdi. Bundan norozi bo'lgan o'quvchi: men savolni javoblar varaqasiga qanday ko'chirilishini sherigimdan so'radim, dedi. Bu bahonang o'tmaydi dedi, o'qituvchi. Uni xonadan chiqarib yubormoqchi bo'ldi. Shunda o'quvchi nazoratchiga qarab, siz javoblar varaqasi qanday to'ldirish kerakligini tushuntirmadingiz va orqada bir-biridan ko'chirayotganlarga ham qaramayapsiz, – deb e'tiroz bildirdi. Xonada shovqin ko'tarildi. Oxiri nazoratchi qoida buzarni sinfxonada qoldirdi.

Yuqoridagi vaziyatdan kelib chiqib quyidagi savollarga javob toping.

1. Ushbu vaziyatda test nazoratchisi qanday xatoliklarga yo'l qo'ydi?
2. Ushbu vaziyatda o'quvchining e'tirozi o'rinli edimi, nima deb o'ylaysiz?
3. Ushbu vaziyatdagi kabi xatolikka yo'l qo'yish qanday oqibatlariga olib keladi?

ADABIYOTLAR

1. Abdukarim, M. Proposals for examination process organization. <https://pps.kaznu.kz/2/Main/File-Show2/85156/9/4/19/0/>
2. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 3-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarining bakalavriatiga o'qishga qabul qilish uchun kirish test sinovlarini o'tkazish tartibi to'g'risida"gi 261-son qarori. <https://lex.uz/docs/-3646570>
2. Матякубова З.Н. Ўқувчилар билимини баҳолашда кўп танлов жавобли тест тошириқларидан фойдаланиш методи(умумий биология мисолида): пед.фан.номз. ... дис. -Т.: 2000. – 132 б.

2.7. Baholashning ta'limga va jamiyatga ta'siri

Summativ baholash fanning yaxlit o'quv bo'limi mavzularini o'rganganidan so'ng yoki ta'lim bosqichlarini tamomlayotganda shakllanishi lozim bo'lgan bilim va ko'nikmalarning o'zlashtirish darajasini aniqlash, ularning saviyasi haqida xulosa berish uchun o'tkaziladi. U aniq mezon asosida testlar, amaliy ishlar, loyiha ishlari kabilar yordamida amalga oshiriladi. Bunda baholash mezonlari haqida o'quv jarayonining barcha ishtirokchilari: o'quvchilar, o'qituvchilar, ota-onalar oldindan xabardor bo'lishi lozim.

Summativ baholash natijalari ta'limga va jamiyatga bevosita yoki bilvosita ta'sir qiladi. Shunga ko'ra baholashning ta'siri ikki xil bo'ladi:

- baholashning "impact" effekti;
- baholashning "washback" effekti.

Baholashning “impact” effekti – baholashning ta'limga va jamiyatga ta'siri. Bu yuqori ta'sir kuchiga ega imtihonlarning ta'lim tizimiga va jamiyat hayotiga ta'siri orqali namoyon bo'ladi. Masalan, oliy ta'limga kirish sinovlarining jamiyatga ta'sirini ko'rib chiqamiz. Agarda oliy ta'limga kirish sinovlari mazmuni juda yuqori darajada, testlar juda qiyin bo'lsa, o'z-o'zidan barcha oliy ta'limga kirmoqchi bo'lganlar qo'shimcha o'quv kurslariga borishga harakat qiladi. Bu esa qo'shimcha mablag'ni talab etadi. Mablag' yetarli darajada bo'lmasa, o'quvchi tengqurlaridan orqada qolib ketaveradi. Natijada jamiyatda oila qurish yoshi ortishiga olib keladi. Jamiyat vakillari bo'lajak farzandlarini yaxshiroq o'qishi va yashashi uchun oila qurmasdan oldin kerakli sharoitlarni tayyorlashga, uy, mashina olishga va ortiqcha mablag' to'plashga harakat qiladi. Alaloqibat jamiyat taraqqiyotining turg'unlashuviga, aholi o'sishining sekinlashishiga olib keladi. Yoki boshqa bir misolni tahlil qilsak, davlat xizmatchilarini ishga qabul qilishida bosh indikator sifatida xorijiy tilni bilish qo'yilib, mutaxassislik bo'yicha layoqati inobatga olinmasa, chet tilini biladigan, ammo mutaxassisligining nozik jihatlarini bilmaydigan mutaxassislarning yalpi ko'payishiga olib keladi. Bu esa xorijiy tajribalarni mazmun-mohiyatini davlat tizimlarda anglamasdan joriy qilinishiga, samara bermasligiga, byudjet mablag'larining havoga sovrulishiga olib keladi. Natijada davlatning taraqqiyoti sekinlashadi, islohotlar betartib amalga oshiriladi. Keskin rivojlanish qayd etilmaydi.

Baholashning “washback” effekti – baholashning o'qitish va o'rganishga to'g'ridan to'g'ri ta'siri. “Washback” effekti – baholashning ta'lim ishtirokchilarining ta'lim jarayoniga bo'lgan munosabatiga, ta'lim muhitiga, ta'lim sifatiga ta'sir qilishi hisoblanadi. Bu yuqori ta'sir kuchiga ega imtihonlarda, xususan, oliy ta'limga kirish sinovlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Bunda

baholash oqibatlarining ijobiy yoki salbiy bo'lishi asosan baholash instrumenti orqali tekshirilayotgan domen (konstruktlar) – ta'limning maqsadlari bilan qay darajada uyg'un ekanligiga bog'liq. Agar test orqali tekshirilayotgan domen (konstruktlar) ta'limning maqsadlari bilan uyg'un bo'lsa, ta'lim oluvchilar testga tayyorlanish asnosida ta'limiy maqsadlarga erishadilar. Aks holda ta'lim oluvchilarning asosiy e'tibori testga qaratiladi. Natijada o'quvchi rasmiy ta'limdan ko'ra norasmiy ta'limga (o'quv kurslariga) asosiy e'tiborini qaratadi. Baholash mazmuni(domen) ta'lim oluvchilarning bosh maqsadiga aylanib qoladi. Natijada ta'lim komponentlari: o'quv dasturlari, o'qitish va baholash uzviyligi yo'qoladi, maktab ta'limida sifat tushib ketadi.

Davlat ta'lim tizimida yuqori ta'sir kuchiga ega summativ baholash jarayonlari o'quv dasturlari talablari va o'qitish mazmuni bilan bog'liq holda tashkil etilmasa, fanlar bo'yicha birlamchi talablari baholanmay, amaliy ahamiyatsiz, ikkilamchi ko'nikmalarni tekshirilishiga, o'qitish va baholash o'rtasida katta jarlik paydo bo'lishiga olib keladi.

Umumiy o'rta ta'limda bitiruvchi sinf o'quvchilarining fanlar bo'yicha o'zlashtirish darajasini o'lchash va baho berishga xizmat qiluvchi yuqori ta'sir kuchiga ega summativ sinovlar quyidagilar:

1. *Yakuniy davlat attestatsiyasi imtihonlari.*
2. *Oliy ta'lim muassasalariga qabul imtihonlari.*

Yakuniy davlat attestatsiyasi – umumiy o'rta ta'lim bitiruvchilarini tegishli fanlar bo'yicha davlat ta'lim standartlarida belgilangan minimal talablarni bajarganligi yozma ish, suhbat yoki test yordamida tekshiriladi va qoniqarli natija qayd etganlarga o'rta ta'limni tamomlaganligi to'g'risidagi shahodatnoma beriladi. Bu imtihon o'quvchilarning hayotida bilvosita ta'sir qiladi, chunki bunda yumshoq va minimum talablar belgilan-

gan hamda chegaralangan kvotalar mavjud emas. Imtihon talabini deyarli barcha o'quvchilar bajara oladi hamda sinovdan o'ta olmaslik o'quvchi uchun jiddiy xavf tug'dirmaydi, jamiyatdagi statusiga yuqori darajada ta'sir qilmaydi.

Oliy ta'lim muassasalariga qabul imtihonlari – bu imtihon tizimida oliy ta'limga kirish uchun talabgorlarning tegishli fanlar bo'yicha bilim va ko'nikmalari yopiq turdagi test topshiriqlari yordamida baholanadi. Bunda talabgorlardan kvota bo'yicha eng yuqori natija qayd etganlari oliy ta'lim muassasasi talabasi bo'ladi. Mazkur imtihon o'quvchining hayotiga bevosita ta'sir qilgani uchun unda foydalaniladigan topshiriqlar mazmuni o'quvchining o'qish va o'rganishdagi bosh maqsadiga aylanib qoladi. Shuning uchun oliy ta'limga kirish sinovlarining fanlar bo'yicha mazmunini belgilash alohida diqqat bilan, ehtiyotkorlik bilan yondashishni talab etadi. Agarda davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari mazmuni hamda oliy ta'limga kirish sinovlari mazmuni bir-biridan farq qilsa, talabgorlarning aksariyati alohida o'quv kurslarga borib ta'lim oladi. Bu xalq vakillarining maktab ta'limiga bo'lgan ishonchining pasayishiga, yoppasiga davlat ta'limiga alternativ pullik ta'limni paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin. Bu esa ta'limda tabaqalashuv muhitini paydo bo'lishiga, imkoniyati yetmaganlarning sifatli ta'limdan, shu bilan birga, istiqbolli kelajakdan mahrum bo'lishiga olib keladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, summativ baholashning ta'limga, o'quvchilarga va jamiyatga salbiy ta'sirini kamaytirish choralarini ko'rish kerak. Bunda o'quv dasturlari, o'qitish va baholashning mazmuniy bir xilligiga erishish lozim. Buning uchun ta'lim siyosatini belgilaydigan, o'qitish jarayonini tashkil etadigan va baholashni o'tkazadigan tashkilotlarni markazlashgan holda harakatlanishini ta'minlash kerak.



Mustahkamlash.

Quyidagi savollarga birma-bir og'zaki javob bering hamda keys topshiriqlarini guruhdoshlaringiz bilan muhokama qilib mavzuni mustahkamlang.



SAVOLLAR

1. "Washback" effekti haqida ma'lumot bering.
2. "Impact" effekti haqida ma'lumot bering.
3. Nega oliy ta'limga kirish sinovlarining jamiyatga ta'siri bu qadar yuqori bo'ladi?
4. Baholashning ta'sirini kamaytirish uchun nimalar qilish kerak?
5. O'zbekiston ta'lim kontekstida baholashning qaysi ta'siri yaqqol namoyon bo'ladi?



KEYS

Quyidagi vaziyatni o'qing va savolga munosabatini bildiring.

Bir davlatda magistratura bosqichiga qabulda chet tilidan B2 darajada sertifikatga ega talabgorlarga chet tili imtihonidan maksimal ball berilish tartibi belgilandi. Natijada talabalar o'z mutaxassisligi qolib, chet tilini o'rganishga asosiy e'tiborni qaratdi. Magistraturaga qabul qilinganlarning aksariyatida mutaxassislik ko'nikmalari yetishmasligi kuzatildi. So'ngra chet tilini B2 darajada bilish majburiy talab sifatida belgilanib, unga qo'shimcha tarzda 4 yil davomida fanlarni o'zlashtirish darajasiga qarab magistraturaga qabul qilish tartibi belgilandi.

Ustuvorlik 4 yillik o'zlashtirishga qaratildi. Endi talabalar 4 yil davomida fanlarni puxta egallashi va chet tilidan ham kamida B2 sertifikatga ega bo'lishi lozim bo'ldi. Buning natijasida kelajakda o'qishini magistraturada davom ettirishni xohlagan talabalar ham barcha fanlarni yaxshi o'zlashtirishga va xorijiy tillardan birini yaxshi darajada egallashga harakat qila boshlashdi.

Yuqoridagi vaziyatdan kelib quyidagi savollarga javob toping.

1. Ushbu vaziyatda baholashning qaysi ta'siri namoyon bo'lmoqda?
2. Ushbu vaziyatda baholashning qanday salbiy ta'siri namoyon bo'ldi?
3. Ushbu vaziyatda baholashning qanday ijobiy ta'siri namoyon bo'ldi?

ADABIYOTLAR


1. Jalilov K. (2022). Baholash nazariyasi asoslari. Toshkent. Akademnashr.
2. Alderson, J. C., & Wall, D. (1993). Does washback exist?. *Applied linguistics*, 14(2), 115-129.
3. Cheng, L. (2004). Washback in language testing: Research contexts and methods. Mahwah, New Jersey: Lawrence Erlbaum Associates.
4. Cheng, L. (2005). Changing language teaching through language testing: A Washback study. *Studies in Language Testing*, 21.
5. Standards for Educational and Psychological Testing. (2014) Published by the American Educational Research Association.

III. TA'LIMDA BAHOLASH TURLARI VA YONDASHUVLAR

3.1. Ta'limda baholash turlari

Baholash jarayoni – bu o'quvchilarning bilimini aniqlash, ta'limni tushunish va yaxshilash uchun xizmat qiladigan tizimli jarayon. Baho – ta'lim oluvchilar biz o'rganishni istagan narsalarni qanchalik yaxshi o'rganganligini, o'zlashtirganligini ko'rsatadigan natija. Shuning uchun baholash jarayonini tashkil etishda baholash turlarini farqlash muhim hisoblanadi.

Umumiy o'rta ta'lim tizimida baholash *nima maqsadda amalga oshirilishiga qarab* uch turi farqlanadi: formativ (shakllanuvchi), diagnostik (tashxislovchi) va summativ (jamlanuvchi) baholash. (3.1-rasmga qarang.)



3.1-rasm. Baholash turlari

I. DIAGNOSTIK BAHOLASH – o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning joriy o'zlashtirish jarayonini tashxislash jarayonidir. U vazifaviy jihatdan formativ baholash singari o'quvchining bilimini yaxshilashga, rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi. Mazmuniy tomondan esa summativ baholashga yaqin turadi. Bu nazorat turi o'quv jarayoni davomida amalga oshiriladi, uning natijalari o'quvchining mavjud darajasi haqida ma'lumot berib, o'quv jarayonidagi keyingi harakatini belgilash uchun xizmat qiladi. Umumiy o'rta ta'limda quyidagi diagnostik baholash qo'llanadi:

Bunda o'quv yili boshida o'quvchilarning umumiy bilim darajasini aniqlash uchun yoki o'quv yili davomida bob yoki bo'lim tugaganda o'quvchining egallagan bilim va ko'nikmalarini tashxislash uchun o'tkaziladi.

II. FORMATIV BAHOLASH – o'qituvchi tomonidan o'quvchilar va ta'lim jarayonini uzluksiz kuzatish jarayonidir. Bunda izohlar, to'g'rilashlar orqali o'quv maqsadiga erishish uchun o'quvchilarning keyingi harakatlarini yo'naltirish jarayonidir. U o'qitish va o'rgatish jarayonining bir qismidir. U *joriy nazorat* ham deb ataladi.

Bunda kunlik dars davomida kuzatish va baholash, o'lchash orqali o'quvchining egallagan bilim va ko'nikmalari haqida ma'lumot to'plash va natijalarni yaxshilash uchun izohlar berish jarayoni. Bu nazorat turi orqali o'quvchilarning muntazam dars jarayonida faol qatnashishi, berilgan vazifalarni bajarib borishi ta'minlanadi.

III. SUMMATIV BAHOLASH – o'qishning ma'lum bir davrida (chorak, o'quv yili, talim bosqichi yoki ta'lim tizimi yakunida) o'quvchining davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlarida belgilangan o'quv natijalarini egallaganlik darajasini rasmiy baholash jarayoni. U boshqarish va nazorat qilish jarayonidir.

Umumiy o'rta ta'limda summativ baholash davriyligi va qamroviga ko'ra quyidagi turlari farqlanadi:

1. Choraklik summativ baholash (CHSB) – chorak oxirida o'quvchining egallagan bilim va ko'nikmalarini baholash.

2. Yillik summativ baholash (YSB) – o'quv yili oxirida o'quvchining yil davomida egallagan ko'nikma va malakalarini baholash.

3. Bosqichli davlat imtihoni (BDI) – umumiy o'rta ta'lim bosqichlaridan boshlang'ich ta'lim (I — IV sinflar) yoki tayanch o'rta ta'lim (V — IX sinflar) bosqichini tamomlayotganda

o'quvchining muayyan fundamental fanlardan egallagan ko'nikma va kompetensiyalarini baholash jarayoni. Uning natijasi ta'limni keyingi bosqichiga o'tish yoki o'tmasligi haqida xulosa berish uchun foydalaniladi.

4. Yakuniy davlat imtihoni (YDI) – umumiy o'rta ta'limni tamomlayotganda, yakuniy davlat attestatsiyasida o'quvchining muayyan fundamental fanlardan egallagan ko'nikma va kompetensiyalarini baholash jarayoni. Uning natijalari umumiy o'rta ta'lim talabini bajargan yoki bajarmaganligi haqida xulosa berish uchun foydalaniladi.


Umumta'limda summativ baholash kim tomonidan o'tkazilishiga ko'ra esa quyidagi turlarga ajratiladi:

1. Ichki baholash – ta'lim muassasasida o'qitish sifatini tekshirish uchun ta'lim maqsadlariga mos tarzda ichki tartibda o'tkaziladigan baholash va monitoringlar.

2. Tashqi baholash – ta'lim muassasasining ta'lim sifatini tekshirish uchun tashqi baholash va monitoringlar. Ushbu baholash jarayoni vakolatli tashkilotlar va ular bilan kelishilgan holda jamoat tashkilotlari hamda talabgorlar tomonidan me'yoriy hujjatlarda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

3. Xalqaro baholash – respublika bo'yicha ta'lim muassasalaridagi ta'lim sifatini tekshirish va xalqaro bechmarkingni amalga oshirish uchun o'tkaziladigan tashqi baholash va monitoringlar. Mazkur baholashlar xalqaro shartnomalar va hukumatning tegishli qarori asosida xalqaro tashkilotlar hamkorligida amalga oshiriladi.

Bir so'z bilan aytganda, umumiy o'rta ta'lim tizimida quyidagi baholash tizimidan foydalaniladi (3.2-rasmga qarang.)



3.2-rasm. Baholash tizimi



Mustahkamlash.

Quyidagi savollarga birma-bir og'zaki javob bering hamda keys topshiriqlarini guruhdoshlaringiz bilan muhokama qilib mavzuni mustahkamlang.



SAVOLLAR

1. Baholash turlari haqida ma'lumot bering.
2. Formativ baholash haqida ma'lumot bering.
3. Diagnostik baholash haqida ma'lumot bering.
4. Summativ baholash haqida ma'lumot bering.
5. Ichki baholash haqida ma'lumot bering.
6. Tashqi baholash haqida ma'lumot bering.
7. Xalqaro baholash haqida ma'lumot bering.



KEYS

Quyidagi ta'limiy vaziyatni o'qing va savollarga munosabatingizni bildiring.

“M” davlatida maktab ta'limida choraklik summativ baholash uchun baholash spetsifikatsiyasi ishlab chiqilib, o'quvchilarning nazariy bilimlari, jumladan, eslab qolish, tushunish va qo'llash ko'nikmalari baholanishi belgilandi. Shunga muvofiq test topshiriqlari ishlab chiqilib, summativ imtihon jarayonlari muntazam tashkil etib kelinmoqa. Shuningdek, mazkur davlatda maktab ta'limidagi yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari va oliy ta'limga kirish testlarida ham aynan shu ko'nikmalar baholanib kelindi. Bu esa o'quvchilarda aynan ushbu ko'nikmalarini rivojlantirishga ikki karra urg'u berishiga olib keldi. Ushbu mamlatning o'quvchilari xalqaro miqyosda tashkil etiladigan hayotiy vaziyatlarda bilimni qo'llash, baholash va kreativlik ko'nikmalarini baholaydigan baholash dasturlarida ishtirok etishdi. Xalqaro baholash tadqiqotida ular eng oxirgi o'rinlardan birini egallashdi. Shundan so'ng o'qituvchilari xalqaro baholash dasturi ta'lim maqsadiga muvofiq emasligini ta'kidlab e'tiroz bildirishdi.

Yuqoridagi vaziyatdan kelib chiqib, quyidagi savollarga javob toping.

1. “M” davlati o'quvchilari xalqaro baholash dasturlarida nima uchun yomon natija qayd etdi, sababini izohlang.
2. “M” davlatida o'quvchilarni bilim va ko'nikmalarini baholash bilan bog'liq qanday xatolik yuz berdi?
3. “M” davlati o'qituvchilarining xalqaro baholash dastur borasidagi e'tirozi haqli bo'lishi mumkinmi, nima uchun?

ADABIYOTLAR

1. Black, P. J. (1993). Formative and summative assessment by teachers.
2. Jalilov K. (2022) Baholash nazariyasi asoslari. – Toshkent. Akademnashr.
3. X. Ibragimov, Sh. Abdullayeva. (2008) Pedagogika nazariyasi. – Toshkent. Fan va texnologiya.
4. Natalie Regier. (2012) 60 Formative Assessment Strategies. Regier Educational Resources. All Rights Reserved.

3.2. Formativ baholash va uning metodlari

Bu o'qitish jarayonining muhim qismi bo'lib, u dars mashg'uloti davomida o'quvchilarning o'qishini, o'zlashtirishini aniqlash, xatoliklarini ko'rsatish, izohlash uchun amalga oshiriladigan baholash jarayonidir. Bunda o'quvchilarning o'zlashtirishidagi bo'shliqlar aniqlanib, shu kamchiliklar to'ldirib boriladi, u odatda rivojlantirish vazifasini bajaradi hamda norasmiy maqomda bo'ladi. Shuningdek, bu baholash turi o'quvchilarning bilimlari real vaqt rejimida qanday o'sib borayotgani va o'zgarayotganligini kuzatishga imkon beradi.

Formativ baholashda quyidagi baholash metodlaridan foydalanish mumkin:

- *viktorinalar;*
- *didaktik o'yinlar;*
- *kichik loyihalar;*
- *og'zaki taqdimotlar;*
- *guruhlarda ishlash;*
- *guruh faoliyatini kuzatish.*

Bunday baholashda foydalaniladigan topshiriqlar metodikasiga alohida e'tibor beriladi, o'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan topshiriqlardan foydalaniladi. Shuning uchun ham, formativ baholash natijalari o'quvchilarning ham, o'qituvchining ham keyingi amalga oshiradigan rejalarini belgilashda muhim hisoblanadi.

Formativ – rivojlantiruvchi baholash – bu o'quvchilarning o'rganishi haqida ma'lumot to'plash maqsadida baholash texnologiyalaridan foydalanadigan norasmiy jarayon. O'qituvchilar bu jarayonda o'quvchilar/talabalar nimani tushunishlarini va o'quv maqsadlarini o'zlashtirishi uchun nimalarni o'rganishlari kerakligini aniqlaydilar. Rivojlantiruvchi baholash ta'lim oluvchilarning o'rganish darajasini aniqlash, ma'lumotlar to'plash uchun muntazam o'tkaziladi. O'rganish natijalari asosida ta'lim oluvchilarning yutuqlari e'tirof etiladi va yaxshilanadigan sohalari qayd etilib, ularni yaxshilash uchun fikr-mulohazalar taqdim etiladi. Ya'ni o'qituvchi o'quvchining dars davomida ishtirokini kuzatib, uyga vazifa va topshiriqlarni bajarishini tekshirib, dars oxirida unga muvaffaqiyatlarini aytgan holatda xatolarni ko'rsatib beradi va kamchiliklarini to'g'rilash bo'yicha ko'rsatmalar beradi. Bunda, eng muhimi, ko'rsatmalar hisoblanadi. O'quvchi ko'rsatmalarga amal qilgan holatdan darsdan darsga yutuqlari ko'payib, darsga bo'lgan qiziqishi ortib boraveradi. Bunda o'quvchining ota-onasi ham yordam berishi lozim. Fan o'qituvchisi o'zlashtirishi yaxshi bo'lmagan o'quvchilarning ota-onalari bilan doimiy hamkorlikni to'g'ri yo'lga qo'yish kerak bo'ladi.

Formativ-rivojlantiruvchi baholash o'qitish va o'rgatish jarayonining bir qismi hisoblanadi va o'quvchilarda o'z-o'zini baholash va tengqurlarini baholash ko'nikmalari ham shakllantiriladi.

Formativ (rivojlantiruvchi) baholashda jarayon qay darajada to'g'ri yo'lga qo'yilsa, o'quvchining xulosalovchi baholashda natijalari shunchalik yuqori chiqadi. Rivojlantiruvchi baholashda jarayonni to'g'ri yo'lga qo'yish – foydalaniladigan baholash texnologiyalariga bog'liq. Dars jarayonida o'tilayotgan mavzu va sinfxonadagi o'quvchilar soni, bilim darajasini hisobga olib rivojlantiruvchi baholash texnologiyalaridan foydalanish lozim. Odatda, aksariyat rivojlantiruvchi baholash texnologiyalaridan foydalanish tez va oson bo'lib, o'qitish jarayoniga bema'lol mos keladi. Quyida eng samarali baholash texnologiyalari haqida to'xtalamiz.

1. *Nazorat varaqasi (check list)*. Nazorat varaqasi – o'quvchilar ta'lim olish jarayonida o'zlashtirishi kerak bo'lgan bilim va ko'nikmalari ro'yxati aks etgan va u asosida o'quvchi muvaffaqiyati tekshiriladigan varaqa. Ushbu baholash texnologiyasi o'quv jarayoni davomida biror mavzu yoki bob tugaganda o'tkaziladi. Mavzu yoki bob bo'yicha o'quvchilar o'zlashtirishi kerak bo'lgan o'quv natijalari ro'yxati shakllantirib, u asosida topshiriqlar tuzib chiqiladi. Shundan so'ng ular asosida nazorat varaqasi ishlab chiqiladi. Bunda jadvaldan foydalanilib, o'quvchilarning ismlarini chap tomondagi birinchi ustunga yoziladi, yuqori birinchi qatorga esa bilim va ko'nikmalar ketma-ket yoziladi. O'quvchilar berilgan topshiriqlarni bajarishiga qarab, ustunlar belgilab chiqiladi.

Ona tili fanidan “Ma'nodosh so'zlar va ularning qo'llanishi”

MAVZUSI BO'YICHA NAZORAT VARAQASI

O'quv natijalari O'quvchilar F.I.Sh.	Sinonim- lar qoidasini biladi.	Sinonim turlarini farqlay oladi.	Leksik sinonimga misollar keltira oladi.	Nutqiy leksik sinonim- larga misollar keltira oladi.	Nutqda leksik sinonimlar bilan bog'liq xatolarni topib, to'g'rilay oladi.	Yozma matnda sinonim- lardan to'g'ri foydalanadi.
A o'quvchi						
B o'quvchi						
D o'quvchi						
v.b. o'quvchi						

Natijalar tahlil etilib, har bir o'quvchiga zaruriy fikr-mulohazalar hamda natijalarni yaxshilash bo'yicha ko'rsatmalar beriladi.

2. *Baholash rubrikalari.* Baholash rubrikalari – o'quvchilarning ta'lim olish jarayonidagi muvaffaqiyatini baholashda ishlatilishi mumkin bo'lgan darajali mezonlar yig'indisi. Ushbu baholash texnologiyasidan o'quv mashg'uloti davomida kichik guruhlarda ishlash yoki individual topshiriqlarni bajarishda foydalaniladi. U orqali belgilangan topshiriqni qay darajada bajarilishiga qarab baho qo'yiladi. Quyida ona tili ta'limida o'quvchilarning so'zlash ko'nikmasini formativ baholashda foydalaniladigan baholash rubrikasi berilgan:

Ona tili ta'limida o'quvchilarning so'zlash ko'nikmasini

3.2-jadval

BAHOLASH RUBRIKASI

Indikatorlar	Darajalar va deskriptorlar		
	Yuqori	O'rta	Quyi
Og'zaki nutqning tugalligi	og'zaki nutqda savol, topshiriq to'g'ri tushunilib, mazmunan va hajman batafsil yoritib berilganda	og'zaki nutqda savol, topshiriq to'g'ri tushunilib, mazmunan va hajman o'rta darajada yoritib berilganda	og'zaki nutqda savol, topshiriq yetarlicha to'g'ri tushunilmay, qisman yoritib berganda
Og'zaki nutqning asosiligi	fikrni og'zaki bayonida mavzu va nutqiy vaziyatga mos faktlar, dalillar va hayotiy misollardan 3 va undan ortiq o'rinda foydalanganda	fikrni og'zaki bayonida mavzu va nutqiy vaziyatga mos faktlar, dalillar va hayotiy misollardan 1-2 o'rinda foydalanganda	fikrni og'zaki bayonida mavzu va nutqiy vaziyatga mos faktlar, dalillar va hayotiy misollardan umuman foydalanmaganda
Og'zaki nutqning jo'yaliligi va to'g'riligi	fikrni og'zaki bayonida til birliklaridan nutq vaziyati va uslubi talabiga ko'ra o'rinli va to'g'ri foydalanib, orfoepik me'yorlarga to'liq amal qilinganda	fikrni og'zaki bayonida 1-2 o'rinda uslubi va orfoepik me'yorlarga talabi buzilishi kuzatilganda	fikrni og'zaki bayonida 3 va undan ortiq o'rinda uslubi va orfoepik me'yorlarga talabi buzilishi kuzatilganda
Og'zaki nutqning mantiqiyiligi va izchilligi	fikrni og'zaki bayonida izchillikka(<i>kirish, asosiy qism va xulosadan iborat bo'lishiga</i>) va mantiqiylikka to'liq amal qilinganda	fikrni og'zaki bayonida xulosa mavjud bo'lmaganda va 1-2 o'rinda mantiqiy buzilish kuzatilganda	fikrni og'zaki bayoni faqat kirish yoki asosiy qismdan iborat bo'lganda va 3 va undan o'rinda mantiqiy buzilish kuzatilganda

Og'zaki nutqning ifodaliligi va ta'sirchanligi	fikrni og'zaki bayonida verbal va noverbal vositalarning ifoda imkoniyatlaridan unumli foydalanilganda	fikrni og'zaki bayonida verbal va noverbal vo- sitalarning ifoda imkoniyatlaridan 1-2 o'rinda foyda- lanilganda	fikrni og'zaki bayonida verbal va noverbal vositalarning ifoda imkoniyatlaridan umuman foydalanilmaganda
---	--	---	--

3. *Uy ishini tahlil qilish.* Bunda o'quvchilarga o'tilgan mavzu bo'yicha belgilangan o'quv natijalarini tekshirishga xizmat qiladigan topshiriqlar yordamida uyga vazifa beriladi. Uyga vazifalari tekshirilib, o'quvchilarning kuchli va zaif tomonlari aniqlanadi, istiqboldagi darslar rejalari ko'rib chiqilib, natijalar asosida individual ko'rsatmalar beriladi.

4. *Kuzatish.* Bunda o'quvchining dars jarayonidagi faoliyati, yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklari kuzatiladi. Natijalar maxsus vositalarga: maxsus kartalarga yoki yopishqoq qog'oz (stiker)larga qayd etib boriladi va natijani yaxshilash bo'yicha ko'rsatmalar ham yoziladi. Dars oxirida o'quvchilarga taqdim etiladi. Bunda ota-onalar bilan hamkorlik ham muhim.

5. *"Kompyuter so'rovnomalari" usuli.* Ushbu baholash texnologiyasi o'quv jarayoni davomida biror mavzu yoki bob tugaganda o'tkaziladi. Mavzu yoki bob bo'yicha o'quvchilar o'zlashtirishi tekshiriladi. Belgilangan o'quv natijalarini tekshira oladigan qisqa javobli (to'g'ri/noto'g'ri, ko'p tanlovli yoki javobi bir so'zdan iborat) topshiriqlar tuzib, google.doc kabi tizimlardan foydalanib test-so'rov o'tkaziladi va natijalar tahlil etiladi. O'quvchiga zaruriy fikr-mulohazalar hamda natijalarni yaxshilash bo'yicha ko'rsatmalar beriladi. Bu – tez va qulay.

6. *"O'quvchilarga topshiriq tuzdirish" usuli.* Ushbu usul o'quvchilardan mavzu bo'yicha o'zlashtirishini tekshirishda samarali hisoblanadi. O'qituvchi o'quvchilarga yo'riqnoma beradi. Yo'riqnomada qaysi bilim va ko'nikmalarni tekshirilishi, qanday topshiriqlar tuzish kerakligi hamda topshiriqlar

miqdori haqida ma'lumot beriladi. O'quvchilar bajargan ishlar yoki guruhda muhokama qilinadi yoki o'zaro almashtirilib, namunaga qarab tengqurining ishini-topshiriqlarini baholab, egalariga qaytariladi. Natijalar umumiy muhokama qilinadi: o'quvchilardan muvaffaqiyatga erishgan tengqurlari bo'yicha fikrlarni bildirishi so'raladi va ular mulohazalari bilan bo'lishadi.

7. *"Do'stingizga o'rgating" usuli.* Ushbu usulda o'zlashtirishi yaxshi bo'lgan o'quvchilardan mavzu bo'yicha o'zlashtirishda ortda qolayotgan tengquri bilan birga o'tirib, unga o'rgatishi, birgalikda topshiriqlarni bajarishi talab etiladi. Sherigining muvaffaqiyatiga qarab o'quvchi rag'batlantiriladi.

8. *"O'ylab ko'rva baham ko'r" usuli.* Bu usulda o'quvchilarning tushunish chuqurligini baholash mumkin. Bunda o'quvchiga: "Bugungi darsda nimani o'rgandingiz?" va "Bugun o'rgangan narsalaringizni hayotingizda qay o'rinda qo'llashingiz mumkin?" deya savollar berib, o'ylab ko'rish uchun vaqt bering. O'quvchilar mulohazalarini sherigi bilan o'zaro muhokama qilishi mumkinligini eslatib. So'ngra ixtiyoriy o'quvchidan savollarga javob berishini so'rang, ular o'z fikrlarini erkin ifoda etishlarini talab eting. O'quvchilarning fikrlariga qarab, mavzuni o'zlashtirish darajasi haqida ma'lumotlar yig'ishingiz va kerakli ko'rsatmalarni berishingiz mumkin.

9. *"Qisqa xulosa" usuli.* Bu usulda o'quvchidan o'tilgan kichik mavzu bo'yicha o'rganganlarini bir jumladan iborat qisqa xulosada taqdim etishi so'raladi. O'quvchiga fikrlarini jamlab olishi uchun vaqt beriladi. O'quvchilarning javoblariga qarab, ularning mavzuni o'zlashtirish bo'yicha ma'lumotlar yig'ish mumkin. Bu keyingi mavzuni rejalashtirish uchun muhim bo'ladi.

10. *"Bir daqiqalik insho" usuli.* Bu usulda o'quvchiga mavzu bo'yicha o'zlashtirganlari va uni hayotda qo'llash yuzasidan

savollar beriladi. (*Savollar qisqa va aniq bo'lishi kerak.*) Ular fikrlarini yozishi uchun 1 daqiqa berilgani aytiladi. O'quvchilar yozgan ma'lumotlarini o'qib berishi so'raladi. Javoblarga qarab ular mavzuni qay darajada tushungani tekshiriladi.

11. *"Javob kartalari" usuli.* Bu usuldan sinfda doim foydalanish mumkin. Bunda o'quvchilarga "Ha" va "Yo'q" deb yozilgan ikkita karta beriladi. O'tilgan mavzu yuzasidan savollar beriladi. O'quvchilar hukm to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligiga qarab, "Ha" yoki "Yo'q" deb yozilgan kartalarni ko'tarishadi. Javoblarining to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligiga qarab, ularning mavzuni o'zlashtirishi tekshiriladi. Natijalarni yaxshilash uchun zaruriy ko'rsatmalar beriladi.

12. *"Birgalikda javob berish" usuli.* Bu usulda o'quvchilardan aniq ma'lumotlarni o'zlashtirishini ta'minlash maqsadida savollar beriladi va o'quvchilarda bir vaqtda hammasi baralla javob berishi so'raladi. Bundan maqsad – asosiy tushunchalarni eslab qolishini va ularni faolroq ishtirok etishini ta'minlashdir.

13. *"Sветофор" usuli.* Bu usul ham keng qo'llanadi. O'quvchilarga qizil, sariq va yashil doiralar tarqatiladi. Ularga mavzu bo'yicha savollar beriladi, to'g'ri va to'liq javob berganlar yashil doirani, qisman javob berganlar sariq hamda javob bera olmaganlar esa qizil kartani ushlab turadi. Shu orqali o'quvchilar mavzuni o'zlashtirish darajasi aniqlanib, ularga natijani yaxshilash bo'yicha qo'shimcha topshiriqlar va ko'rsatmalar beriladi.

14. *"Strategik savollar berish" usuli.* Bu usul o'quvchilar bilan kundalik dars mashg'ulotlarida amalga oshiriladi. Bunda o'quvchilardan mavzu bo'yicha aniq ma'lumotlarni bilishi emas, balki mushohada qilib javob beriladigan "qanday qilib" va "nima uchun" kabi yuqori darajadagi savollarga javob berish talab etiladi. Ulardan mavzuni qay darajada o'zlashtirilgani so'raladi.

Umuman, ta'lim jarayonida rivojlantiruvchi baholashning yuzga yaqin usul va texnologiyalaridan foydalaniladi. Formativ baholash usullaridan *individual*, *juftlik* va *guruh ishlarini* baholashda foydalanish mumkin.



Mustahkamlash.

Quyidagi savollarga birma-bir og'zaki javob bering hamda keys topshiriqlarini guruhdoshlaringiz bilan muhokama qilib mavzuni mustahkamlang.



SAVOLLAR

1. Baholash turlari haqida ma'lumot bering.
2. Formativ baholash haqida ma'lumot bering.
3. Formativ baholash usullari haqida ma'lumot bering.
4. Nazorat varaqasi va baholash rubrikalari haqida ma'lumot bering.
5. Individual bajarilgan ishlarni baholashda qaysi formativ baholash usullaridan foydalanish mumkin?
6. Juftlikda va guruh bilan bajarilgan ishlarni baholashda qaysi formativ baholash usullaridan foydalanish mumkin?
7. Hayotiy ko'nikmalarni baholash mumkinmi? Shu haqida fikringizni bering.
8. Bir-biriga mazmunan yaqin bo'lgan formativ baholash usullari haqida ma'lumot bering.



KEYS

Quyidagi ta'limiy vaziyatni o'qing va savolga munosabatingizni bildiring.

Muayyan fandan dars beruvchi "A" o'qituvchi dars jarayonida formativ baholashda o'quvchilarning axloqiga qarab baho qo'ya boshladi. Qaysi o'quvchi darsda jim o'tirsa, u yuqori baho olar, o'quvchi dars tayyorlab kelsa ham, sho'xlik qilsa, unga yaxshi baho qo'yilmas edi. "B" o'qituvchi esa formativ baholashda o'quvchilarning fanni o'zlashtirishiga, belgilangan bilim va ko'nikmalarni egallashiga qarab, turli nazorat varaqalaridan foydalanar, ularni fanni o'zlashtirishini kuzatib borar edi. Summativ imtihonlarda "B" o'qituvchining o'quvchilar yuqori natija qayd etdi. "A" o'qituvchining o'quvchilari esa buning teskarisi edi.

Yuqoridagi vaziyatdan kelib quyidagi savollarga javob toping.

1. "A" o'qituvchi formativ baholashni tashkil etishda qanday xatolikka yo'l qo'ydi?
2. "B" o'qituvchining o'quvchilar yuqori natija qayd etishining sababi nimada deb o'ylaysiz?
3. Siz bu kabi xatoliklarni qilmaslik uchun qanday yo'l tutardingiz?

ADABIYOTLAR

1. Natalie Regier. (2012) 60 Formative Assessment Strategies. Regier Educational Resources. All Rights Reserved.
2. Akubילו, F. (2012). Holistic assessment of student's learning outcome. Journal of Education and Practice, 3(12).
3. Williams, S., & Hin, L. C. (2015). Holistic assessment: Creating assessment with students. In Taylor's 7th Teaching and Lear-

- ning Conference 2014 Proceedings: Holistic Education: Enacting Change (pp. 389-397). Springer Singapore.
4. Sh.Egamberdiyev v.b. 4K ko'nikmalarini baholash rubrikalari. Uslubiy qo'llanma. Toshkent. "Bookmany print" nashriyoti. – 2024. B. 75.
 5. О.И.Можаевой, А.С.Шилибековой, Д.Б.Зиеденовой. Руководство по критериальному отсцениванию для учителей основной и общей средней школ: Учебно-метод. Пособие. – Астана: АОО «Назарбаев Интеллектуальные школы», 2016. — 56 с.
 6. Chris Zook. Formative vs. Summative Assessments: What's the Difference? [//https://www.aeseducation.com/blog/formative-vs.-summative-assessments-what-do-they-mean](https://www.aeseducation.com/blog/formative-vs.-summative-assessments-what-do-they-mean).

3.3. Summativ baholash va uning metodlari

Bu o'quvchilarning muayyan fan yoki fanlar yuzasidan o'quv choraklari davomida, yoki muayyan o'quv yili davomida yoki butun umumiy o'rta ta'lim davomida o'zlashtirgan, egallagan BKM va kompetensiyalarini tekshirish jarayonidir. Bunday sinovlarni o'tkazishdan maqsad o'quvchilarning fanlar bo'yicha bilim saviyasi va layoqat darajasi haqida xulosa berish va ularni saralash, ya'ni keyingi ta'lim bosqichiga o'tishi uchun tanlov vazifasini bajarish hisoblandi. Rasmiy maqomda bo'lib, baholash mazmuni, vositalari va mezonni vakolatli organlar tomonidan belgilanadi va ishlab chiqiladi. Shuning uchun ham bunday sinovlarning ta'limga ta'siri sezilarli bo'ladi.

Summativ baholash maqsadidan kelib chiqib o'quvchilarni ta'lim olishiga turtki vazifasini o'taydi. O'quv choragi va o'quv yili oxirida o'tkaziladigan imtihonlar mazmuni va metodikasi

ta'lim jarayoniga muayyan hajmda ta'sir o'tkazsa, umumiy o'rta ta'lim bitiruvchilaridan olinadigan yakuniy davlat attestatsiyasi yoki katta motivatsiya kuchiga ega bo'lgan oliy ta'limga kirish testlari mazmuni va metodikasi butun umumiy o'rta ta'limga: o'qitishning maqsadi va metodikasiga ta'sir qiladi. Ta'lim sifatini baholash bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarning hisobotlaridan ma'lumki, agarda juda katta ta'sir kuchiga ega bo'lgan sinovlarning mazmuni va test topshiriqlari metodikasi ta'lim berishning bosh maqsadi bilan hamohang bo'lmasa, o'rta ta'limda o'qitish va summativ baholash bir-biridan uzilib qoladi. Natijada jamiyatda "imtihon uchun o'rgatish"ga xizmat qiladigan alternativ ta'lim paydo bo'ladi. Bu esa jamiyatning ijtimoiy, ma'naviy va huquqiy hayotiga, xususan, ta'lim jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatmaydi. Shuni esdan chiqarmasligimiz kerakki, Garvardda o'tkazilgan tadqiqotlardan shu ma'lum bo'ldiki, o'quvchilarni, talabalarni majburiy standartlashtirilgan testlardan o'tish uchun tayyorlash ularning o'qitishining bosh maqsadiga aylanib qoladi. O'qituvchilar va ta'lim oluvchilarda stressli holatlarni keskin oshib ketishiga sabab bo'ladi. Bular esa summativ baholashni tashkil etishda, uning mazmunini, formatini va topshiriqlari metodikasini belgilashda ehtiyotkorona, aniq statistik tahlillarga asoslanib amalga oshirish kerakligini ko'rsatadi.

Summativ baholashda quyidagi baholash metodlaridan foydalaniladi:

- *loyiha;*
- *og'zaki taqdimotlar;*
- *yozma ishlar;*
- *amaliy ishlar;*
- *testlar;*
- *portfolio.*

Saralash, xulosalash maqsadida amalga oshiriladigan summativ baholashning ishonchliligi, validligiga, shaffofligi, adolatligi, qulayligini juda muhim hisoblanadi. Biroq bu – murakkab jarayondir. Bunga bir qancha omillar ta'sir qiladi. Xususan, Baholash mazmuni o'rta ta'lim davlat ta'lim standartlarida belgilangan talablariga mos bo'lishi bilan bog'liq bo'lgan omillar; Baholashni loyihalashtirish jarayoniga amal qilmaslik bilan bog'liq bo'lgan omillar; Topshiriqlarni ishlab chiqish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan omillar; Imtihon o'tkazish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan omillar; Baholash natijalarini tekshirish va hisoblash jarayoni bilan bog'liq bo'lgan omillar.

Summativ – xulosalovchi baholash – o'quv jarayoni oxirida ta'lim oluvchilarning belgilangan o'quv natijalarini qay darajada o'zlashtirganini o'lchash va baho berish jarayoni. Bunda bir qator baholash usullari va vositalaridan keng foydalaniladi. Jumladan, *yakuniy testlar, amaliy ishlar, loyiha ishlari, yozma ishlar, og'zaki taqdimotlar, laboratoriya ishlari, hisobotlar va portfolio* kabilar.

1. *Standartlashtirilgan yakuniy testlar yordamida baholash.* Bu ta'lim oluvchilarning bilim va ko'nikmalarini standartlashtirilgan test topshiriqlari yordamida o'lchash va baholash jarayonidir. Bu usuldan barcha fanlarda foydalanish hamda o'quvchilarning o'zlashtirish darajasiga yaxlit baho berish mumkin.

2. *Amaliy ishlar yordamida baholash.* Bunda maket yasash, model yaratish, dastur tayyorlash, rasm chizish, sxema tayyorlash kabi vazifalarni talab etadigan topshiriqlardan foydalaniladi. Bunda ham natija va jarayon baholanadi. Ya'ni bajarilgan amaliy ish sifati va uni tayyorlashda belgilangan tartibga amal qilingani yoki qilinmagani ham aniqlanadi. Shuningdek, baholash mezonlari va jarayonlar ketma-ketligi aniq ko'rsatiladi. Amaliy ishlar summativ baholash jarayonida

o'quvchilarning kognitiv ko'nikmalarni chuqur o'rganish imkonini beradi. Bu usul, ayniqsa, amaliy fanlarda juda samarali hisoblanadi. Biroq taqdim etilgan material nomzodning shaxsiy ishi ekanligini baholashda qiyinchiliklar paydo bo'lishi mumkin.

3. *Loyiha ishlari yordamida baholash.* Summativ baholashda foydalaniladigan loyiha ishlari mazmunan amaliy ishlarga o'xshaydi, biroq bunda ham jarayon, ham natija baholanadi. Loyiha ishlarini jamoaviy yoki yakka tartibda bajarish mumkin. Topshiriq guruh bilan birgalikda bajarilganda jamoadagi har bir a'zoning aniq vazifasi belgilanadi. Loyihalarning sifati, amaliy ahamiyati va innovatsiyasiga qarab baho qo'yiladi. Loyiha ishlari summativ baholash jarayonida o'quvchilarning kognitiv va affektiv ko'nikmalarni chuqur tekshirish imkonini beradi. Bu usul, ayniqsa, ijtimoiy va amaliy fanlarda samarali hisoblanadi. Biroq taqdim etilgan material nomzodning shaxsiy ishi ekanligini tekshirishda qiyinchiliklar paydo bo'lishi mumkin.

4. *Laboratoriya ishlari yordamida baholash.* Bunda tadqiqot qilish, tajriba o'tkazish, o'lchab, tekshirib ko'rish kabi vazifalarni talab etadigan topshiriqlardan foydalaniladi. Ta'limda bu baholash shaklidan foydalanish maxsus sharoitlarni, laboratoriyalarni talab etadi. Muhimi, ta'lim tizimida undan foydalanish natijaga yo'naltirilgan ta'limni kafolatlaydi. Laboratoriya ishlari summativ baholash jarayonida o'quvchilarning kognitiv ko'nikmalarni chuqur tekshirish imkonini beradi. Bu usuldan, ayniqsa, tabiiy fanlarda foydalanish samarali hisoblanadi.

5. *Yozma ishlar yordamida baholash.* Bunda berilgan topshiriqlarga yozma tarzda javob beriladi. Topshiriqlar fanning xususiyatidan kelib chiqib, kognitiv va affektiv ko'nikmalarni tekshirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Yozma ishlar

summativ baholash jarayonida o'quvchilarning ko'nikmalarini umumiy tekshirish imkonini beradi. Biroq filologik fanlarda bu usuldan foydalanish juda samarali hisoblanadi.

6. *Og'zaki taqdimotlar yordamida baholash.* Bunda berilgan topshiriqlarga og'zaki tarzda javob beriladi. Topshiriqlar fanning xususiyatidan kelib chiqib, kognitiv va affektiv ko'nikmalarni tekshirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Og'zaki taqdimotlar summativ baholash jarayonida o'quvchilarning ko'nikmalarni umumiy tekshirish imkonini beradi. Shuningdek, filologik fanlarda bu usuldan foydalanish juda samarali hisoblanadi.

7. *Portfolio yordamida baholash.* Bunda o'quvchilardan portfel olish va unda har bir bajargan vazifalari, kichik loyihalari, amaliy ishlanmalari, yozma ishlari, umuman, yutuqlari va o'qituvchisining unga bergan rag'batlarini yig'ib borish talab etiladi. Undagi har bir ish oldindan belgilangan aniq baholash mezonini bilan baholanadi. O'quv faoliyati so'ngida umumiy natija e'lon qilinadi. Bu usuldan barcha fanlarda foydalanish hamda o'quvchilarning o'zlashtirish darajasiga, faoliyatiga muntazam va yaxlit baho berish mumkin.

Umuman, summativ baholashning maqsadi o'quvchilarning umumiy o'quv faoliyatini aniqlash, o'quv dasturining samaradorligini tekshirish va o'qituvchining faoliyatiga baho berish hisoblanadi. Shuning uchun baholash qonuniyatlariga amal qilgan tarzda summativ imtihonlarni o'tkazish maqsadga muvofiq.

Summativ va formativ baholash farqi. Umuman, formativ va summativ baholashning bir-biridan farqlari bisyor. Buni quyidagi jadvalda yaqqol ko'rishingiz mumkin.

Formativ va summativ baholash farqlari

T/r	Tushunchalar	Formativ baholash	Summativ baholash
1.	Baholash maqsadi	<i>rivojlantirish</i>	<i>xulosalash, baho berish</i>
2.	Baholash mazmuni	<i>bir yoki ikki mavzu doirasida</i>	<i>bob, bo'lim va barcha ko'nikmalar doirasida</i>
3.	Baholash davriyligi	<i>muntazam</i>	<i>muntazam emas: belgilangan vaqtlar oralig'ida</i>
4.	Baholash metodi	<i>viktorinalar; didaktik o'yinlar; kichik loyihalar; og'zaki taqdimotlar; guruhlarda ishlash; guruh faoliyatini kuzatish.</i>	<i>loyiha; og'zaki taqdimotlar; yozma ishlar; amaliy ishlar; testlar; portfolio.</i>
5.	Baholash mezoni	<i>darajali: o'rta, yaxshi, a'lo</i>	<i>ko'p balli va darajali</i>
6.	Baholash maqomi	<i>norasmiy</i>	<i>rasmiy</i>
7.	Baholashning ta'sir kuchi	<i>O'quvchiga ta'sir qiladi, asosan, rag'bat qo'llanishi tavsiya etiladi.</i>	<i>O'quvchiga, o'qituvchiga, hatto ta'lim muassasasiga ta'sir qiladi. Rag'bat yoki jazo qo'llanadi.</i>

**Mustahkamlash.**

Quyidagi savollarga birma-bir og'zaki javob bering hamda keys topshiriqlarini guruhdoshlaringiz bilan muhokama qilib mavzuni mustahkamlang.



SAVOLLAR

1. Summativ baholash haqida ma'lumot bering.
2. Amaliy va loyiha ishlarining salbiy va ijobiy tomonlari haqida ma'lumot bering.
3. Portfolioning salbiy va ijobiy tomonlari haqida ma'lumot bering.
4. Laboratoriya ishlarining salbiy va ijobiy tomonlari haqida ma'lumot bering.
5. Og'zaki va yozma imtihonlarning salbiy va ijobiy tomonlari haqida ma'lumot bering.
6. Standartlashtirilgan yakuniy testlarning salbiy va ijobiy tomonlari haqida ma'lumot bering.
7. Formativ va summativ baholashning farqlari haqida ma'lumot bering.



KEYS

Quyidagi ta'limiy vaziyatni o'qing va savolga munosabatingizni bildiring.

Ona tili fandan "A" va "B" guruhlarda dars mashg'ulotlarini ikkita o'qituvchi tomonidan olib boradi. "A" guruhda dars beruvchi o'qituvchi o'quvchilarning natijasi yaxshi bo'lishi, muntazam nazorat qilib turish uchun hardarsularni baholashga harakat qiladi. Darslarning asosiy qismi o'quvchilarni baholash bilan o'tadi. "B" guruh o'qituvchisi esa har dars asosiy e'tiborini dars berishga qaratadi. Kunlik dars jarayonida hammani ham baholab o'tirmaydi, biroq hammaga individual topshiriq bajartiradi, o'quvchilarning xatolarini izohlab beradi. Xato qilmaslikka o'rgatadi. Ularda fanga oid ko'nikmalarni

rivojlantirishga asosiy e'tiborini qaratadi. O'quv yili yakunida tashqi monitoring o'tkazilganda "A" guruhning natijalaridan ko'ra "B" guruhning natijalari ancha yuqori chiqdi.

Yuqoridagi vaziyatdan kelib chiqib, quyidagi savollarga javob toping.

1. "B" guruhning yuqori natija ko'rsatishining sababi nima deb o'ylaysiz?
2. "A" guruhda darsni tashkil etish va baholash jarayonida qanday pedagogik xatoliklarga yo'l qo'yildi?
3. Ushbu vaziyatda "over-assessment" (haddan tashqari ko'p baholash) muammosi qanday namoyon bo'lmoqda va u o'quvchilarning o'quv motivatsiyasi va natijalariga qanday ta'sir ko'rsatgan bo'lishi mumkin?

ADABIYOTLAR


1. Black, P. J. (1993). Formative and summative assessment by teachers.
2. Chris Zook. Formative vs. Summative Assessments: What's the Difference? // <https://www.aeseducation.com/blog/formative-vs.-summative-assessments-what-do-they-mean>.
3. Akubילו, F. (2012). Holistic assessment of student's learning outcome. Journal of Education and Practice, 3(12).
4. Williams, S., & Hin, L. C. (2015). Holistic assessment: Creating assessment with students. In Taylor's 7th Teaching and Learning Conference 2014 Proceedings: Holistic Education: Enacting Change (pp. 389-397). Springer Singapore.
5. О.И.Можаевой, А.С.Шилибековой, Д.Б.Зиеденовой. Руководство по критериальному отсцениванию для учителей основной и общей средней школ:

Учебно-метод. Пособие. – Астана: АОО «Назарбаев Интеллектуальные школы», 2016. — 56 с.

3.4. Bilimni baholashning yangi tartibi

O'zbekiston ta'lim tizimida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida o'quvchilarning bilim darajasini baholash bo'yicha zamonaviy yondashuvlar kiritildi. Ushbu yangi baholash tartibida o'quvchilarning nazariy bilimlari va amaliy ko'nikmalari integratsiya qilish orqali o'lchanadi va baholanadi.

Baholash turlari. Umumiy o'rta ta'limda yangi baholash tartibi summativ va formativ baholash turlariga asoslanadi va 100 ballik baholash shkalasi bilan baholanadi(3.3-rasmga qarang).



3.3-rasm. Bilimni baholashning yangi tartibi

Formativ baholash (FB) – o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi uzluksiz fikr almashish jarayonidir. Fikr-mulohaza og'zaki va yozma, rasmiy va norasmiy bo'lishi mumkin. Bu o'quv maqsadiga erishish uchun o'quvchilarning keyingi

harakatlarini moslashtirish maqsadida o'quvchining yutuqlari to'g'risida ma'lumot olishning uzluksiz jarayonidir. Bunda o'quvchilarning bilim va ko'nikmalari *darsdagi faolligi va uyga vazifalarni bajarish darajasiga* qarab baholanadi. Bunda o'quvchilarning emaktab.uz dagi profiliga uch xil izoh (feedback) qoldiriladi: "A", "B" va "C"

"A" – o'zlashtirishi yuqori bo'lgan o'quvchilarga shunday izoh qoldiriladi;

"B" – o'zlashtirishi yaxshi bo'lgan o'quvchilarga shunday izoh qoldiriladi;

"C" – o'zlashtirishi yaxshi bo'lmagan, dars tayyorlashini nazoratga olish lozim bo'lgan o'quvchilarga shunday izoh qoldiriladi.

Summativ baholash (SB) – o'qishning ma'lum bir davrida (o'quv dasturining bo'lim va boblari, choraklik, o'quv yili oxirida) o'quvchining davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlarida belgilangan o'quv natijalarini egallaganlik darajasini rasmiy baholash jarayoni bo'lib, test, yozma ish, og'zaki suhbat, loyiha ishi, taqdimot ishlari, amaliy mashg'ulot, laboratoriya ishi, ijodiy ishlar va shu kabi boshqa shakllar yordamida amalga oshiriladi. E'tiborli jihati *har bir fandan sinflar kesimida aniq baholash mezonini ishlab* chiqiladi va undan yalpi foydalaniladi.

Summativ baholash ikki turga ajratiladi:

– *bob bo'yicha summativ baholash;*

– *chorak bo'yicha summativ baholash.*


Bob bo'yicha summativ baholash (BSB) – bob, bo'lim yakunida bob/bo'lim yuzasidan egallashi belgilangan o'quv natijalarini o'zlashtirish darajasini rasmiy baholash jarayoni.

BSB sinovlarida o'quvchilarning ma'lum bo'lim yakunida yozma ishlar, loyiha ishlari, amaliy-ijodiy topshiriqlar, laboratoriya ishlari, xarita bilan ishlash va sahna ko'rinishi

kabilyordamidata'limiynatijalarigabahoberiladi(3.4-rasmga qarang).

Ushbu topshiriqlar markazlashgan holda shakllantirilgan bo'lib, o'quvchilardan sinf o'qituvchisi tomonidan nazorat ishlari olinadi. O'qituvchi BSB sinovlarini mustaqil o'zi tomonidan tayyorlagan baholash topshiriqlaridan foydalanib o'tkazishi ham mumkin.

BSB sinovlari har chorakda fanlarning soatidan kelib chiqib ko'pi bilan uch martagacha o'tkaziladi va BSB uchun ajratilgan 50 ball imtihonlarga bo'lib beriladi. Masalan, o'quvchilarning fanni o'zlashtirishi agarda chorak davomida uch marta BSB o'tkazish orqali baholansa, 1-BSB – 15 ball, 2-BSB –20 ball, 3-BSB – 15 ball, agarda ikki marotaba o'tkazilsa, teng ikkiga 25 ball, agarda bir marotaba tashkil etilsa 50 ball bilan baholanadi.



3.4-rasm. BSB topshiriqlari

Chorak bo'yicha summativ baholash (CHSB) – chorak yakunida chorak davomida o'quvchilar egallashi belgilangan o'quv natijalarini o'zlashtirish darajasini rasmiy baholash jarayoni.

ChSB imtihonlarida o'quvchining chorak yakunidagi egallagan bilim va ko'nikmalari vakolatli tashkilot tomonidan professional tarzda tuzib berilgan test topshiriqlari yordamida o'tkazilishi lozim. Bunda nazorat sinovlari, markazlashgan holda aniq grafik asosida tashkil etiladi. Baholashning shaffofligini ta'minlash maqsadida fanlar bo'yicha tegishli summativ baholash barcha parallel sinflar uchun yagona talablar asosida ishlab chiqiladi.

CHSB sinovlari har chorakda bir marotaba tashkil etiladi va o'quvchilarning fanni o'zlashtirishi 40 ball bilan baholanadi.

Baholash mazmuni. Umumiy o'rta ta'limning yangi baholash tartibida foydalaniladigan topshiriqlar mazmuni Blum taksonomiyasiga asoslangan. O'quvchilarni fanlar bo'yicha, *eslab qolish, tushunish, qo'llash, analiz qilish, baho berish va yaratish* ko'nikmalari baholanmoqda. Formativ baholashda o'quvchilarning kognitiv va kognitiv bo'lmagan ko'nikmalari rivojlanib borishi kuzatiladi. Summativ baholash esa oldindan ishlab chiqilgan baholash spetsifikatsiyasi asosida amalga oshiriladi. Bu o'qituvchilar dars mashg'ulotlarini o'tishdan oldin o'quvchilarda qanday ko'nikmalarni shakllantirishlari kerakligi, o'quvchilar esa summativ baholash jarayonida qanday ta'limiy natijalari baholanishi haqida aniq tasavvurga ega bo'ladilar.

Jumladan, BSB sinovlarida o'quvchilarning *bilimini qo'llash, baho berish, kreativ fikrlash, kritik fikrlash, kommunikatsiya va kollaboratsiya* kabi ko'nikmalarini baholashga e'tibor qaratilgan.

ChSB sinovlarida esa *bilish, qo'llash va mulohaza yuritish* ko'nikmalari o'lchanmoqda. Ushbu kognitiv jarayonlarni tekshiradigan test topshiriqlari quyidagi mazmunda bo'ladi:

a) *Bilish (reproduktiv daraja).* Bilishni tekshiradigan topshiriqlar o'quvchilardan fanga oid qoidalar, xossalar,

formulalar, tushunchalar va atamalarning mohiyatini bilish va idrok etishni talab etadi.

b) *Qo'llash (produktiv daraja)*. Qo'llashni tekshiradigan topshiriqlar o'quvchilardan o'rganilgan qonun va qonuniyatlari, xossalari va formulalarini qo'llash, bir qancha qonun va qonuniyatlardan foydalanish va o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni tanish vaziyatlarda ishlatishni talab etadi.

c) *Mulohaza yuritish*. Mulohaza yuritishni tekshiradigan topshiriqlar mazmuni o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni notanish vaziyatlarda qo'llashni, fan qonuniyatlaridan foydalangan holda tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirishni talab qiladi.

Baholash shkalasi va natijalarni hisoblash. Umumiy o'rta ta'limning yangi baholash tartibida 100 ballik o'lchash shkalasidan foydalaniladi va bahoga konvertatsiya qilinadi (3.4-jadvalga qarang.)

3.4-jadval

**Umumiy o'rta ta'limning yangi baholash tartibida
baholash shkalasi**

Ballar yig'indisi	Baho	O'zlashtirish darajasi
86-100	5	a'lo
66-85	4	yaxshi
30-65	3	qoniqarli
0-29	2	qoniqarsiz

O'quvchi muayyan fandan o'quv yili davomida har chorakda choraklik baholar bilan o'quv yili oxirida yillik baho bilan baholanadi.

Choraklik baho. Bunda o'quvchilarning choraklik bahosi chorak davomida FB, BSB va ChSB imtihonlarida qayd etilgan natijalarni qo'shish orqali aniqlanadi. Masalan, 5-sinfda o'qiydigan Far-

rux matematika fanidan 1-chorakda 2 ta BSB imtihoni topshirdi va 18 va 19 ball oldi, ChSB imtihonida esa 28 ballik natija qayd etdi, FBda darsdagi faolligi va uyga vazifani bajarib kelganligini inobatga olib, o'qituvchisi Farruxni 10 ball bilan baholadi, umumiy 75 ballik natija qayd etdi va natijasi balldan bahoga konvertatsiya qilinganda uning choraklik bahosi "4" baho bo'ldi.

Yillik baho. Bunda yillik baho choraklik baholarning o'rtacha arifmetigi orqali aniqlanadi. Bunda quyidagi formuladan foydalaniladi.

$$\frac{Q1 + Q2 + Q3 + Q4}{NQ} = G$$

Q – o'quvchilarning choraklik ball ko'rinishidagi natijasi;

NQ – choraklar soni;

G – o'quvchilarning yillik ball ko'rinishidagi natijasi.

Masalan, Farrux matematika fanidan 1-chorakda 75, 2-chorakda 73, 3-chorakda 79, 4-chorakda 81 ball oldi. Uning baholarni yuqoridagi formulaga qo'yganimizda quyidagi natija chiqadi:

$$\frac{75 + 73 + 79 + 81}{4} = 77$$

Demak, Farrux matematika fanidan 77 ballik natija qayd etdi va natijasi balldan bahoga konvertatsiya qilinganda uning yillik bahosi "4" baho bo'ldi.

Shuni ta'kidlash shartki, bitiruvchi sinflar o'quvchilarida ayrim fanlardan yillik baho boshqacharoq tartibda chiqariladi. Xususan, yakuniy davlat attesatsiyasi sinovlarini topshirgan fanlardan. Bunda yillik baho 70 % ulushda va Davlat imtihoni bahosi 30% ulushda belgilanadi va belgilangan joyga quyidagini yozish kerak:

Yakuniy bahosi quyidagi formuladan foydalanib hisoblandi:

$$FG = (0.7 * G1) + (0.3 * G2)$$

FG – yakuniy natija.

G1 – o'quvchilarning yillik ball ko'rinishidagi natijasi;

G2 – davlat imtihoni natijasi;

Masalan, Farrux 11-sinfga kelib matematika fanidan yillik 82 ball natija qayd etdi va Yakuniy davlat attestasiyasi sinovidan 75 ballik natija qayd etdi. Uning yakuniy natijasi yuqoridagi formuladan foydalanib hisoblaganimiz quyidagi natija chiqadi:

$$FG=(0.7*82)+(0.3*75)$$

$$FG=52.5+24.6$$

$$FG=77.1$$

Demak, Farruxning matematika fanidan yakuniy natijasi 77.1 ball. Bu – “4” baho hisoblanadi.



Mustahkamlash.

Quyidagi savollarga birma-bir og'zaki javob bering hamda keys topshiriqlarini guruhdoshlaringiz bilan muhokama qilib mavzuni mustahkamlang.



SAVOLLAR

1. An'anaviy baholash tizimida qanday kamchiliklar mavjud edi va yangi tizim ularni qanday hal qilmoqda?
2. Choraklik summativ baholash (ChSB) va bob bo'yicha summativ baholash (BSB) o'rtasidagi asosiy farqlar nimalarda namayon bo'ladi?
3. Formativ baholashda o'qituvchi tomonidan o'quvchining darsdagi faolligi qanday mezonlarga ko'ra baholanadi?
4. Yangi baholash tartibida choraklik baho qanday aniqlanadi?
5. Yangi baholash tartibida yillik baho qanday aniqlanadi?



KEYS

Quyidagi pedagogik vaziyatni o'qing va savolga munosabatingizni bildiring.

Bir maktabda o'qituvchi yangi baholash tizimini tatbiq qilish uchun sinf o'quvchilarini tayyorlamoqda. Chorak oxirida summativ baholash o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish jarayonida, bir necha o'quvchi o'z bilimlarini to'liq ko'rsata olmasligidan xavotirda. O'qituvchi esa ularning bilimlaridagi bo'shliqlarni aniqlab, ushbu muammolarni bartaraf qilish uchun qanday choralar ko'rish kerakligini o'ylamoqda. Shuningdek, formativ baholash orqali o'quvchilarning darsdagi faolligini kuzatish va baholash uchun qanday metodlarni qo'llashi lozimligini belgilab olmoqda.

Yuqoridagi vaziyatdan kelib chiqib, quyidagi savollarga javob toping.

1. O'qituvchi o'quvchilarning bilimlaridagi bo'shliqlarni aniqlash uchun qanday baholash usulidan foydalanishi kerak?
2. O'qituvchi formativ baholashni qanday qilib o'quvchilarning keyingi bilim olish jarayoniga yo'naltirishi mumkin?
3. Yangi baholash tartibida baholash jarayoni adolatli va sifatli bo'lishi uchun o'qituvchi qanday choralar ko'rish kerak?

ADABIYOTLAR

1. Davidova, D. v.b.. (2024). Loyihaga asoslangan ta'lim. Toshkent: G'ofur G'ulom nashriyoti. 216

2. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2023-yil 16-avgustdagi "Tajriba-sinov maktablarida bilimni baholashning yangi tartibini joriy etish to'g'risida" 248-son buyrug'i.
3. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2024-yil 16-avgustdagi "Tajriba-sinov maktablarida bilimni baholashning yangi tartibini joriy etish to'g'risida" 250-son buyrug'i.
4. Unicef in Uzbekistan, "Briefing Paper: National Learning Assessment System".

3.5. An'anaviy va autentik baholash

Ta'lim taraqqiyoti davomida baholash jarayonida bir qator yondashuvlardan foydalanilgan. Davr talabi va ilm-fan yutuqlari asosida yondashuvlar o'zgarib borgan. Jumladan, an'anaviy yondashuv, nisbiy va mutlaq yondashuv, autentik yondashuv, yagona yoki bosqichli sinov kabilar.

Ta'lim tizimida baholash mazmuniga ko'ra ikki xil baholash farqlanadi:

a) *an'anaviy baholash*;

b) *autentik baholash*.

An'anaviy baholash – bunda ta'lim oluvchilarning ta'lim jarayonida olgan barcha bilimlari, egallagan barcha ko'nikmalarini baholashga e'tibor qaratiladi. Natijada ta'lim oluvchilarning bilim kengligi baholanadi. Bunda baholash mazmunini belgilashda ta'lim standartida belgilangan o'quv natijalari nazariy va amaliylikiga ko'ra guruhga ajratilmaydi. Nima o'rgatilgan bo'lsa, asosan umumiy baholanadi. Bu esa ta'lim oluvchini yuzaki baholashga olib keladi. Buning

natijasida ularda yuqori kognitiv ko'nikmalar yetarli darajada rivojlantirilmaydi.

Autentik baholash – bunda ta'lim oluvchilarning ta'lim jarayonida olgan bilimlari va egallagan ko'nikmalarining barchasi ham tekshirilavermaydi. Baholash mazmunini belgilashda ta'lim standartida belgilangan o'quv natijalari nazariy va amaliyligiga ko'ra farqlanib, barcha muhim hayotiy ko'nikmalar baholanadi. Bu yondashuvda asosan ta'lim oluvchilarning kundalik hayotda qo'llay olishi mumkin bo'lgan ko'nikmalari o'lchanadi. Buning natijasida ta'lim jarayonida o'quvchilarda real hayotda asqatadigan yuqori kognitiv ko'nikmalar rivojlantiriladi.

An'anaviy va autentik yondashuvlar bir qator jihatlari bilan bir-biridan farqlanadi. Quyida shu farqlar berilgan:

3.4-jadval

An'anaviy va autentik baholashlarning farqlari

T/R	An'anaviy baholash	Autentik baholash
1.	Ta'lim oluvchilardan asosan muayyan fanga oid bilim talab qilinadi.	Ta'lim oluvchilardan asosan biror-bir ko'nikmani bajarib ko'rsatish talab qilinadi
2.	Passiv o'rganishga olib keladi.	Faol o'rganishga yordam beradi. Kreativlik rag'batlantiriladi.
3.	Ta'lim oluvchilardan o'rganganlarini kontekstdan tashqari so'raydi va eslab qolish rag'batlantiriladi.	Ta'lim oluvchilardan o'rganganlarini kontekstga moslashtirish va qo'llash talab qilinadi .
4.	Tezda unutiladigan sayoz ta'limga erishiladi.	Egallab olinadigan, to'liq o'zlashtiriladigan chuqur ta'limga erishiladi.
5.	O'rganishda ta'lim oluvchilar o'quv materiallari va akademik kontekst bilan chegaralanib qoladi.	O'rganishda ta'lim oluvchilar kurs mazmuni va real dunyo o'rtasida aloqa o'rnatishga ilhomlantiriladi.

Umuman, har ikkala turdagi baholashlardan baravar foydalanish samarali bo'lishi mumkin. Shuningdek, ba'zi hollarda (fan maqsadlari va natijalariga qarab) autentik baholashdan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.



Mustahkamlash.

Quyidagi savollarga birma-bir og'zaki javob bering hamda keys topshiriqlarini guruhdoshlaringiz bilan muhokama qilib mavzuni mustahkamlang.



SAVOLLAR

1. An'anaviy baholash haqida ma'lumot bering.
2. Autentik baholash haqida ma'lumot bering.
3. An'anaviy va autentik baholashning farqi nimada?
4. Qaysi hollarda autentik baholashdan foydalanish samarali bo'lishi mumkin?
5. Qaysi domenlarni autentik baholash yordamida o'lchash imkonsiz?



KEYS

Quyidagi ta'limiy vaziyatni o'qing va savolga munosabatingizni bildiring.

O'qituvchi o'quv yili boshida o'quvchilarga o'tilishi kutilganyangi "N" fandan joriy bilim va ko'nikmalarini hamda fan bo'yicha bo'shliqlarni aniqlash maqsadida nazorat ishi tashkil etdi. Aksariyat o'quvchilar nazorat ishidan yomon natija qayd etdi. O'qituvchi esa natijalarni rasman qayd etdi va bu haqida o'quvchilarning ota-onalariga ma'lumot berdi. Bu o'quvchilarni e'tirozlariga sabab bo'ldi. Ular "Biz hali bu fanni o'qishni boshlamadik, yomon natija qayd etishimiz aniq edi. Siz natijalarni elektron jurnalga qayd etmasligingiz kerak edi", – deyishdi. O'qituvchi esa o'zining qarorini to'g'ri

ekanligini, bu – ularning fan bo'yicha ilk natijasi ekanligini ta'kidladi.

Yuqoridagi vaziyatdan kelib chiqib, quyidagi savollarga javob toping.

1. O'qituvchi nima maqsadda nazorat ishi tashkil etdi, shunday nazorat ishini tashkil etishi to'g'rimidi?
2. O'qituvchi baholash jarayonini tashkil etish bilan bog'liq qanday xatolikka yo'l qo'ydi?
3. O'quvchilarning e'tirozi haqli bo'lishi mumkinmi, nima uchun?

ADABIYOTLAR

1. Authentic Assessment. [<https://www.njit.edu/ite/authentic-assessment>.]
2. Mueller, Jon. (n.d.). "How Do You Create Authentic Assessments?" Retrieved from[<http://jfmuelleducation.org/toolbox/howdoyoudoit.htm>]
3. Mueller, Jon. (n.d.). "Why Use Authentic Assessment?" Retrieved from[<http://jfmuelleducation.org/toolbox/whydoit.htm>]
4. Thompson, Steven. "The Differences Between Traditional and Authentic Assessment." YouTube, YouTube, 2 July 2016, [www.youtube.com/watch?v=XOupbmSx27A]
5. What is Authentic Assessment? [https://www.butte.edu/departments/slo/authentic-assessment/define_authentic.html]

3.6. Mezonli va nisbiy baholash

Ta'limda baholash natijalar talqin qilinishiga ko'ra ikki xil baholash farqlanadi: *nisbiy va mutlaq baholashlar*.

Nisbiy baholash ayrim adabiyotlarda¹ normaga asoslangan baholash deyiladi. Mutlaq yondashuv esa mezonga asoslangan baholash deb ataladi.

Nisbiy baholash. Bunda ta'lim oluvchining imtihonda erishgan natijalari guruhdagi o'z tengdoshlari natijasi bilan taqqoslanadi va umumiy natija nisbiy belgilanadi (3.5-rasmga qarang). Shuningdek, umumiy natija guruhdagilarning saviyasiga bog'liq bo'ladi. Bu kabi baholashlarga oliy ta'limga kirish sinovlari yoki fan olimpiadalari sinovlari misol bo'la oladi.

Bu baholashdan asosan kvotalar yoki o'rinlar uchun o'tkaziladigan sinovlar, tanlovlar uchun o'tkaziladigan testlarda foydalaniladi.




3.6-rasm: Nisbiy baholash

Mezonli baholash. Bunda har bir o'quvchining bilim va ko'nikmalari aniq, o'zgarmas mezon asosida baholanadi. O'quvchilar belgilangan darajali baholash talablarni bajarishiga qarab umumiy natija e'lon qilinadi (3.6-rasmga qarang). Ya'ni

¹ Lorrie Shepard. Norm-referenced vs. criterion-referenced tests Vol. 58, No. 1, Current issues in student assessment (FALL 1979), pp. 26-32 (7 pages)

o'quvchi oldindan belgilab qo'yilgan aniq mezonlarni, minimal talablarni bajargani yoki bajara olmaganini o'lchanadi. Bunda guruhdagi barcha ta'lim oluvchilar talabni a'lo darajada bajara olishi yoki hech biri bajara olmasligi mumkin. Bunga haydovchilik guvohnomalarini olish sinovlari, xalqaro til sertifikatlari kabilar misol bo'la oladi.

Bu baholashdan ta'lim tizimida va sertifikatlash tizimlarida (Milliy test tizimi, IELTS va CEFR kabilarini) keng foydalaniladi.



3.6-rasm: mezonli baholash

Nisbiy va mezonli baholashlar bir qator jihatlari bilan bir-biridan farqlanadi. Quyida shu farqlar berilgan:

3.5-jadval

Nisbiy va mezonli baholashlar farqlari

T/R	Tushunchalar	Nisbiy baholash	Mezonli baholash
1.	MAQSAD	test topshiruvchilarning guruhga nisbatan o'rnini aniqlash: uchinchi o'rinda	test topshiruvchilarning o'quv natijalarini o'zlashtirish darajasini aniqlash: 86 foizini egallagan
2.	MEZON	nisbatan o'zgaruvchan	nisbatan barqaror
3.	OBYEKTI	bilim kengligi	bilim tor va chuqurligi
4.	NATIJA	test topshiruvchilarning natijasi boshqa test topshiruvchilarning natijasi bilan qiyoslanadi	test topshiruvchilarning natijasi belgilangan o'lchovlar bilan solishtiriladi

O'qitish jarayonida asosan mezonli baholashdan foydalaniladi, faqat ta'limiy ko'rik-tanlovlar, olimpiadalar bundan mustasno.



Mustahkamlash.

Quyidagi savollarga birma-bir og'zaki javob bering hamda keys topshiriqlarini guruhdoshlaringiz bilan muhokama qilib mavzuni mustahkamlang.



SAVOLLAR

1. Nisbiy baholash haqida ma'lumot bering.
2. Mezonli baholash haqida ma'lumot bering.
3. Nisbiy va mezonli baholashning farqi nimada?
4. Ta'limda qaysi o'rinlarda nisbiy baholashdan foydalanish samarali bo'lishi mumkin?
5. Ta'limda qaysi o'rinlarda mezonli baholashdan foydalanish samarali bo'lishi mumkin?



KEYS

Quyidagi ta'limiy vaziyatni o'qing va savolga munosabatingizni bildiring.

Matematika fanidan "A" va "B" guruhlarda ma'ruza va amaliy dars mashg'ulotlari olib borilmoqda. "Ma'ruza mashg'ulotlarini olib boruvchi o'qituvchi rejaga muvofiq barcha darslarni talabalar uchun qiziqarli tarzda batafsil tushuntirib berdi. "A" guruhda ma'ruzachi o'qituvchi o'zi amaliy mashg'ulotlarni olib bordi. Fan maqsadidan kelib chiqib, talabalarda fanga oid ko'nikmalar ketma-ket rivojlantirildi. "B" guruhda esa amaliy mashg'ulotlar yosh o'qituvchi tomonidan turli interaktiv metodlardan

foydalanib tashkil etildi, formativ baholashda talabalarni fanni nazariy jihatdan bilishi rag'batlantirildi. "B" guruhda dars misoli teatrda sahna ko'rinishidek o'tardi, hamma darsdan mamnun edi. O'quv semestri oxirida yakuniy imtihonda talabalarning fanga oid amaliy ko'nikmalari baholandi. "A" guruh a'lo darajada natija qayd etdi. "B" guruh esa umumiy jihatdan yaxshi natija qayd etilmadi.

Yuqoridagi vaziyatdan kelib chiqib, quyidagi savollarga javob toping.

1. "A" guruhining yuqori natija ko'rsatishiga sabab nima deb o'ylaysiz?
2. "B" guruhda darsni tashkil etish va baholash jarayonida qanday pedagogik xatoliklarga yo'l qo'yildi?
3. Ushbu vaziyatda "ta'lim maqsadi – o'qitish – baholash" bilan bog'liq qanday muammo namoyon bo'lmoqda va u o'quvchilarning natijalariga qanday ta'sir ko'rsatgan bo'lishi mumkin?

ADABIYOTLAR

1. Turnbull, J. M. (1989). What is... normative versus criterion-referenced assessment. *Medical teacher*, 11(2), 145-150.
2. Ahmet Salih Şimşek. Tanılayıcı Biçimlendirici Düzey Belirleyici Değerlendirme Mutlak ve Bağlı Ölçüt. [<https://www.youtube.com/watch?v=lOvl41CdZJE&t=839s>]
3. Lorrie Shepard. Norm-referenced vs. criterion-referenced tests Vol. 58, No. 1, Current issues in student assessment (FALL 1979), pp. 26-32 (7 pages)
4. Lok, B., McNaught, C., & Young, K. (2016). Criterion-referenced and norm-referenced assessments: compatibility and complementarity. *Assessment & Evaluation in Higher Education*, 41(3), 450-465.

3.7. Qog'ozli va raqamlashgan baholash

Baholash jarayoni qanday shaklda o'tkazilishiga ko'ra ikki xil baholash farqlanadi: qog'ozli va raqamlashgan baholash.

Qog'oz shaklda o'tkaziladigan baholash. Bunda imtihon materiallari qog'ozda chop etiladi. Test topshiruvchilar imtihon materiallarini qog'oz shaklda o'qib, ularga javob belgilaydi. Bunday yondashuvda test topshiriqlar oldindan belgilab qo'yilgan ketma-ketlikda taqdim etiladi. Shuning uchun bunday imtihonlarda foydalaniladigan baholash vositalari "chiziqli testlar" deb ataladi.

Raqamlashgan baholash. Bunda imtihon materiallari qog'ozda chop etilmaydi, balki raqamli qurilmalar ekranida paydo bo'ladi, imtihon topshiruvchilar ularni bajarishadi. Bunda test topshiriqlari oldindan belgilangan ketma-ketlik asosida yoki adaptiv tarzda taqdim etiladi.

3.6-jadval

Qog'oz shaklda o'tkaziladigan va raqamlashgan baholashlarning farqlari

T/R	Qog'oz shaklda o'tkaziladigan baholash	Raqamlashgan baholash
1.	"Chiziqli testlar" dan foydalaniladi.	"Chiziqli yoki adaptiv testlar" dan foydalaniladi.
2.	Natijalarni tekshirish uzoq vaqt talab etadi.	Natijalarni avtomatlashgan tarzda tekshirish mumkin.
3.	Nisbatan xavfsiz, odatda imtihon natijalariga tashqi omillar ta'sir qila olmaydi.	Imtihon natijalariga tashqi omillar ta'sir qilishi mumkin. Masalan, elektr yo'qligi, internet pastligi v.b.



Mustahkamlash.

Quyidagi savollarga birma-bir og'zaki javob bering hamda keys topshiriqlarini guruhdoshlaringiz bilan muhokama qilib mavzuni mustahkamlang.



SAVOLLAR

1. Qog'oz shaklda olinadigan imtihonlarning qulayligi va noqulayliklari nimada?
2. Raqamlashgan tarzda olinadigan imtihonlarning qulayligi va noqulayligi nimada?
3. Qog'oz shaklda o'tkaziladigan va raqamlashgan baholashlarning farqlari nimada?
4. O'zbekiston ta'lim kontekstida raqamli baholash bilan bog'liq qanday muammolar mavjud?
5. O'zbekistondagi maktab ta'limda qog'ozli baholash bilan bog'liq qanday muammolar mavjud?



KEYS

Quyidagi ta'limiy vaziyatni o'qing va savolga munosabatingizni bildiring.

Olis qishloq hududlardan birining maktab direktori ta'lim sifati bo'yicha ichki monitoring o'tkazmoqchi bo'ldi. Monitoringda o'quvchilarning biologiya va kimyo fanlaridan bilim va malakalarini baholash maqsad qilindi, chunki maktabda mazkur fanlardan ta'lim sifati yuqori edi. Maktab yangi qurilganligi va ilk marotaba kompyuterlar bilan ta'minlanganligi uchun direktor imtihonni avtomatlashgan tarzda kompyuterda olishni rejalashtirdi. Buning uchun

barcha sharoitlarni yaratdi, testlar va so'rovnomalar bankini shakllantirdi. Shundan so'ng monitoring sinovini o'tkazdi. Qisqa vaqt ichida imtihon natijalari e'lon qilindi. Natijalari yomon edi. Natijalarni yaxshilash yuzasidan fan o'qituvchilariga tavsiyalar berildi. Biroq bu o'qituvchilar e'tiroziga sabab bo'ldi. Ular o'quvchilarining natijasi yaxshi ekanligini, olimpiada va tashqi imtihonlarda yuqori natija ko'rsatayotganliklarini aytishdi.

Yuqoridagi vaziyatdan kelib quyidagi savollarga javob toping.

1. Monitoringda biologiya va kimyo fanlaridan sinov o'tkazildi, buning boisi nimada deb o'ylaysiz?
2. Fan o'qituvchilarining e'tirozi asosli edimi, nima uchun?
3. Ushbu vaziyatda maktab direktori baholash jarayonini tashkil etishda qanday xatolikka yo'l qo'ydi, bu natijalarga qanday ta'sir ko'rsatgan bo'lishi mumkin?

ADABIYOTLAR

1. Skalka, J., Drlík, M., & Obonya, J. (2019, April). Automated assessment in learning and teaching programming languages using virtual learning environment. In *2019 IEEE global engineering education conference (EDUCON)* (pp. 689-697). IEEE.
2. Paiva, J. C., Leal, J. P., & Figueira, Á. (2022). Automated assessment in computer science education: A state-of-the-art review. *ACM Transactions on Computing Education (TOCE)*, 22 (3), 1-40.
3. Higgins, C. A., Gray, G., Symeonidis, P., & Tsintsifas, A. (2005). Automated assessment and experiences of teaching programming. *Journal on Educational Resources in Computing (JERIC)*, 5(3), 5-es.

IV. TA'LIMDA BAHOLASH VOSITALARI

4.1. Test topshirig'i va uning turlari

Baholash vositalari – ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va qobiliyatlarining rivojlanganlik darajasini tekshirishda foydalaniladigan materiallar, topshiriqlar va ularning majmui. Shuningdek, baholashda foydalaniladigan vositalar “test topshiriqlari” deb ham ataladi. Test so'zi quyidagi ma'noda qo'llanadi:

Test (*ing: sinov, tekshirish*) – savollar yoki amaliy harakatlardan orqali kimdir nimani bilishini yoki biror narsa qila olishini aniqlash usuli.¹

Umuman, test ta'lim oluvchilarning bilim va ko'nikmalarining shakllanganlik darajasini baholashda qo'llanadigan har qanday topshiriq yoki topshiriqlar majmuidir. Testlarni o'rganadigan fan *testologiya* deb ataladi.

Test topshiriqlari mazmunining qamroviga ko'ra ikkiga bo'linadi²:

1. *Muvaffaqiyat testlari.*

2. *Egallash testlari.*

Muvaffaqiyat testlari – ta'lim oluvchining aniq o'quv materialini o'zlashtirish darajasini baholash uchun ishlatiladigan topshiriqlar.

Egallash testlari – ta'lim oluvchining belgilangan ko'nikma va qobiliyatlarni egallash darajasini baholash uchun ishlatiladigan topshiriqlar.

¹ <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/test>

² Jalilov K. Baholash nazariyasi asoslari. –Toshkent, Akadernashr, 2020, 31-bet.

4.1-jadval

Muvaffaqiyat va egallash testlari farqi

TUSHUNCHA/ YONDASHUV	MUVAFFAQIYAT TESTLARI	EGALLASH TESTLARI
TESTLARI	Ta'lim oluvchining akademik bilimini tekshiradi.	Ta'lim oluvchining akademik bilimni real dunyoda qo'llay olishini tekshiradi
YONDASHUV	Ta'lim oluvchining o'rganganlarini kontekstdan tashqarida tekshiradi.	Ta'lim oluvchining o'rganganlarini kontekst yordamida tekshiradi.
MANBA	Topshiriqlar o'qitish jarayonida foydalanilayotgan o'quv materiallari, darslik, o'quv qo'llanmalar va boshqalar asosida tuziladi.	Topshiriqlar o'qitish jarayonida foydalanilayotgan o'quv dasturiga tayanib tuziladi. Aniq bitta darslikka yoki o'quv qo'llanmagan tayanilmaydi.
NATIJA	Qisqa vaqtda unutiladigan sayoz ta'limga erishiladi.	To'liq o'zlashtiriladigan chuqur ta'limga erishiladi.

Shuningdek, test topshiriqlari varianti qanday topshiriqlardan shakllantirilganligiga ko'ra ham bir qator guruhlariga ajratiladi.

Testni bajarish uchun ajratilgan vaqtga ko'ra testlar uch guruhga bo'linadi: **tezkor test, kuchli test va aralash test.**³

Tezkor test – bunda test topshirish vaqti qat'iy cheklangan bo'ladi, testga qiyinchilik darajasi bir xil (yoki bir-biriga juda yaqin) bo'lgan topshiriqlar kiritiladi, odatda, barcha topshiriqlarga bir xil ball beriladi, test topshiruvchining natijasi to'g'ri javoblar soniga bog'liq bo'ladi.

³ Jalilov K. Baholash nazariyasi asoslari. –Toshkent, Akademnashr, 2020, 33-bet.

Kuchli test – bunda test topshirish vaqti qat'iy cheklangan bo'lmaydi, testga murakkab topshiriqlar kiritiladi va test topshiruvchining natijasi nafaqat to'g'ri javoblar soni, balki topshiriqlarning qanday yechilganligiga ham bog'liq bo'ladi.

Aralash test – bunday testlarda tezkor test va kuchli testlarning xususiyatlari birlashtiriladi: testga turli murakkablikdagi topshiriqlar kiritiladi va test uchun ajratilgan vaqt cheklangan bo'ladi, test topshiruvchining natijasi to'g'ri javoblar soniga bog'liq bo'ladi.

Topshiriqlar variantidagi testlar mazmuniy qamroviga ko'ra ikki guruhga bo'linadi: ***gomogen test va geterogen test***.⁴

Gomogen test – faqat bir fan sohasi bo'yicha test topshiriqlaridan iborat bo'ladi.

Geterogen test – bir nechta turdosh fanlar sohalari bo'yicha test topshiriqlaridan iborat bo'ladi.

Topshiriqlar variantidagi testlar shakliga ko'ra ikki guruhga bo'linadi: ***monomorf test va polimorf test***.⁵

Monomorf test – faqat bir turdagi test topshiriqlarini o'z ichiga oladi, yoki ochiq testlardan, yoki yopiq testlardan iborat bo'ladi.

Polimorf test – har xil turdagi test topshiriqlarini o'z ichiga oladi. Ya'ni variantda ham ochiq, ham yopiq testlar mavjud bo'ladi.

Variandagi topshiriqlar ssenariysiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi: ***chiziqli test va adaptiv test***.⁶

Chiziqli test – topshiriqlar variantida oldindan belgilab qo'yilgan tartibda testlar joylashtiriladi va hamma topshiruvchi uchun bir xil bo'ladi.

⁴ O'sha manba 33-bet

⁵ O'sha manba 34-bet

⁶ O'sha manba 34-bet

Adaptiv test – har bir o'quvchiga individual yondashish imkonini beradigan avtomatlashtirilgan testlar.

Quyida ularning farqi berilgan.

4.2-jadval

Chiziqli va adaptiv testlar farqi

TUSHUNCHA/ YONDASHUV	CHIZIQLI TESTLAR	ADAPTIV TESTLAR
TESTLAR KETMA- KETLIGI	Test topshiruvchilarning barchasi uchun bir xil tartibda joylashtirilgan variant taqdim etiladi. Testlar ketma-ketligi o'zgarmas bo'ladi.	Test topshiruvchilarning har biri uchun salohiyati darajasiga mos tarzda topshiriqlar varianti taqdim etiladi. Testlar ketma-ketligi moslashuvchan bo'ladi.
O'TKAZILISH SHAKLI	Asosan, qog'ozda, shuningdek, kompyuterda o'tkaziladi.	Faqat kompyuterda avtomatlashtirilgan tarzda o'tkaziladi.
YONDASHUV	Umumiy yondashiladi.	Individual yondashiladi.
NATIJA	Umumiy natija aniqlanadi. Test topshiruvchining testdan olgan bali uning haqiqiy natijasi bilan teng bo'lmasligi ehtimoli yuqori.	Haqiqiy natija aniqlanadi. Test topshiruvchining testdan olgan bali uning haqiqiy natijasi bilan teng bo'ladi.

Test topshiriqlari ifoda shakliga ko'ra uchga bo'linadi⁷:

1. *Yopiq test.*
2. *Ochiq test.*
3. *Amaliy topshiriq.*

Test topshiriqlarning bu turlari haqida keyingi fasllarda batafsil ma'lumot beramiz.

⁷ Jalilov K. Baholash nazariyasi asoslari. –Toshkent, Akademnashr, 2020, 15-bet.



Mustahkamlash.

Quyidagi savollarga birma-bir og'zaki javob bering hamda keys topshiriqlarini tengqurlaringiz bilan muhokama qilib mavzuni mustahkamlang.



SAVOLLAR

1. Kuchli, aralash va tezkor testlar haqida ma'lumot bering.
2. Monomorf va polimorf testlar haqida ma'lumot bering.
3. Adaptiv va chiziqli testlar haqida ma'lumot bering.
4. Egallash va muvaffaqiyat testlari haqida ma'lumot bering.
5. O'zbekiston ta'lim kontekstida test topshiriqlaridan foydalanish bo'yicha qanday muammolar mavjud?



KEYS

Quyidagi ta'limiy vaziyatni o'qing va savolga munosabatingizni bildiring.

Test tuzuvchi tomonidan baholash spetsifikatsiyasi asosida o'quvchilarning matematikani bilish darajasini aniqlash maqsadida 30 ta savoldan iborat test topshiriqlarining namunaviy varianti tuzildi. Testlar nazariy jihatdan oson, o'rta va qiyin darajalarga ajratildi va har biri uchun 3.1 ball bilan baholanishi belgilandi. Test topshiriqlari tarkibida yopiq testlar ham mavjud edi. Yopiq testlarning muqobil javoblari tarkibida "to'g'ri javob yo'q" va "barcha javoblar to'g'ri" degan variantlar ham uchraydi. Ushbu variant asosida imtihon o'tkazildi va o'quvchilarning qariyb yarmi topshiriqlarning uchdan birini ham bajara olishmadi.

Yuqoridagi vaziyatdan kelib chiqib quyidagi savollarga javob toping.

1. Ushbu vaziyatda test tuzuvchi qanday turdagi topshiriqlar namunalarini ishlab chiqdi?
2. Ushbu vaziyatda yopiq testlarni shakllantirish bo'yicha qanday xatolikka yo'l qo'yildi?
3. Ushbu vaziyatda test tuzuvchi yana qanday xatoga yo'l qo'ydi, bu natijalarga qanday ta'sir ko'rsatgan bo'lishi mumkin?

ADABIYOTLAR

1. Jalilov K. (2022) Baholash nazariyasi asoslari. Toshkent. Akademnashr nashriyoti.
2. M.Sh. Zikirova, N.N.Ermatova. (2018) Test tuzish metodikasi va ekspertizasi. Toshkent. Davlat test markazi.
3. American Educational Research Association, American Psychological Association, & National Council on Measurement in Education. (1985). Standards for educational and psychological testing. (No Title).
4. Standards for Educational and Psychological Testing. (2014) Published by the American Educational Research Association. 230 p.
5. A.Солижонов. (2009) Тест ўзи нима? Toshkent. Davlat test markazi.

4.2. Yopiq test va unga qo'yilgan talablar

Yopiq test – berilgan javob variantlaridan to'g'risini tanlashni talab qiladigan topshiriq.

Uning quyidagi turlari farqlanadi:

- “binar” test topshirig’i;
- to’g’ri javobi bitta bo’lgan muqobil javobli test;
- to’g’ri javobi bir nechta bo’lgan muqobil javobli test;
- moslashtirishni talab qiladigan muqobil javobli test;
- ketma-ketlikni aniqlovchi muqobil javobli test;
- gradual test topshirig’i.

Yopiq test ikki qismdan iborat bo’ladi (4.1-rasmga qarang):


a) o’zak qism;

b) javob variantlari.

Testning o’zak qismi – test topshirig’ining savol qismi hisoblanadi.

Testning javob variantlari qismi – test topshirig’ining javob variantlari hisoblanadi. U ikkiga bo’linadi: *to’g’ri javob va distraktorlar*.

Distraktorlar – testning to’g’ri javobiga yaqin bo’lgan chalg’ituvchi variantlari.



4.1-rasm: yopiq testning tuzilishi.

Yopiq testlar uslubiga ko'ra uch guruhga ajratiladi (4.2-rasmga qarang).



4.2-rasm: yopiq test topshiriqlari metodikasi

Ushbu topshiriq turlarini birma-bir tushuntiramiz. Muqobil javobli yopiq testlar deb savolda uch va undan ortiq muqobil javob variantlari taqdim etiladigan topshiriqlarga aytiladi. Buni quyidagi topshiriqlar orqali izohlaymiz.

	MADINA	MUHOKAMANI BOSHLOVCHI	Yuborildi: 28-oktabr 18:12
Hammaga salom, Tovug'imga aspirin bersam bo'ladimi? U 2 yoshda, mening fikrimcha u oyog'ini shikastlab olgan. Dushanba kungacha veterinarga olib bora olmayman, shuningdek, veterinar ham qo'ng'iroqqa javob bermayapti. Tovug'imda og'riq kuchliga o'xshaydi. Uni veterinarga olib borgunimga qadar og'riqsizlantiruvchi biror narsa bermoqchiman. Yordamingiz uchun rahmat.			
	NILUFAR		Yuborildi: 28-oktabr 18:36
Aspirin tovuqlar uchun xavfsiz yoki xavfliligini bilmayman. Men qushlarimga biror dorini berishdan oldin veterinaram bilan maslahatlashaman. Bilishimcha, inson sog'ligi uchun xavfsiz bo'lgan ba'zi dorilar qushlar uchun juda xavfli bo'lishi mumkin.			
	MARYAM		Yuborildi: 28-oktabr 18:51
Tovuqlarimdan biri shikastlanganda men unga aspirin berganman. Hech qanday muammo bo'lmagan. Keyingi kuni men veterinarga bormaganman, tovuq'im yaxshi bo'lib qolgan edi. Menimcha, agar dorini juda ko'p bersangiz xavfli bo'lishi mumkin. Shuning uchun belgilangan dozadan ko'p bermang. U yaxshi bo'lib ketadi, deb umid qilaman!			
	DILMUROD		Yuborildi: 28-oktabr 19:07

BOBUR

Yuborildi: 28-oktabr 19:15

Jo'ja kasal ekanligini qanday bilsam bo'ladi, kim ayta oladi? Rahmat

FARRUX

Yuborildi: 28-oktabr 19:21

Salom Madina

Men qushlar veterinariyman. Shikastlangan parrandalarga, agarda ularda og'riq belgilari kuzatilayotgan bo'lsa aspirin bersa bo'ladi. Men qushlarga aspirin yozayotganimda "Klinikal Avian Medicin"da nashr etilgan yo'riqnomaga amal qilaman. Jo'jalar tana vaznidagi har bir kg uchun 5 mg aspirin qabul qiladilar. Siz veterinar qabuliga borguningizcha tovuqqa bir kunda 3–4 mahal aspirin berishingiz mumkin. Veterinar maslahatiga amal qilish juda muhim. Omad!

Quyidagi onlayn chat guruhda bo'lgan muhokamalarni o'qing va 1–3- savollarga javob bering.

1. [Q] Nima uchun Madina chat guruhda savol joylashga qaror qildi?

- A) Chunki u veterinarni qanday topishni bilmagan edi.
- B) Chunki u tovuqdagi muammoni jiddiy deb o'ylamadi.
- C) Chunki u tovug'iga imkon qadar tez yordam bermoqchi edi.
- D) Chunki uning veterinarga borish uchun mablag'i yo'q.

Ushbu birinchi topshiriq muqobil javobli yopiq test hisoblanadi. Mazkur turdagi topshiriqlarda to'g'ri javob bitta yoki bir nechta bo'lishi mumkin. Agarda topshiriqda bir nechta to'g'ri javob bo'lsa, test topshiruvchiga muqobil javoblardan aynan nechtasining to'g'ri javob deb belgilashlari eslatiladi.

Quyida binar test topshirig'ini ko'rib o'tamiz.

2. [B] Muhokamada keltirilgan ba'zi izohlar mavzuga mos, ba'zilari esa mos emas. Jadvaldagi xabarlar Madina xabariga mos ekanligini ko'rsatish uchun "HA" yoki "YO'Q" dan birini belgilang.

Madinaning xabariga mosmi?	HA	YO'Q
Nilufarning xabari		
Maryamning xabari		

<i>Dilmurodning xabari</i>		
<i>Boburning xabari</i>		
<i>Farruxning xabari</i>		

Ushbu topshiriq binar test topshirig'i hisoblanadi. Mazkur turdagi topshiriqlarda *ha/yo'q yoki to'g'ri/noto'g'ri* javobni belgilashni talab etadi. Baholash jarayonida bir nechta binar topshiriqni bitta test topshirig'i sifatida berish maqsadga muvofiq. Chunki binar testda ikkita javob variant bo'lgani uchun taxminan to'g'ri javobni belgilash ehtimoli yuqori bo'ladi. Shuningdek, baholash mezonini ishlab chiqishda mazkur topshiriqlarning har biri uchun muayyan darajada ball belgilanadi. Masalan, yuqoridagi test topshirig'ida beshta binar test mavjud, ularning har biri 0,2 ball bilan baholansa, umumiy 1 ball sifatida belgilash mumkin bo'ladi. Keyingi topshirig'imiz moslashtirish testi hisoblanadi.

3. [X] Quyidagi jadvalda berilgan xabar muallifi va uning maqsadlarini moslashtiring. Jadvaldagi a, b, s, d javob variantlaridan bittasi ortiqcha.

Xabar muallifi	Maqsad
I. Bobur	a) Chatda biznesini rivojlantirish uchun xabar qoldirdi.
II. Maryam	b) Chatda tovug'ining kasal ekanligini qanday bilish mumkinligini aniqlash uchun xabar qoldirdi.
III. Dilmurod	s) Chatda shikastlangan tovuqqa aspirin berish mumkin yoki mumkin emasligini bilish uchun xabar qoldirdi.
	d) Chatda shikastlangan tovuqqa aspirin berish borasida ijobiy tajriba borligini ma'lum qilish maqsadida xabar qoldirdi.

- A) I-b; II-d; III-a.
- B) I-a; II-d; III-s.
- C) I-b; II-d; III-s.
- D) I-a; II-d; III-b.

Ushbu turdagi moslashtirish topshiriqlari yordamida yuqori kognitiv ko'nikmalarni baholash mumkin. Shuning uchun, ushbu turdagi topshiriqlarda muqobil javobli testlarga nisbatan yuksakroq ball bilan baholanishi lozim. Shuningdek, Ushbu topshiriqlarni shakllantirishda moslashtiriladigan jihatlar teng miqdorda bo'lmashligi, distraktorlar ham berilishi maqsadga muvofiq.

Yopiq test topshiriqlariga qo'yilgan talablar:

Yopiq testlarni shakllantirayotganda quyidagi mazmuniy va grammatik talablarni inobatga olish lozim:

- *har bir topshiriq test spetsifikatsiyasiga muvofiq bo'lishi;*
- *topshiriq o'lchanayotgan mazmunning konkret bir elementini baholashi;*
- *topshiriq umumiy yoki iker-chikir detallarga asoslanmasligi, balki muhim va kerakli bo'lgan bilim va ko'nikmalarni baholashi;*
- *har bir topshiriq uchun belgilangan ball topshiriq qiyinligi va mazmuniga mos bo'lishi;*
- *har bir topshiriq mustaqil bo'lishi, ya'ni testda ishlatilgan bir test topshirig'i xuddi shu testdagi boshqa test topshirig'ining javobini topishga yordam bermasligi;*
- *topshiriqda ishlatilgan ma'lumotlar, misollar va namunalar darsliklarda aynan keltirilgan bo'lmashligi, balki yangi materiallardan shakllantirilishi;*
- *topshiriq mazmuni subyektiv bahoga asoslanmasligi, ya'ni faqat test tuzuvchiga ma'lum bo'lgan yoki uning shaxsiy qarashiga mos bo'lgan mazmunda bo'lmashligi;*
- *topshiriqning savol qismi ko'plab elementlarni hal etishni talab etmasligi;*
- *topshiriqda muammo aniq ifodalanishi, test topshiruvchi uchun tushunarli, sodda va ravon tilda yozilishi, har kim turlicha tushunishga olib kelmasligi;*

- test topshirig'ining savol qismida inkor so'zlarni ishlatmaslikka harakat qilinishi, agarda ishlatilsa, ajratib ko'rsatilishi;
- topshiriq o'zagi imkon qadar qisqa, lo'nda, ortiqcha ma'lumotlardan xoli bo'lishi;
- topshiriq grammatik, uslubiy, imloviy, ishoraviy, texnik xatolardan xoli bo'lishi kerak.

Yopiq testning muqobil javoblarini shakllantirayotganda quyidagilarni ham e'tiborga olish lozim:

- muqobil javoblar uchtdan kam bo'lmasligi;
- muqobil javoblardan faqat bittasi to'g'ri javob bo'lishi;
- testda to'g'ri javoblar turli o'rinlarda joylashishi, ya'ni faqat "a" yoki "b" variant to'g'ri bo'lmasligi;
- muqobil javoblar mantiqiy ketma-ketlikda joylashtirilishi;
- muqobil javoblar ma'no jihatidan bir-birini qamrab olmasligi;
- muqobil javoblar bir xil grammatik shaklda bo'lishi;
- muqobil javoblar ma'no jihatidan yaqin bo'lishi;
- muqobil javoblarning uzunligi bir-biriga yaqin bo'lishi;
- "javoblarning barchasi to'g'ri", "to'g'ri javob yo'q", "A va B javoblar to'g'ri" singari muqobil javoblardan foydalanmaslik;
- to'g'ri javobda (kalitda) "doim", "hech qachon", "juda" singari so'zlardan foydalanmaslik;
- chalg'ituvchi muqobil javoblar asosli tanlanishi, ya'ni o'quvchi yo'l qo'yadigan xatolarga asosanib shakllantirilishi kerak.



Mustahkamlash.

Quyidagi savollarga birma-bir og'zaki javob bering hamda keys topshiriqlarini tengqurlaringiz bilan muhokama qilib mavzuni mustahkamlang.



SAVOLLAR

1. Baholash vositalarining shakliga ko'ra turlari haqida ma'lumot bering.
2. Baholash vositalarining mazmuni va qamroviga ko'ra turlari haqida ma'lumot bering.
3. Yopiq test va uning tuzilishi haqida ma'lumot bering.
4. Muqobil javobli test, binar test va moslashtirish testlarining farqi haqida ma'lumot bering.
5. O'zbekiston ta'lim kontekstida yopiq test topshiriqlarini shakllantirish bilan bog'liq qanday muammolar mavjud?



KEYS

Quyidagi ta'limiy vaziyatni o'qing va savolga munosabatingizni bildiring.

O'qituvchi talablarga test topshirig'i tuzishni vazifa sifatida berdi. Bir talaba quyidagi topshiriqni tuzdi.

Asosida tovush almashish hodisasi ro'y bergan so'z qatnashgan gapni toping.

A) Birdan yomg'ir yog'ib, tarnovlardan shovullab suv oqa boshladi.

B) Hatto eng baland tog' ham quyoshni to'solmas.

C) Salimjon qilgan ishidan uyalib, qizarib ketdi.

D) Derazamning oldida o'rik gulladi.

Yuqoridagi vaziyatdan kelib quyidagi savollarga javob toping.

1. Talaba ushbu topshiriqni shakllantirishda yopiq testning o'zagiga qo'yilgan talablarning qaysilariga amal qilmagan?

2. Talaba ushbu topshiriqni shakllantirishda yopiq testning muqobil javoblarga qo'yilgan talablarning qaysilariga amal qilmagan?
3. Ushbu vaziyatdagi bu kabi xatoliklarga yo'l qo'yish qanday oqibatlariga olib keladi?

ADABIYOTLAR

1. Jalilov K. (2022) Baholash nazariyasi asoslari. Toshkent. Akademya nashriyoti.
2. Асимова Г.А. (1998) Умумий ўрта таълимда танлаш усулидаги тестлардан фойдаланишнинг педагогик шарт-шароитлари: пед.фан. номз. ... дис. Тошкент.
3. American Educational Research Association, American Psychological Association, & National Council on Measurement in Education. (1985). Standards for educational and psychological testing. (No Title).
4. Standards for Educational and Psychological Testing. (2014) Published by the American Educational Research Association. 230 p.
5. А.Солижонов. (2009) Тест ўзи нима? Toshkent. Davlat test markazi.

4.3. Ochiq test va unga qo'yilgan talablar

Test topshiriqlarining yana bir turi ochiq testlar.

Ochiq test – javob beruvchi kishi berilgan savollarga to'liq yoki qisqa matn shaklida javob beradi. Ochiq testlar odatda subyektiv baholashni talab qiladi, chunki javoblar oldindan belgilangan variantlar o'rniga aniq shakllantiriladi. Bu testlar ko'pincha yuqori darajadagi kognitiv ko'nikmalarni tekshirish, masalan, tahlil qilish, sintez qilish va asoslash kabi maqsadlar uchun ishlatiladi.

Uning quyidagi turlari farqlanadi:

- *qisqa javobli ochiq test*;
- *kengaytirilgan javobli ochiq test (yozma ishlar)*;

Ushbu topshiriq turlarini birma-bir ko'rib chiqsak. Avvalo, qisqa javob yozishni talab qiladigan test topshirig'i haqida to'xtalamiz.

Qisqa javobli ochiq test. Bu topshiriqlarda savolga test topshiruvchilar qisqa, ko'pincha bir yoki bir necha jumla yoki kalit so'zlar bilan javob beradi. Bu test turi aniqlik va lo'ndalikni talab qiladi. Bu testlar ko'pincha faktlar, ta'riflar yoki oddiy tushunchalarni bilishni sinashda qo'llanadi. Biroq ular yordamida tahlil va muammoni hal qilish ko'nikmalarini ham baholash mumkin.

1. [Q] Nima uchun Farrux Madinaning tovug'i uchun aniq bir miqdordagi aspirinni tavsiya qila olmaydi?

Javob: _____

Mazkur topshiriq ham avvalgi darsda berilgan forumdagi suhbatasosida tuzilgan. Bunda o'quvchiga to'g'ri javobni topishi uchun muqobil javob taklif etilmaydi. Ushbu turdagi topshiriqlarni malakali mutaxassislar yordamida baholanishi maqsadga muvofiq. Chunki to'g'ri javobga ma'nodosh, mazmunan yaqin javoblar taqdim etilishi mumkin. Shuningdek, topshiriq sharti

hamma uchun bir xil tushunilishi lozim. Quyida kengaytirilgan javob yozishni talab qiladigan topshiriq bilan tanishamiz.

Qisqa javobni talab qiladigan test topshiriqlarini shakllantirishda quyidagi talablarni inobatga olish lozim:

1. Savollar **aniq va tushunarli bo'lishi** kerak. Bu o'quvchining qanday javob kutilayotganini yaxshi anglashiga yordam beradi. Chalkash yoki ko'p ma'noli savollar noto'g'ri javoblar va noto'g'ri baholashga olib kelishi mumkin. Jumladan,

O'zbekiston Respublikasining poytaxti qayer?

Javob: _____

2. Topshiriqni **so'roq gap shaklida** ifodalash maqsadga muvofiq. **To'liqsiz gap shaklida** ham bo'lishi mumkin. Jumladan,

O'zbekiston Respublikasining poytaxti - _____ shahri.

Javob: _____

3. Topshiriq shunday tuzilishi kerakki, **qisqa, lo'nda javob** (bir yoki bir nechtagacha so'z, so'z birikmasi, raqam, simvol, formula) talab qilsin.

4. Qisqa javobli testlar **ko'p vaqt talab qilmasligi** kerak. Talaba savolga tez va lo'nda javob berishga ulgurishi uchun savollar mos ravishda tuzilishi lozim.

Kengaytirilgan javobli ochiq test – o'quvchilardan ko'proq ma'lumot, batafsil tushuntirish va tahliliy yondashuv talab qiladigan test turi hisoblanadi. Ular o'quvchining faqat bilimlarini qayta bayon qilishini emas, balki bu bilimlarni tahlil qilish, daillash va kengroq izohlash ko'nikmalarini sinaydi. Bu savollar yuqori darajadagi kognitiv ko'nikmalarni baholashda, masalan, sintez, tahlil qilish, baholash va kreativlik ko'nikmalarini o'lchashda keng qo'llanadi. Shuningdek, bu tipdagi topshiriqlar o'quvchilarda ijodkorlikni, kritik fikrlashini talab etadi. Quyida shunday topshiriq namunasini tahlil qilamiz.

2. [K] Argumentli esse yozish.

Ba'zilar kasb tanlashda ota-onasining kasbini tanlagan ma'qul, deb hisoblashadi, boshqalar esa inson o'zi yaxshi ko'rgan kasbda ishlashi kerak, deb hisoblashadi.

Ushbu vaziyatga munosabatingizni yozma bayon qiling:

- ijodiy matnni esse talablari bo'yicha yozing;
- fikrlaringizni izchil va savodli ifodalang;
- har ikki tushunchani izohlang;
- bu tushunchalar haqida o'z pozitsiyangizni asoslang.

Javob: _____

Mazkur turdagi topshiriqlar ham batafsil javob yozishni talab etadi. Ushbu topshiriqlar orqali o'quvchilarning metakognitiv ko'nikmalari, kreativlik, kritik fikrlash kabi ko'nikmalari ham baholanadi. Baholash domenidan kelib chiqqan holda kengaytirilgan javob yozishni talab qiladigan topshiriqlarning mazmuniy va hajmiy chegaralar belgilanadi.

Kengaytirilgan javobni talab qiladigan test topshiriqlarini shakllantirishda quyidagi talablarni inobatga olish lozim:

1. Savollar aniq shakllantirilishi va topshiriq shartida o'quvchidan qaysi bilim, ko'nikma yoki qobiliyat talab qilinayotganini aniq qilib ko'rsatishi kerak.
2. Kengaytirilgan javobli ochiq testlarda baholash mezonlari aniq belgilanishi kerak.
3. Topshiriqlar orqali baholanadigan ko'nikmalar muhim va hayotiy bo'lishi lozim.
4. Topshiriq shartida test topshiruvchidan nima talab qilinayotganligi (hajmiy va mazmuniy chegaralari) aniq berilishi, unga ma'lum bir yo'nalish ko'rsatilishi zarur.
5. Javob test topshiruvchidan mustaqil fikrlash va o'z nuqtayi nazarini asoslash, mantiqiylik va ijodiy yondashuvni talab etishi kerak.

6. Har bir topshiriqqa beriladigan maksimal ball va topshiriqni bajarish uchun ajratilgan vaqt ko'rsatilishi kerak.
7. O'quvchiga javobni yozish uchun yetarli vaqt berilishi kerak, chunki keng javobli savollar ko'pincha ko'proq vaqt talab qiladi.

Umuman, kengaytirilgan javobli ochiq test o'quvchilarning yuqori darajadagi fikrlash qobiliyatlarini baholashda samarali vosita hisoblanadi. Bu savollar o'quvchilar o'rtasida chuqur tahlil qilish, mustaqil fikr bildirish va o'z fikrni asoslay olish ko'nikmalarini shakllantirishda yordam beradi.



Mustahkamlash.

Quyidagi savollarga birma-bir og'zaki javob bering hamda keys topshiriqlarini tengqurlaringiz bilan muhokama qilib mavzuni mustahkamlang.



SAVOLLAR

1. Qisqa javobli ochiq testlarning afzalliklari va kamchiliklari haqida ma'lumot bering.
2. Kengaytirilgan javobli ochiq testlarning afzalliklari va kamchiliklari haqida ma'lumot bering.
3. Qisqa javobli ochiq testlarga qo'yilgan talablar haqida ma'lumot bering.
4. Kengaytirilgan javobli ochiq testlarga qo'yilgan talablar haqida ma'lumot bering.
5. O'zbekiston ta'lim kontekstida ochiq test topshiriqlaridan foydalanish bilan bog'liq qanday muammolar mavjud?



KEYS

Quyidagi ta'limiy vaziyatni o'qing va savolga munosabatingizni bildiring.

Ona tili fani o'qituvchisi o'quvchilariga ochiq test topshirig'i tuzishni vazifa sifatida berdi. Bir o'quvchi quyidagi 3 ta topshiriqni tuzdi.

1. _____ – o'zbek adabiy tilining asoschisi.

Javob: _____

2. Ona vatan muqaddas!

3. Ot so'z turkumining grammatik xususiyatlari

Yuqoridagi vaziyatdan kelib quyidagi savollarga javob toping.

1. O'quvchi birinchi topshiriqni shakllantirishda qanday xatoliklarga yo'l qo'yg'an?

2. O'quvchi ikkinchi topshiriqni shakllantirishda qanday xatoliklarga yo'l qo'yg'an?

3. O'quvchi uchinchi topshiriqni shakllantirishda qanday xatoliklarga yo'l qo'yg'an?

ADABIYOTLAR

1. Jalilov K. (2022) Baholash nazariyasi asoslari. Toshkent. Akademnashr nashriyoti.
2. Husain, H., Bais, B., Hussain, A., & Samad, S. A. (2012). How to construct open ended questions. *Procedia-Social and Behavioral Sciences*, 60, 456-462.
3. American Educational Research Association, American Psychological Association, & National Council on Measurement in Education. (1985). *Standards for educational and psychological testing*. (No Title).
4. *Standards for Educational and Psychological Testing*. (2014) Published by the American Educational Research Association. 230 p.
5. Züll, C. (2016). *Open-ended questions (version 2.0)*.

4.4. Test topshiriqlarining qiyinlik darajasi

Baholash vositalarining qiyinlik darajasi test topshiruvchilarning natijalariga bevosita ta'sir qiladi. Shuning uchun test topshiriqlarini tuzishda buni hisobga olish muhim hisoblanadi. Baholash nazariyasida topshiriqlarning "qiyinlik darajasi" tushunchasi nisbiy tushuncha sifatida qaraladi. Topshiriqning nisbatan eng to'g'ri qiyinlik darajasi tajribas-inov natijalari asosida aniqlanadi. Biroq topshiriqlarni shakllantirishdan oldin test tuzuvchi nazariy jihatdan topshiriqlarning teng kuchlilikini ta'minlash maqsadida har bir daraja uchun muayyan xususiyatlarni belgilab oladi.

Test topshiriqlari o'zining qiyinligiga qarab bir necha darajalarga bo'linadi. Amalda ko'p hollarda test topshiriqlarini tuzishda 3 ta darajadagi qiyinlik qo'llanadi.⁸

Birinchi darajali qiyinlikdagi test topshiriqlari bilib olish, eslash va xotirlash darajasida asosiy tushunchalar o'zlashtirilganligiga, ma'lumotlarni oddiy aks ettiradigan savollarga qaratilgan bo'ladi.

Ikkinchi darajali qiyinlikdagi test topshiriqlari o'ylash, fikr yuritish, mulohaza qilishni talab etadigan, kichik ma'lumotni qamrab oladigan, standart holatlarda bilimlarni qo'llash qobiliyatini aniqlashga qaratilgan bo'ladi.

Uchinchi darajali qiyinlikdagi test topshiriqlari egallanganlarini ijodiy bajarishni talab etadigan va nostandart holatlarda bilimlarini qo'llash qobiliyatini aniqlashga qaratilgan bo'ladi.

So'nggi yillarda testlarning qiyinlik darajasiga qo'yilgan nazariy talablar kognitiv jarayonlarga asoslanish maqsadga muvofiqligi ta'kidlanmoqda. Shunga ko'ra testlarning qiyinlik

⁸ M.Sh. Zakirova, N.N.Ermatova. Test tuzish metodikasi va ekspertizasi. Uslubiy qo'llanma. Davlat test markazi. – Toshkent: 2018. 20-bet

darajasiga qo'yilgan nazariy talabalar quyidagi bo'lishi maqsadga muvofiq⁹:

oson (reproduktiv) – test topshiruvchining *eslab qolish* ko'nikmasini tekshiradigan topshiriqlar;

o'rtacha (produktiv) – test topshiruvchining *tushunish, bilimni qo'llash va tahlil qilish* ko'nikmalarini tekshiradigan topshiriqlar;

qiyin (qisman izlanishli) – test topshiruvchining *baho berish* ko'nikmasini tekshiradigan topshiriqlar;

juda qiyin (kreativ) – test topshiruvchining *yaratish, ijod qilish* ko'nikmalarini tekshiradigan topshiriqlar.

Mazkur darajalar asosida tuzilgan topshiriqlar aynan teng kuchli bo'lmaydi. Shuning uchun aprobatiya natijalarini matematik-statistik tahlil qilish orqali topshiriqlarning qiyinlik darajasi aniqlanadi. Bunda topshiriqni to'g'ri bajarganlarning umumiy test topshiruvchilarga nisbatan ulushiga qarab belgilanadi.

Buni aniqlashda quyidagi formuladan foydalaniladi¹⁰:

$$P = \frac{R}{T}$$

P – test topshirig'ining qiyinlik darajasi.

R – test topshirig'iga to'g'ri javob berganlar soni.

T – test topshirig'ini bajarganlarning umumiy soni.

Test topshiruvchilardan 50% qismi to'g'ri bajargan topshiriqlar normal qiyinlik darajasidagi topshiriqlar sifatida qaraladi. Bunday topshiriqlardan variant shakllantirishda salmoqli foydalanish maqsadga muvofiq.

Shuni ta'kidlash kerakki, test topshiruvchilardan 20% dan kam yoki 80% dan ko'pi to'g'ri bajargan topshiriqlarni baholash jarayonida foydalanish tavsiya etilmaydi.

⁹ Tolipova J. Pedagogik kvalimetriya. O'quv qo'llanma. TDPU. – Toshkent. 2017. 24 bet

¹⁰ Jalilov K. Baholash nazariyasi asoslari. –Toshkent, Akademnashr, 2020, 184-bet.

Bir soʻz bilan aytganda, yuqoridagilar asosida test topshiriqlarining qiyinlik darajasi quyidagicha boʻlishi maqsadga muvofiq.

Test topshiruvchilarning fan boʻyicha oʻzlashtirishini tekshirishda foydalanilgan test topshiriqlarining aprobatsiya natijalariga koʻra qiyinlik darajasi

4.3-jadval

T/R	Topshiriqlarning qiyinlik darajasi	Ishtirokchilardan toʻgʻri javobni topganlar ulushi
1.	juda oson	81-100 foiz
2.	oson	61-80 foiz
3.	oʻrta	41-60 foiz
4.	qiyin	21-40 foiz
5.	juda qiyin	0-20 foiz

Umumiy oʻrta taʼlimda baholash jarayonida “juda oson” va “juda qiyin” topshiriqlardan foydalanish tavsiya etilmaydi.



Mustahkamlash.

Quyidagi savollarga birma-bir ogʻzaki javob bering hamda keys topshiriqlarini tengqurlaringiz bilan muhokama qilib mavzuni mustahkamlang.



SAVOLLAR

1. Testning qiyinlik darajasi va uning belgilash tartibi haqida ma'lumot bering.
2. Reproduktiv test topshiriqlari va ularning afzalliklari va kamchiliklari haqida ma'lumot bering.
3. Produktiv test topshiriqlari va ularning afzalliklari va kamchiliklari haqida ma'lumot bering.
4. Qisman izlanishli test topshiriqlari va ularning afzalliklari va kamchiliklari haqida ma'lumot bering.
5. Kreativ test topshiriqlari va ularning afzalliklari va kamchiliklari haqida ma'lumot bering.



KEYS

Quyidagi ta'limiy vaziyatni o'qing va savolga munosabatingizni bildiring.

Test tuzuvchi tomonidan baholash spetsifikatsiyasi asosida o'quvchilarning matematikani bilish darajasini aniqlash maqsadida 30 ta savoldan iborat test topshiriqlari namunaviy varianti tuzildi. Testlar nazariy jihatdan oson, o'rta va qiyin darajalarga ajratildi va har biri uchun 3.1 ball bilan baholanishi belgilandi. Test topshiriqlari tarkibida yopiq testlar ham mavjud edi. Yopiq testlarning muqobil javoblari tarkibida "to'g'ri javob yo'q" va "barcha javoblar to'g'ri" degan variantlar ham uchraydi. Ushbu variant asosida imtihon o'tkazildi va o'quvchilarning qariyb yarmi topshiriqlarning uchdan birini ham bajara olishmadi.

Yuqoridagi vaziyatdan kelib quyidagi savollarga javob toping.

1. Ushbu vaziyatda test tuzuvchi test topshiriqlarining qiyinlik darajasini belgilash bilan bog'liq qanday xatolikka yo'l qo'ydi?
2. Ushbu vaziyatda yopiq testlar uchun ball belgilashda bog'liq qanday xatolikka yo'l qo'yildi?
3. Ushbu vaziyatdagi kabi xatolikka yo'l qo'yish ta'limda qanday oqibatlarga olib keladi?

ADABIYOTLAR

1. Jalilov K. (2022) Baholash nazariyasi asoslari. Toshkent. Akademnashr nashriyoti.
2. Standards for Educational and Psychological Testing. (2014) Published by the American Educational Research Association. 230 p.
3. Асилова Г.А. (1998) Умумий ўрта таълимда танлаш усулидаги тестлардан фойдаланишнинг педагогик шарт-шароитлари: пед.фан. номз. ... дис. – Тошкент.
4. Tolipova J. (2017) Pedagogik kvalimetriya. O'quv qo'llanma. TDPU. – Toshkent.
5. M.Sh. Zikirova, N.N.Ermatova. (2018) Test tuzish metodikasi va ekspertizasi. Davlat test markazi. Toshkent.

4.5. Baholashda loyiha ishlaridan foydalanish

Ma'lumki, ta'lim oluvchilarning bilim va ko'nikmalari turli baholash instrumentlari yordamida baholanadi. Jumladan, testlar, yozma ishlar, og'zaki taqdimotlar, amaliy ishlar va boshqalar. Shular qatorida, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholashda loyiha ishlaridan ham foydalaniladi. E'tiborli jihat, ushbu baholash instrumenti nafaqat o'quvchilarning bilimlarini, balki mustaqil fikrlash, ijodkorlik, jamoada ishlay olish va


o'z pozitsiyasini bayon eta olish kabi "yumshoq" ko'nikmalarini ham baholashga imkon beradi. Shu bois ham jahon pedagogikasida loyihaga asoslangan ta'lim ommalashmoqda.

Loyiha ishi – o'quvchilardan tadqiqot o'tkazish, muammolarga yechim topish, yangi g'oyalarni taqdim etishni talab etadigan o'quv topshirig'i. Ta'lim jarayonida ulardan faol foydalanish fanlarni real hayotga yaqinlashtiradi va o'quvchilarning darsga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi.

Loyiha turlari. Ta'lim jarayonida loyiha ishlarining bir qator turlaridan foydalaniladi(4.3-rasmga qarang):

Loyiha ishlari taqdim etish shakliga ko'ra amaliy, ilmiy-tadqiqot va innovatsion loyiha ishlariga ajratiladi.

Amaliy loyihalar – hayotiy masalalarni amaliy hal etishga qaratilgan loyihalar. Jumladan, *shaharda jamoat transporti xizmatini yaxshilash, chiqindilardan qushlarga in qurib berish, lug'atlar tayyorlash* kabilar bo'lishi mumkin.



4.3-rasm. Loyiha turlari

Ilmiy-tadqiqot loyihalari – muayyan bir mavzuga oid ilmiy izlanishlarni o'tkazish, nazariy ma'lumotlar to'plash,

tahlil qilish va umumlashtirib, nazariy xulosalar chiqarishdan iborat bo'lgan loyiha ishlari. Jumladan, *O'zbek tilining fonetik xususiyatlari haqida tadqiqot yoki O'zbek tilida fikr bayonida tasviriy ifodalarning roli* kabi mavzularda bo'lishi mumkin.

Innovatsion loyihalar – muayyan hayotiy masalalarni fan-texnologiyalari yutuqlaridan foydalanib innovatsion hal etishga qaratilgan loyihalar. Bunda veb dasturlar, robototexnika, sun'iy intellekt imkoniyatlaridan keng foydalaniladi. Jumladan, *Inson aralashuvisiz ishlovchi darsda tanaffus boshlangani ma'lum qiluvchi tizimni yaratish yoki oson yuklanuvchi hamda o'quvchilarning lug'at boyligini oshiruvchi mikro-mobil o'yinlarini yaratish*.

Loyiha ishlari sohasi va mavzusiga ko'ra bir qator turlari farqlanadi. Jumladan, ijtimoiy, ijodiy, ekologik, moliyaviy loyiha ishlari kabilar.

Ijtimoiy loyihalar – mahalliy yoki global ijtimoiy muammolarni hal qilishga qaratilgan loyiha ishlari. Masalan, *Mahallamiz ijtimoiy muhitini yaxshilash uchun takliflar dasturini ishlab chiqish, Qo'shnilar o'rtasidagi o'zaro munosabatni yaxshilash dasturini ishlab chiqish*.

Ijodiy loyihalar – yangi ijodiy mahsulot yaratishga qaratilgan loyiha ishlari. Bunda audiomateriallar, videomateriallar, grafik tasvir materiallari kabilar tayyorlanadi. Masalan, *“O'rmonni ifloslantirgan va tabiat g'azabini qo'zg'atgan odamlarning qismati”* mavzusida ertak tayyorlash yoki *“Dahshat hikoyasi asosida asar muallifi bilan suhbat”* mavzusida intervyu tayyorlash

Ekologik loyihalar – mahalliy yoki global ekologik muammolarni hal etishga qaratilgan loyiha ishlari. Masalan, *Eko-shaharning 3D maketini tayyorlash, Mahalliy hududda chiqindilarni qayta ishlash tizimini takomillashtirish dasturini tayyorlash*.

Moliyaviy loyihalar – iqtisodiy masalalarni yangicha yechimini topishga qaratilgan, o'quvchilarning moliyaviy savodxonligini oshiradigan loyiha ishlari. Jumladan, *“Chiqindilarni qayta ishlash orqali daromad olish”, “Onlayn xaridlar va ularning moliyaviy samaradorligini baholash” mavzularda loyiha ishlari tayyorlash.*

Loyiha ishlari kim tomonidan bajarilishiga ko'ra ikki guruhga ajratiladi:

- *individual loyiha ishlari;*
- *jamoaviy loyiha ishlari.*

Individual loyiha ishlari – bir kishi tomonidan bajariladigan loyiha ishlari. Jumladan, *chiqindilardan qushlarga in qurib berish.*

Jamoaviy loyiha ishlari – guruh yoki jamoa tomonidan bajariladigan loyiha ishlari. Jumladan, *Eko-shaharning 3D maketini tayyorlash.*

Loyiha ishini tayyorlash va baholash. Loyiha ishi muayyan bosqichlarda tayyorlanadi(4.4-rasmga qarang).

Bunda quyidagi qadamlar ketma-ketligida bajariladi:


1-qadam. Mavzu tanlash. Bu bosqichda o'quvchilarning qiziqishlari va bilish darajasiga mos mavzu tanlanadi. Shundan so'ng loyihani tayyorlash uchun aniq maqsad belgilanadi.

2-qadam. Rejalashtirish va tayyorlanish. Bu bosqichda loyiha ishini tayyorlashda bajariladigan ishlar rejalashtiriladi, loyiha uchun zarur materiallar yig'ilib, resurslar, manbalar to'planadi hamda ish taqsimoti amalga oshiriladi.

3-qadam. Loyiha ishini tayyorlash. Bu bosqichda barcha rejalashtirilgan ishlar amalga oshirilib, tadqiqotlar o'tkaziladi, natijalar tahlil etiladi va yangi mahsulot tayyorlanadi hamda loyiha doirasida slayd, video yoki boshqa vizual ko'rinishda taqdimot ishlab chiqiladi.

4-qadam. Refleksiya. Bu bosqichda loyiha natijalari taqdimot qilinadi. Natijalar asosida xulosa chiqariladi va

jarayonda yuzaga kelgan muammolar va uning yechimlari yuzasidan fikr almashiladi.



4.4-rasm. Loyiha ishini tayyorlash bosqichlari

Loyiha ishlarini baholash jarayonida tayyorlangan loyiha ishi berilgan mavzu va maqsadga mos ekanligi, tadqiqot o'tkazish, hamkorlik va jamoaviy ishlash, ijodkorlik va innovatsion yondashuv darajasi, taqdimot sifati, nutq madaniyati hamda asosli xulosalanganligiga e'tibor qaratiladi. Quyida loyiha ishlarini baholash mezonlari taqdim etilgan.

4.4-jadval

Loyiha ishlarini baholash mezonlari namunasi

INDIKATORLAR VA DISKREPTORLAR	5 ball	4 ball	3 ball	2 ball	1 ball
Loyiha ishi berilgan mavzu va maqsadga moslik darajasi	eng yuqori	yuqori	o'rta	quyi	eng quyi
Tadqiqot o'tkazilishi va kritik tahlil darajasi	eng yuqori	yuqori	o'rta	quyi	eng quyi
Ijodkorlik va innovatsion yondashuv darajasi	eng yuqori	yuqori	o'rta	quyi	eng quyi

Tadimot sifati	eng yuqori	yuqori	o'rta	quyi	eng quyi
Nutq madaniyati darajasi	eng yuqori	yuqori	o'rta	quyi	eng quyi
Xulosalanganlik darajasi	eng yuqori	yuqori	o'rta	quyi	eng quyi

Loyiha ishlarini bajarmagan o'quvchilarga 0 ball qo'yiladi.



Mustahkamlash.

Quyidagi savollarga birma-bir og'zaki javob bering hamda keys topshiriqlarini tengqurlaringiz bilan muhokama qilib mavzuni mustahkamlang.



SAVOLLAR

1. Ta'limda loyiha ishlaridan foydalanishning ahamiyati haqida ma'lumot bering.
2. Ta'limda foydalaniladigan loyiha ishi turlari haqida ma'lumot bering.
3. Loyiha ishlarini tayyorlash bosqichlari haqida ma'lumot bering.
4. Loyiha ishlarini baholashda asosan qaysi mezonlarga tayaniladi?
5. Loyiha ishlaridan til va adabiyot ta'limida foydalanish mumkinmi, izohlang.



KEYS

Quyidagi ta'limiy vaziyatni o'qing va savolga munosabatingizni bildiring.

Muayyan fandan dars beruvchi "A" o'qituvchi o'quvchilarni faqat jamoaviy loyiha ishlarini bajarishiga

qarab baho qo'ya boshladi. Qaysi o'quvchi loyiha ishini tayyorlashda faol ishtirok etsa, u yuqori baho olar edi. "B" o'qituvchi esa o'quvchilarning fanni o'zlashtirishiga, belgilangan bilim va nazariy ko'nikmalarni egallashiga qarab baholar edi. Xalqaro baholash dasturlarida "A" o'qituvchining ham, "B" o'qituvchining ham o'quvchilari yuqori natija qayd eta olmadi.

Yuqoridagi vaziyatdan kelib quyidagi savollarga javob toping.

1. "A" o'qituvchi baholashni tashkil etishda qanday xatolikka yo'l qo'ydi?
2. "B" o'qituvchi baholashni tashkil etishda qanday xatolikka yo'l qo'ydi?
3. Ushbu vaziyatda "A" va "B" o'qituvchilar muvaffaqiyatli natijaga erishishlari uchun qanday yo'l tutishlari kerak edi?

ADABIYOTLAR

1. Kokotsaki, D., Menzies, V., & Wiggins, A. (2016). Project-based learning: A review of the literature. *Improving schools*, 19(3), 267-277.
2. Davidova, D. v.b.. (2024). Loyihaga asoslangan ta'lim. Toshkent: G'ofur G'ulom nashriyoti. 216
3. Rahmonov, U. (2024). Maktab o'quvchilariga tabiiy fanlarni loyiha ishlari asosida o'qitish metodikasi. *News of the NUUZ*, 1(1.10. 1), 178-180.
4. Isroilov, A. (2024). Loyiha ishlari bajarish jarayonida integratsiyalashgan ta'lim texnologiyalarini qo'llash orqali tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish. *UZMU xabarlari*, 1(1.1), 80-83.
5. Rahmanova, D. A. (2024). Chizmachilik va tasviriy san'at fanlarini o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalar va loyiha ishi. *IMRAS*, 7(5), 63-68.

V. TA'LIMDA BAHOLASH SIFATINI TA'MINLASH

5.1. Ta'limda o'lchash va baholashdagi xatoliklar

Ta'limda o'lchash va baholash natijasi test topshiruvchining o'lchanayotgan domen haqidagi haqiqiy bahosini aniqlab bera olmaydi. Bunda muayyan xatolik yuz beradi. Masalan, bir o'quvchi ingliz tilidan nazorat ishida 10 ta topshiriqdan 9 ta topshiriqni bajargan edi, biroq topshiriqni javoblar varaqasiga belgilash paytida 1 ta topshiriqni noto'g'ri belgiladi. Natijada unga 8 ta topshiriq uchun ball berildi. Aslida uning haqiqiy bahosi 9 edi. Ko'rinadiki, xatolik uning natijalariga ta'sir qildi.

Shuning uchun baholash nazariyasida *umumiy baho*, *haqiqiy baho* va *xatolik* tushunchalari farqlanadi. O'quvchining haqiqiy bahosini aniqlashga harakat qilinadi.

Ta'limda test topshiruvchining haqiqiy bahosini aniqlashda quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$X = T \pm E$$

Bunda,

X — test topshiruvchilarning testdan olgan umumiy bahosi;

E — xatolik (tashqi omillarning natijaga ta'siri)

T — haqiqiy baho (bilimga berilgan haqiqiy baho)

$$E = X \pm T \text{ ga, } T = X \pm E \text{ ga teng.}$$

Ushbu holatni aniq misol bilan tahlil qilamiz. Jumladan, Ahmad matematikadan nazorat ishida 20 ta topshiriqdan 15 tasini to'g'ri bajargan edi, biroq topshiriqni javoblar varaqasiga ko'chirish paytida ikkitasini noto'g'ri belgiladi. Natijada unga 13 ta topshiriq uchun ball berildi. Aslida uning haqiqiy bahosi 15 edi.

Buni quyidagicha hisoblaymiz:

$$X = 13, E = -2, T = 15$$

$X = T + E : 15 + (-2) = 13$ bunda xatolik Ahmadning natijasi tushishiga olib keldi.

Xuddi shu sinovda Mahmud 13 ta topshiriqni aniq bilib, bajargan edi. Ikkita topshiriq tasodifan to'g'ri chiqdi va imtihonda 15 ta topshiriq uchun ball berildi.

$$X = 15, E = 2, T = 13$$

$X = T + E : 13 + 2 = 15$ bunda xatolik Mahmudning natijasi yuqori bo'lishiga olib keldi.

Demak, ta'limda o'lchash va baholashdagi xatoliklar oqibatida o'quvchining umumiy natijasi yuqori yoki past chiqishi mumkin ekan.

Testologiyada testlarning ishonchlilik darajasini o'lchayotganda quyidagi xatoliklar yuz berishi mumkin:

— *sistematik xatolar*;

— *tasodifiy xatolar*.¹

Sistematik xatolar – baholashga doimiy ta'sir qiladigan tizimli xatolardir. Ular odatda baholashni loyihalashtirish, baholash mazmuni va metodini belgilash, test topshiriqlarini ishlab chiqish, baholash mezonini ishlab chiqish kabi jarayonlarda yo'l qo'yiladigan xatolar natijasida yuzaga keladi. Masalan, sinov uchun tuzilgan testlar mazmuni o'quv dasturi mazmuniga to'liq mos kelmasligi. Ya'ni testda faqat ayrim mavzular bo'yicha savollar kiritilgan bo'lsa, natijada bu mavzularni yaxshi bilgan ayrim o'quvchilar yuqori ballni qo'lga kiritadi, boshqa mavzularni yaxshi biladigan o'quvchilar esa adolatli baho ololmaydi.

Tasodifiy xatolar – baholash natijalariga bir marta ta'sir qiluvchi tasodifiy omillar. Masalan, xona harorating haddan ziyod oshib ketishi, shovqin yoki ishtirokchining tobi qochishi natijasida kelib chiqadi. Ammo bunaqa xatolar keyingi safar

¹ Jalilov K. Baholash nazariyasi asoslari. – Toshkent, Akademnashr 2020. – 252 b

kuzatilmasligi mumkin. Aynan shunday xatolarning ta'sirini kamaytirish uchun ham testning ishonchliligi diqqat bilan tekshiriladi va bir necha marta tajriba sinovlari o'tkaziladi.

Ta'limda o'lchash va baholashdagi xatoliklar baholash vositalari va usullari yoki imtihon auditoriyasining holati yoki test topshiruvchilar va baholovchilar xatti-harakati bilan bog'liq tarzda yuzaga kelishi mumkin.(5.1-jadvalga qarang.)

5.1-jadval

Ta'limda o'lchash va baholashdagi xatoliklarni yuzaga keltiruvchi omillar

Baholash vositalari va usullari	Imtihon topshiruvchilar	Imtihon auditoriyasi-nining holati	Baholovchilar
• Savolning imloviy, ishoraviy, texnik xato ekanligi • Savolning tushunarsiz ekanligi • O'qitilmagan mavzular asosida tuzilishi • O'quv dasturi mazmuniga mos bo'lmagan bilim va ko'nikmalar	• Xastaliklar • Psixologik holat: stress, qo'rquv • Ko'chirma-kashlik • Tasodifiy javoblar berilishi • Omad	• Xonadagi ortiqcha shovqin • Xonada yorug'lik yetishmasligi • Xonaning normadan ortiq issiq yoki sovuq ekanligi	• Subyektiv baholash • Noto'g'ri baholash • Imtihon topshirish paytida xalal berish • Imtihon topshirishdan oldin noto'g'ri yo'riqnoma berish

Ta'limda o'lchash va baholashdagi xatoliklarni kamaytizrish uchun baholash vositalarining ishonchliligi va validligini oshirish, baholovchilarning malakasini oshirish, baholash jarayonini optimallashtirish, shuningdek, o'quvchilar uchun qulay sharoit yaratish kabi chora-tadbirlarni ko'rish maqsadga muvofiq. Bu esa ta'lim sifatini oshirishga, o'quvchilar bilimini to'g'ri baholashga yordam beradi.



Mustahkamlash.

Quyidagi savollarga birma-bir og'zaki javob bering hamda keys topshiriqlarini tengqurlaringiz bilan muhokama qilib mavzuni mustahkamlang.



SAVOLLAR

1. Test topshiruvchining haqiqiy bahosi tushunchasi haqida ma'lumot bering.
2. O'lchashdagi xatolik tushunchasi va uni aniqlash usuli haqida ma'lumot bering.
3. Tasodifiy va tizimli xatoliklar haqida ma'lumot bering.
4. O'lchashdagi xatolik manbalari haqida ma'lumot bering.
5. O'zbekiston ta'lim kontekstida ta'limda o'lchash va baholashdagi xatoliklarni aniqlash bo'yicha qanday muammolar mavjud?



KEYS

Quyidagi pedagogik vaziyatni o'qing va savolga munosabatingizni bildiring.

Alisportmashg'ulotlaridan charchab kelib matematikadan test sinovlarini topshirdi. Ustiga ustak, test savollarining 10 % i hali darsda o'tilmagan mavzudan berilgan ekan. U 25 ta topshiriqdan 17 tasini aniq bajardi, biroq kalitlarni javoblar varaqasiga belgilashda 2 ta topshiriqni xato

ko'chirdi. Natijada imtihondan 15 ta topshiriq uchun ball oldi. U "3" baho olganlar ro'yxatiga kirib qoldi va bundan ranjidi.

Yuqoridagi vaziyatdan kelib quyidagi savollarga javob toping.

1. Ushbu vaziyatda o'lchash va baholashda qanday tizimli xatoliklarga yo'l qo'yildi, bu natijalariga qanday ta'sir ko'rsatgan bo'lishi mumkin?
2. Ushbu vaziyatda o'lchash va baholashda qanday tasodifiy xatoliklarga yo'l qo'yildi, bu natijalariga qanday ta'sir ko'rsatgan bo'lishi mumkin?
3. Ushbu vaziyatda o'lchash va baholashdagi xatoliklarni bartaraf etish uchun qanday ishlarni amalga oshirish mumkin edi?

ADABIYOTLAR

1. Jalilov K. (2022) Baholash nazariyasi asoslari. Toshkent. Akademnashr nashriyoti.
2. Standards for Educational and Psychological Testing. (2014) Published by the American Educational Research Association. 230 p.
3. А.Солижонов. (2009) Тест ўзи нима? Toshkent. Davlat test markazi.
4. Ahmet Salih Şimşek. (2020) Hata Türleri, Hata Kaynakları, Ölçmenin Standart Hatası, Gerçek Puan Kestirimi. [<https://youtu.be/DZAqaQWYW1U?si=P2D3-RKzIQ4mi-k2>]

5.2. Baholash jarayonida validlikni ta'minlash

Ta'limda baholash natijalari asosida turli qarorlar qabul qilinadi, o'qitish sifati haqida xulosalar beriladi. Bu qarorlar ilmiy jihatdan asosli bo'lishi uchun baholash jarayonini tashkil etishda muayyan tamoyillariga amal qilinadi. Baholash jarayonida quyidagi asosiy tamoyillarga amal qilinadi:

- *validlik;*
- *ishonchlilik;*
- *adolatlilik va tenglik;*
- *shaffoflik;*
- *qulaylik.*

Validlik (lotincha, “validus” – yaroqli) – *baholashda foydalaniladigan topshiriqning baholash maqsad qilingan xususiyatlarni aniq o'lchash darajasi.*

Baholash nazariyasiga oid manbalar tahlil qilinganda, “validlik” tushunchasi baholash tarixida ikki xil ma'noda qo'llangan. Bular:

- a) *testning xususiyati;*
- b) *testning yaroqliligi haqidagi asoslari.*

a) Validlik – testning xususiyati. Klassik testologiyada validlik testning xususiyati sifatida talqin etilgan. Bunga ko'ra quyidagi validlik turlari farqlangan:

- *mazmuniy validlik*
- *tarkibiy validlik;*
- *mezoni validlik;*
- *subyektiv (“face”) validlik.*

Mazmuniy validlik – test topshiriqlari o'lchanishi va baholanishi lozim bo'lgan domen mazmuniga mos bo'lishi (1-rasmga qarang). Masalan, ona tili fanidan 6-sinf o'quvchisining bilish darajasini aniqlamoqchimiz. Bunda ona tili fani mazmuniga mos tarzda baholash jarayonini amalga

oshirishimiz lozim bo'ladi. Ya'ni ona tili fani bo'yicha 6-sinf uchun davlat ta'lim standarti va o'quv dasturida belgilangan o'quv natijalarini yaxlit baholanishidir. Jumladan, nazorat ishlarida ona tili fanidan *eshitib tushunish, o'qib tushunish, yozish, so'zlash hamda leksik-grammatik savodxonligiga* doir belgilangan bilim va ko'nikmalarni baholash hisoblanadi.



5.1-rasm: Mazmuniy validlik


Bir so'z bilan aytganda, baholash mazmuni baholanayotgan domen mazmuniga mos bo'lsa, baholashning mazmuniy validligi ta'minlangan hisoblanadi.

Agarda imtihonlarda *o'qib tushunish va yozish* yoki *faqat leksik-grammatik savodxonlik* baholansa, yoki muayyan mazmun sohalar baholanmasdan qolib ketsa, yoki fan mazmuniga aloqador bo'lmagan, boshqa fanlardan maxsus bilimni talab etadigan ko'nikmalar baholansa, baholashning mazmuniy validligi ta'minlanmagan hisoblanadi.

Tarkibiy validlik – baholash mazmuniy tarkibi fanga doir o'quv natijalarini to'liq qamrab olishi (2-rasmga qarang: rasmda yulduzchalar test, doira fan mazmuni).

Masalan, ona tili fanidan 6-sinf o'quvchisining bilish darajasini aniqlamoqchimiz. Bunda baholashda foydalaniladigan topshiriqlar ona tili fani mazmuniy sohalarini to'la qamrab olishi hamda miqdor jihatidan ham yetarli

darajada bo'lishi lozim bo'ladi. Jumladan, nazorat ishlarida ona tili fanidan *eshitib tushunish, o'qib tushunish, yozish, so'zlash hamda leksik-grammatik savodxonligiga* doir belgilangan bilim va ko'nikmalarni to'la qamrab olgan holda baholanishidir.



5.2-rasm: Tarkibiy validlik

Bunda ikki xil yondashuv asosida test topshiriqlari shakllantiriladi. Birinchi yondashuvda fan yaxlit domen sifatida belgilab olinadi va test topshiriqlari tuziladi. Ikkinchi yondashuvda esa fan domeni subdomenlarga ajratilib olinadi hamda bar bir subdomen doirasida test topshiriqlari shakllantiriladi.

Bir so'z bilan aytganda, baholash jarayonida foydalaniладigan topshiriqlar miqdori va qamrovi fanning mazmuniy tarkibiga mutanosib bo'lsagina baholashning tarkibiy validligi ta'minlangan hisoblanadi.

Agarda imtihonlarda fanning muayyan mazmun sohalar baholanmasdan qolib ketsa, yoki savollar miqdori yetarli darajada bo'lmasa, baholashning tarkibiy validligi ta'minlanmagan hisoblanadi.

Mezoniy validlik – baholash mezonining asosli ekanligi, baholash natijalari tegishli boshqa test natijalariga mutanosib bo'lishi.

Avvalo, har bir topshiriq uchun baholash mezonlari asosli belgilanishi, bunda topshiriqlarni bajarish uchun talabetiladigan ko'nikmalar murakkabligiga qarab ballar taqsimlanishi, har bir baholanadigan ko'nikmalar chegarasi aniq belgilanishi lozim. Agarda har xil ko'nikmalar baholanadigan topshiriqlar uchun bir xil ball berilishi – mezoniy validlik talabini buzilishi hisoblanadi.

Mezoniy validlik ikki xil bo'ladi:

- *bashorat (predikativ) validligi;*
- *solishtirma validlik.*

Bashorat (predikativ) validligi – baholash mezonlari test topshiruvchilarning baholash domeniga doir ko'nikma va qobiliyatlarini bashorat qila olish xususiyati. Jumladan, chet tili sertifikatida darajalari imtihon topshiruvchilarning chet tilidagi nutqlarni qay darajada muvaffaqiyatli o'zlashtira olishlarini, qaysi doiralarda chet tilida erkin muloqot qila olishlarini bashorat qila olishi lozim. Agar kutilgan holat yuz bersa, bashorat validligi talablari bajarilgan hisoblanadi.

Solishtirma validlik – baholash natijasining belgilangan mezon bo'yicha boshqa test natijalari bilan teng bo'lishi. Jumladan, test topshiruvchi milliy test tizimida turk tili sinovlarida B2 darajani qayd etsa, xuddi shuningdek, Yunus Emre instituti tomonidan tashkil etiladigan Turk tilini bilish sinovlarida ham B2 darajasini qayd etishi hisoblanadi. Agarda talabgor ikkita bir xil mazmunli test sinovida ikki xil natija qayd etgan bo'lsa, solishtirma validlik talablari bajarilmagan hisoblanadi.

Subyektiv ("face") validlik – test topshirig'i o'lchash uchun mo'ljallangan baholash domenini to'g'ri o'lchashini baholovchilar tomonidan subyektiv ravishda tasdiqlash. Jumladan, o'quvchilar ko'paytirish amalini bajara olishi yoki bajara olmasligini o'lchash maqsadida test topshiriqlari shakllantirildi. Ushbu topshiriqlar ekspertlar tomonidan

baholash maqsadiga mosligi subyektiv tasdiqlansa, bu testning subyektiv validligi ta'minlanganligini ko'rsatadi. U validlik turlari orasida eng zaif shakli hisoblanadi.

b) Validlik – testning yaroqliligi haqidagi asoslari.

Zamonaviy testologiyada “validlik turlari” tushunchasidan voz kechilib, testning *yaroqli ekanligi, kontenti, bajarishdagi kognitiv jarayonlar, ichki tuzilishi, baholash mezonlari va oqibatlariga doir empirik va nazariy asoslar taqdim etilishi* tushunila boshlandi.

Baholash nazariyasida standartlarga ko'ra baholash jarayonida sifatni ta'minlash uchun baholash jarayoniga va unda foydalaniladigan test topshiriqlariga oid nazariy va empirik dalillar taqdim etilishi lozim. Xususan, baholash jarayoni bilan bog'liq bo'lgan quyidagi jihatlar haqida ilmiy asoslar taqdim etiladi:

1) baholashni tashkil etish maqsadi, natijalardan foydalanish va talqinlarga oid;

2) validatsiyada foydalaniladigan namunalar va ularni takomillashtirishga oid;

3) yaroqlilik dalillarining o'ziga xos jihatlariga oid.

Baholash jarayonida foydalaniladigan test topshiriqlari baholash maqsadiga mos yoki mos emasligini aniqlash, valid ekanligini tasdiqlash, ular asosida qabul qilinadigan qarorlar, xulosalar asosli (valid) bo'lishi uchun quyidagi dalillar taqdim etilishi lozim:

a) Test kontentning asoslanganligiga oid dalillar – baholash spetsifikatsiyasi mavjud ekanligi, test orqali o'lchanayotgan xususiyatlar muhim ekanligi, test mazmuni baholash maqsadiga mos ekanligi, mazmun qamrovi yetarli darajada ta'minlangani, o'lchanishi lozim bo'lgan xususiyatlardan tashqari elementlar baholanmayotganligini asoslovchi dalillar.

b) Testni bajarishdagi kognitiv jarayonlarga oid dalillar – test topshirig'ini bajarishdagi psixologik jarayonlar va kognitiv

operatsiyalari, ular asosida test uchun ballar belgilangani, test topshiriqlarini bajarishda baholashda tekshirilishi lozim bo'lgan ko'nikmalardan foydalanilishini asoslovchi dalillar.

c) *Testning ichki tuzilishga oid dalillar* – test topshiriqlari yoki test qismlari o'rtasida o'zaro bog'liqlik (korrelyatsiya), testning ichki tuzilishi, test topshiriqlari alohida guruhlariga (jinsi, millati, dini, ijtimoiy darajasiga ko'ra) ustunlik bermasligini asoslovchi dalillar.

e) *Baholash mezonlariga doir dalillar* – mezonlarning muvofiqligi va texnik jihati, baholash mezonlarining adekvat yoki noadekvat ishlashi, baholashdagi standart xatolik darajasi, ishonchlilik koeffitsiyenti, testning xuddi shu konstruktini o'lchaydigan boshqa o'zgaruvchilar bilan korrelyatsiya ko'rsatkichlariga doir dalillar.

f) *Baholash oqibatlariga doir dalillar* – test topshiriqlarini baholash jarayonida foydalanish natijasida yuzaga keladigan kutilgan yoki kutilmagan, salbiy yoki ijobiy oqibatlarni asoslovchi dalillar.

Baholashda validlik tamoyiliga rioya qilish ta'lim jarayonining sifatini oshirish va o'quvchilar uchun adolatli sharoit yaratishda muhim ahamiyatga ega. Bu tamoyil natijalarni haqqoniy bo'lishiga, o'quvchilarning haqiqiy bilim va ko'nikmalarini o'lchashga yordam beradi va ta'lim jarayonini samarali boshqarishni ta'minlaydi.



Mustahkamlash.

Quyidagi savollarga birma-bir og'zaki javob bering hamda keys topshiriqlarini tengqurlaringiz bilan muhokama qilib mavzuni mustahkamlang.



SAVOLLAR

1. Baholashda validlik tushunchasi va uning tadriji haqida ma'lumot bering.
2. Validlik turlarini sanang va har birini izohlang.
3. Baholash kontenti ilmiy jihatdan qanday asoslanadi?
4. Baholash mezonlari ilmiy jihatdan qanday asoslanadi?
5. Baholash oqibatlari ilmiy jihatdan qanday asoslanadi?



KEYS

Quyidagi pedagogik vaziyatni o'qing va savolga munosabatingizni bildiring.

Maktabda "A" fandan choraklik summativ baholash tashkil etildi. Bu fandan dars mashg'ulotlarida 30 ta mavzu o'tilgan. Fan bo'yicha 3 ta savoldan iborat bo'lgan biletlar asosida yozma imtihon o'tkazish rejalashtirildi. Imtihon jarayoni uchun topshiriqlar banki tayyorlandi va imtihon o'tkazildi. Aksariyat o'quvchilarning natijasi juda yaxshi chiqdi.

Yuqoridagi vaziyatdan kelib quyidagi savollarga javob toping.

1. Imtihonda aksariyat o'quvchilarning natijasi juda yaxshi chiqdi, buning boisi nimada deb o'ylaysiz?
2. Ushbu vaziyatda topshiriqlar bankini shakllantirishda, baholashni loyihalashtirishda qanday xatolikka yo'l qo'yildi?
3. Ushbu vaziyatda validlik talablarining qaysi bir buzilgan bo'lishi mumkin?

ADABIYOTLAR

1. Jalilov K. (2022) Baholash nazariyasi asoslari. Toshkent. Akademnashr nashriyoti.

2. Standards for Educational and Psychological Testing. (2014) Published by the American Educational Research Association. 230 p.
3. Holden, Ronald B. (2010). "Face validity". In Weiner, Irving B.; Craighead, W. Edward (eds.). The Corsini Encyclopedia of Psychology (4th ed.). Hoboken, New Jersey: Wiley. pp. 637–638. ISBN 978-0-470-17024-3.
4. Roderick P. McDonald. (2013) Test Theory: A Unified Treatment — Psychology Press.
5. Tina Isaacs, Catherine Zara, Graham Herbert, Steven J Coombs, Charles Smith Key. (2013) Concepts in Educational Assessment: SAGE.

5.3. Baholash vositalarining ishonchliligini ta'minlash

Ishonchlilik ham xuddi validlik singari ana shunday muhim talablardan biridir. O'z navbatida ishonchlilik va validlik bir-biri bilan bevosita va chambarchas bog'liq. Chunki birining bo'lishi boshqasini talab qiladi. Xususan, validlik dalillarining to'liq bajarilishi uchun testning ichki strukturasi bilan bog'liq dalillar tarkibiga kiruvchi ishonchlilik talabi ham bajarilishi kerak. Biroq bu ikki xususiyat bir-birini qanchalik taqozo qilmasin, "testlarning ishonchlik talablariga javob berishi ular validlik talablariga ham javob beradi, degani emas".²

Ishonchlilik – baholash vositalarining tasodifiy xatolardan xolilik darajasi.

Ya'ni baholash vositasi test topshiruvchining bilim va ko'nikmalarini **izchil** o'lchay olsa, takroriy sinovlarda natijalar

² W. James Popham, Modern Educational Measurement: Practical Guidelines for Educational Leaders. — Allyn and Bacon, 2000. 466 p.

barqaror bo'lsa va mumkin qadar **sezgir hamda aniq** baholay olsa, uning ishonchlilik darajasi yuqori bo'ladi.

Baholash vositasi ishonchli bo'lishi uchun u haqidagi quyidagi uch jihatdan birini aniqlab olishimiz maqsadga muvofiq. (5.3-rasmga qarang.)



5.3-rasm: Ishonchlilik darajasini o'lchash koeffitsiyentlari

Barqarorlik – test topshiruvchilar muayyan test topshiriqlarini qayta-qayta bajarganlarida ham deyarli bir xil natija qayd etishi. Masalan, Ahmad matematikadan 100 ballik sinovdan birinchi urinishda 72 ball, ikkinchi bor urinishda 70 ball, uchinchi marotabasida 74 ballni qo'lga kiritdi. O'rta hisobda qayta-qayta test topshiriqlarini bajarganda ham 72 ballni qayd etdi. Ya'ni **barqarorlik koeffitsiyenti** – test topshiriqlarining takroriy sinovlarda natijalari barqaror bo'lishi.

Ichki bog'liqlik (korrelyatsiya) – test varianti tarkibidagi test topshiriqlari bir-biri bilan va barcha test topshiriqlari bilan bog'liq hamda mos bo'lishi, ichki korrelyatsiyasi.

Sezuvchanlik – baholash vositasi mazmuni va miqdori o'quvchining haqiqiy bahosini aniqlashga imkon berishi. Bunda matematik savodxonlik darajasini aniqlashda 3 ta savoldan ko'ra, 15 ta topshiriq samaraliroq bo'lishi mumkin. Biroq topshiriqlar miqdori ortib ketishi, ishonchlilikni pasayishiga ham olib kelishi mumkin.

Shu bilan birga, inson omili yordamida o'lchanadigan ko'nikmalarni baholashda (ijodiy, amaliy, yozma va og'zaki sinovlarda) baholovchilarning teng kuchligini, ular qo'yayotgan baholarining korrelyatsiyasini ta'minlash ham muhim.

Shuni aytish lozimki, baholash nazariyasida testning ishonchliligi (**barqarorlik, ekvivalentlik koeffitsiyentlari va ichki bog'liqlik darajasi**)ni o'lchash uchun "0" dan "1" gacha bo'lgan ko'rsatkichdan foydalaniladi. (5.1-jadvalga qarang).

5.1-jadval

Ishonchlilik daraja ko'rsatkichi

– 0	0.1	0.2	0.3	0.4	0.5	0.6	0.7	0.8	0.9	1+
-----	-----	-----	-----	-----	-----	-----	-----	-----	-----	----

Mazkur ishonchlilik darajalari sifat nuqtayi nazardan farqlanadi (5.2-jadvalga qarang).

5.2-jadval

Ishonchlilikning sifat darajalari


0 – 0.6	Sifatsiz
0.6.1 – 0.8	Past sifatli
0.8.1 – 0.9	O'rta sifatli
0.9.1 – 1	Yuqori sifatli

Test topshiriqlarining ishonchlilik darajasini aniqlashda bir qator usullardan foydalaniladi (5.4-rasmga qarang.).

Ko'rinadiki, test topshiriqlarining ishonchlilik darajasini aniqlash ikki xil usullarda amalga oshirilishi mumkin:

- *bir marta test o'tkazish orqali;*
- *takroran test o'tkazish orqali.*

Dastlab, bir marta test sinovi o'tkazish orqali baholash vositasining ishonchlilik darajasini aniqlash usullari bilan tanishamiz. Bu usullar **testning ichki bog'liqlikni hisoblashga** asoslanadi. Bunda ham bir qancha usullar mavjud.



5.4-rasm: Ishonchlilik darajasini o'lchash usullari

- *K-R20 // K-R21 formulasi usuli;*
- *Kronbax alfasini aniqlash usuli.*

I. KuderRichardson formulasi. Bu formula test topshiriqlarini to'g'ri yoki noto'g'ri bajarilganligi aniqlanadigan testlarning ishonchliligini hisoblash uchun ishlatiladi. Bu formulaning ikki xil varianti mavjud:

- *K-R20 formulasi;*
- *K-R21 formulasi.*

K-R21 formulasi

$$r_{\alpha} = \frac{K}{K-1} \left(1 - \frac{M(K-M)}{KS^2} \right)$$

bunda

r_{α} – Kuder-Richardson bo'yicha ishonchlilik ko'rsatkichi.

K – test variantidagi test topshiriqlari soni.

M – test natijalari yig'indisining o'rtacha arifmetik ko'rsatkichi;

s^2 – test natijalari to'plamining standart og'ishi.

K-R20 formulasi

$$r_{\alpha} = \frac{K}{K-1} \left(1 - \frac{\sum pq}{s^2} \right)$$

bunda

r_{α} – Kuder-Richardson bo'yicha ishonchlilik ko'rsatkichi.

K – test variantidagi test topshiriqlari soni.

$\sum pq$ – test topshiriqlari dispersiyasi yig'indisi.

s^2 – butun test dispersiyasi.

II. Kronbax alfasi. Bu usul ko'p ballik tizimda baholanadigan test topshiriqlaridan iborat testlarning ishonchliligini hisoblash uchun ishlatiladi.

$$\alpha = \frac{K}{K-1} \left(1 - \frac{\sum s_i^2}{s_x^2} \right)$$

bunda

α – Kronbax bo'yicha ishonchlilik ko'rsatkichi.

K – test variantidagi test topshiriqlari soni.

s_i^2 – alohida olingan test topshirig'i dispersiyasi.

s_x^2 – butun test dispersiyasi.

Masalan, test 4 ta yozma shaklidagi test topshirig'idan iborat. Har bir test topshirig'i 0 dan 10 gacha ball bilan baholanadi. Agar 4 ta test topshirig'i dispersiyalari mos ravishda 9, 4,8, 10,2 va 16 ga, butun test dispersiyasi 100 ga teng bo'lsa, bunday testning ishonchliligi (Kronbax alfasi) 0,8 ga teng bo'ladi

$$\alpha = \frac{4}{4-1} \left(1 - \frac{9 + 4,8 + 10,2 + 16}{100} \right) = 0,8$$

Shuni hisobga olish lozimki, testning ichki barqarorligi asosida ishonchlilikni hisoblashda test bir o'lchamli (bitta konstruktni tekshirishga qaratilgan) bo'lishi lozim.

Shu bilan birga, takroran test o'tkazish orqali ham ishonchlilik koeffitsiyenti aniqlanadi. Bunda quyidagi ikki usuldan foydalaniladi:

– test-qayta test (“test-retes”) usuli;

– parallel test (“parallel-forms reliability”) usuli.

Bu usullar **testning barqarorlik koeffitsiyentini hisoblashga** asoslanadi.

Test-qayta test (“test-retes”³) usuli. Bu usulda muayyan bir “A” test topshiruvchilar guruhi ishtirokida ikki marta bitta test topshiriqlari varianti foydalanib imtihon o'tkaziladi. Shundan so'ng ikkala test natijalari orasidagi o'zaro bog'liqlik hisoblanadi. Natijalar barqaror, bir-biriga yaqin chiqadigan bo'lsa, test topshiriqlari ishonchli hisoblanadi (1-rasmga qarang).

Shuningdek, bu usulni qo'llashda sinovlar orasidagi muddatni hisobga olish zarur. Chunki oraliq vaqtning haddan tashqari uzoq yoki haddan tashqari qisqa bo'lishi natijalarga bevosita ta'sir qilishi mumkin.

Parallel test (“parallel-forms reliability”) usuli. Bu usulda muayyan bir “A” test topshiruvchilar guruhi ishtirokida ikki marta parallel test topshiriqlari varianti yordamida imtihon o'tkaziladi. Shundan so'ng ikkala parallel test natijalari orasidagi o'zaro bog'liqlik, tenglik hisoblanadi. Natijalar barqaror, bir-biriga yaqin chiqadigan bo'lsa, test topshiriqlari ishonchli hisoblanadi.

Shuni ham ta'kidlashimiz kerakki, test topshiriqlarining ishonchlilik darajasi ko'rsatkichlarini aniqlash uchun o'tkaziladigan tajriba-sinov ishlarida sistematik hamda tasodifiy xatoliklarni oldini olish choralarini ko'rish lozim.



Mustahkamlash.

Quyidagi savollarga birma-bir og'zaki javob bering hamda keys topshiriqlarini tengqurlaringiz bilan muhokama qilib mavzuni mustahkamlang.

³ В.И.Звонников, М. Б. Челышкова, Современные средства оценивания результатов обучения : Издательский центр “Академия”, 2013. — 304 с.



SAVOLLAR

1. Baholash vositalarining ishonchliligi tushunchasi haqida ma'lumot bering.
2. Ishonchlilikni aniqlash usullari haqida ma'lumot bering.
3. Testning barqarorlik koeffitsiyenti tushunchasi haqida ma'lumot bering.
4. Testning ichki barqarorlik koeffitsiyenti tushunchasi haqida ma'lumot bering.
5. Sistematik va tasodifiy xatolarning farqi haqida ma'lumot bering.



KEYS

Quyidagi pedagogik vaziyatni o'qing va savolga munosabatingizni bildiring.

Maktabda o'quvchilar ishtirokida ingliz tili fanidan olimpiada sinovlari uchun tuzilgan test topshiriqlari tajriba-sinovdan o'tkazildi. Bunda o'quvchilarning o'qib tushunishini baholashda futbol haqidagi matndan foydalanilib, matn asosida 3 dona topshiriq tuzilgan edi.

Imtihon havo sovg'ichlar bilan jihozlanmagan, yorug'lik yetarlicha bo'lmagan, issiq-dim auditoriyada tashkil etildi. Bundan tashqari, chop etilishda kamchilikka yo'l qo'yilib, ayrim topshiriqlar yaxshi ko'rinmay qolgan edi.

Yuqoridagi vaziyatdan kelib quyidagi savollarga javob toping.

1. Sinov jarayonini tashkil etishda qanday talablar buzilgan edi?
2. Ushbu vaziyatda baholash vositasining ishonchliligiga ta'sir qiluvchi qanday xatoliklarga yo'l qo'yildi?
3. Ushbu vaziyatda qanday sistematik xatoliklarga yo'l qo'yildi?

ADABIYOTLAR

1. Jalilov K. (2022) Baholash nazariyasi asoslari. Toshkent. Akademnashr nashriyoti.
2. Standards for Educational and Psychological Testing. (2014) Published by the American Educational Research Association. 230 p.
3. Holden, Ronald B. (2010). "Face validity". In Weiner, Irving B.; Craighead, W. Edward (eds.). The Corsini Encyclopedia of Psychology (4th ed.). Hoboken, New Jersey: Wiley. pp. 637–638. ISBN 978-0-470-17024-3.
4. Roderick P. McDonald. (2013) Test Theory: A Unified Treatment — Psychology Press, 498 p.
5. Tina Isaacs, Catherine Zara, Graham Herbert, Steven J Coombs, Charles Smith. (2013) Key Concepts in Educational Assessment: SAGE, 176 p.
6. Ahmet Salih Şimşek. (2020) Kapsam Geçerliği Yapı Geçerliği Ölçüt Dayanaklı Geçerlik Görünüş Geçerliği. [<https://youtu.be/ZrwjuGOe7t8?si=f0W313xUamwN34mN>]

5.3. Baholash jarayonida adolatlilik va shaffoflikni ta'minlash

Baholash jarayoni bilan bog'liq yana bir prinsip bu adolatlilikdir. Ushbu tamoyil baholash jarayonining muhim tamoyillaridan biri. Baholashda adolatlilik ham validlik talablarining mukammal bo'lishini ta'minlaydi.

Adolatlilik umumiy tushuncha sifatida keng ma'noga ega. Ammo testologiyada adolatlilik deganda test sinovlari o'tkazilishi, uning natijalarini tahlil qilish va e'lon qilishda, testlarning sifati va mazmunida barcha ishtirokchilarga

o'z imkoniyatlarini namoyon qilishlari uchun birdek teng imkoniyat berilishidir.

Baholash jarayonlari adolatli bo'lishi uchun bir qancha qoidalarga amal qilish kerak. Olima Isak Tina baholashda adolatlilik tushunchasi haqida shunday ta'rif beradi:

– *test tizimining o'zida test topshiruvchilarga nisbatan nohaqlikning bo'lmasligi;*

– *test topshiruvchilarda mavjud test tizimlaridan foydalanish uchun teng imkoniyatlar bo'lishi*⁴.

Bu haqida o'zbek mutaxassisi K.Jalilov quyidagicha izoh beradi⁵:

“Adolat – *testning mazmuni, konteksti (o'tkazilish shart-sharoitlari) va testdan kutilayotgan natijalar barcha test topshiruvchilarga o'z qobiliyatlarini birdek namoyon etishlariga sharoit yaratib berishi*”.

Yuqoridagilar asosida baholashda adolat va tenglik tushunchasiga quyidagicha izoh bersak bo'ladi:

Baholashda adolat va tenglik – test sinovlarida barcha imtihon topshiruvchilar uchun bir xil sharoitlar yaratilishi, ularning yoshi, kelib chiqishi, jinsi, mansabi, ijtimoiy maqomi, jismoniy imkoniyatlaridan qat'iy nazar bir xil standartlar asosida baholanishi, baholash kontenti barcha uchun tushunarli bo'lishi, gender-inklyuziv baholash muhiti yaratilishi, baholash natijalarini tekshirishda tarafkashlikni oldini olish va barcha baholovchilar professional bo'lishini ta'minlash hisoblanadi.

Baholashda adolat va tenglikni ta'minlash maqsadida quyidagilar amalga oshiriladi:

test topshirishda barcha imtihon topshiruvchilar uchun bir xil sharoitni (imtihon auditoriyasi sharoitlari, yorug'lik, shovqin, yozish buyumlari v.b.) yaratilishi;

⁴Tina Isaacs, Catherine Zara, Graham Herbert, Steven J Coombs, Charles Smith Key Concepts in Educational Assessment: SAGE –2013, 176 p.

⁵ Jalilov K. Baholash nazariyasi asoslari. – Toshkent, Akademnashr 2020. – 205-b.

test topshiruvchilarning yoshi, kelib chiqishi, jinsi, mansabi, ijtimoiy maqomi, jismoniy imkoniyatlaridan qat'iy nazar bir xil baholash standartlari asosida baholanishi, baholash talablarini bajarishda ayrimlariga yengillik yoki qo'shimcha imtiyozlar berilmasligi;

baholash kontenti kelib chiqishi, jinsi, mansabi, ijtimoiy maqomi, jismoniy imkoniyatlaridan qat'iy nazar barcha test topshiruvchilar uchun bir xilda tushunarli bo'lishi, ayrimlariga yengillik bermasligi;

baholash jarayonini tashkil etishda gender-inklyuziv baholash muhitini yaratish;

baholash natijalarini tekshirishda tarafdashlikni oldini olish choralarini ko'rish;

barcha baholovchilar professional, o'z sohasining bilimdoni bo'lishi hamda sohaga doir bilimi, ko'nikma va qobiliyatlari jihatidan bir xil bo'lishi.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, baholashda adolatni ta'minlash maqsadida imkoniyati cheklangan test topshiruvchilarga test materiallarining farqli shakllaridan taqdim etilishi mumkin. Jumladan, ko'rish qobiliyati zaif o'quvchilarga imtihon materiallari rangli yoki rangsiz yoki Brayl alifbosida berilishi yoki imtihon kompyuter orqali tashkil etilganda, savollarni o'qib berishi uchun mustaqil hamroh biriktirilishi, yoki audio shaklda taqdim etilishi mumkin. Shuningdek, imkoniyati cheklangan o'quvchilarning ehtiyojiga ko'ra baholash jarayonida qo'shimcha vaqt va boshqa jihozlar taqdim etilishi mumkin.

Baholash jarayonlari asosini tashkil qiladigan yana bir tamoyil *shaffoflik* hisoblanadi. Baholash nazariyasida shaffoflik tushunchasiga quyidagicha ta'rif beriladi:

“Shaffoflik – *test jarayonning barcha qatnashchilari (test topshiruvchilar, testni o'tkazishga mas'ullar, testni baholaydiganlar, test natijalarini ishlatadiganlar) testda*

nima talab qilinishi va test topshiruvchilarning ishlari qanday baholanishi haqida yetarlicha ma'lumotga ega bo'lishi".⁶

Bunda, avvalo, test topshiruvchilarga test qay tarzda o'tkazilishi, qachon va qayerda o'tkazilishi, test orqali tekshiriladigan bilim va ko'nikmalar, test qanday baholanishi kabi ma'lumotlar beriladi. Natijada talabgorlar oldindan uning qaysi ko'nikmalari, qanday mezonlar va qanday turdagi topshiriqlar bilan baholanishini biladi va shunga tayyorlanib boradi. Shuningdek, imtihon o'tkaziladigan kuni baholash oshkora, hammaning ko'z oldida, barchaga bir xil sharoit yaratilgan tarzda o'tkazilishi, imtihon natijalari tezkor va obyektiv tekshirilishidir.

Baholash shaffofligini ta'minlash uchun quyidagilar amalga oshiriladi:

1. Sinov o'tkazuvchi, imtihonni tashkil etuvchi tashkilot (vazirlik, universitet, maktab, test markazi v.b) o'quv yili boshida Baholash spetsifikatsiyasi, baholash mezoni, namunaviy topshiriqlarni e'lon qiladi, ta'lim oluvchilarga yetkazadi. Masalan, universitetda talabalarga semestr boshidanoq o'quv fanlaridan qanday baholashini bilishlari uchun fandan baholash spetsifikatsiyasi, baholash mezoni va namunaviy topshiriq beriladi.

2. Imtihon o'tkaziladigan kuni imtihon shaffof-oshkora tashkil etiladi hamda test topshiruvchilar imtihon boshlanishidan oldin sinovni topshirish yo'riqnomasi bilan tanishtiriladi. Imtihon jarayonidan test topshiruvchilar va ularning yaqinlari xabardor bo'lib turishlari uchun shart-sharoitlar yaratib beriladi.

3. Imtihon natijalari tezkor e'lon qilinadi hamda kollegial baholanadigan yozma ish, amaliy topshiriqlarni baholash jarayonini ham shaffof va oshkora o'tkazilishi ta'minlanadi.

⁶ Jalilov K. Baholash nazariyasi asoslari. – Toshkent, Akademnashr 2020. – 207-b.

Demak, baholash shaffofligi – o'lchash va baholash jarayonining oshkora va shaffof o'tkazilishi hisoblanadi. Bunda quyidagi o'rinlarda shaffoflik ta'minlanadi:

- *imtihon jarayoniga qadar shaffoflikni ta'minlash;*
- *imtihon jarayonida shaffoflikni ta'minlash.*
- *imtihon jarayonidan keyin shaffoflikni ta'minlash.*

Xullas, shaffoflik ham baholash jarayonning muhim qismi bo'lib, u natijalarning imkon qadar adolatli bo'lishiga, talabgorlarning bilim, ko'nikma va qobiliyatlarini haqiqiy baholashga xizmat qiladi.



5.5-rasm: Baholashda shaffoflikni ta'minlash



Mustahkamlash.

Quyidagi savollarga birma-bir og'zaki javob bering hamda keys topshiriqlarini tengqurlaringiz bilan muhokama qilib mavzuni mustahkamlang.



SAVOLLAR

1. Baholashning adolat va tenglik tamoyili haqida ma'lumot bering.
2. Baholashning shaffoflik tamoyili haqida ma'lumot bering.
3. Baholashda imtihon jarayoniga qadar shaffoflikni ta'minlash uchun nimalar qilish kerak ekan?
4. Baholashda imtihon jarayonida shaffoflikni ta'minlash uchun nimalar qilish kerak ekan?
5. Baholashda imtihon jarayonidan keyin shaffoflikni ta'minlash uchun nimalar qilish kerak ekan?



KEYS

Quyidagi pedagogik vaziyatni o'qing va savolga munosabatingizni bildiring.

Maktabda "A" va "B" guruhlar ishtirokida ingliz tili fandan 4-choraklik summativ baholash tashkil etildi. Bunda o'quvchilarning o'qib tushunishini baholashda futbol haqidagi matndan foydalanildi.

Imtihon "A" guruhda katta, yorug' va salqin xonada tashkil etildi, "B" guruhda esa havo sovutgichlar bilan jihozlanmagan, yorug'lik yetarlicha bo'lmagan, issiq-dim auditoriyada sinov jarayoni tashkil etildi. Bundan tashqari "A" guruhdan Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan

tashkil etilgan tadbirda ishtirok etgan o'quvchilarga yuqori baho qo'yib, imtihondan ozod etildi.

Imtihon natijalari juda kech e'lon qilindi. Ma'lum bo'ldiki, "B" guruh o'quvchilarning aksariyati quyi natija qayd etishdi va bundan norozi ekanligini o'qituvchisiga aytishdi.

Yuqoridagi vaziyatdan kelib quyidagi savollarga javob toping.

1. Imtihonda o'quvchilarning aksariyati quyi natija qayd etishdi, buning boisi nimada deb o'ylaysiz?
2. Ushbu vaziyatda baholashning adolatiligi bilan bog'liq qanday xatoliklarga yo'l qo'yildi?
3. Ushbu vaziyatda baholashning shaffofligi bilan bog'liq qanday xatoliklarga yo'l qo'yildi?

ADABIYOTLAR

1. Jalilov K. (2022) Baholash nazariyasi asoslari. Toshkent. Akademnashr nashriyoti.
2. Standards for Educational and Psychological Testing. (2014) Published by the American Educational Research Association. 230 p.
3. Holden, Ronald B. (2010). "Face validity". In Weiner, Irving B.; Craighead, W. Edward (eds.). The Corsini Encyclopedia of Psychology (4th ed.). Hoboken, New Jersey: Wiley. pp. 637–638. ISBN 978-0-470-17024-3.
4. Roderick P. McDonald. (2013) Test Theory: A Unified Treatment — Psychology Press, 498 p.
5. Tina Isaacs, Catherine Zara, Graham Herbert, Steven J Coombs, Charles Smith. (2013) Key Concepts in Educational Assessment: SAGE, 176 p.
6. Ahmet Salih Şimşek. (2020) Kapsam Geçerliği Yapı Geçerliği Ölçütü Dayanaklı Geçerlik Görünüş Geçerliği. [<https://youtu.be/ZrwjuGOe7t8?si=f0W313xUamwN34mN>]

5.5. Baholash vositalarini ekspertiza qilish

Pedagogika taraqqiyotida ta'lim sifatini baholashning bir qancha shakllaridan foydalanilgan. Masalan, ta'lim sifati suhbat asosida, yozma ishlar asosida baholangan. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ta'lim sifatini baholashda test topshiriqlaridan keng foydalanib kelinmoqda. Buning boisi, test topshiriqlari yordamida ko'p sonli ta'lim oluvchilarni, bitiruvchilarni bir vaqtda baholash imkoni mavjud, shu bilan birga, baholashda inson omilining aralashuvi yuqori darajada cheklanadi. Hozircha inson ta'lim sifatini baholashda testning o'rnini bosuvchi muqobil tizimni qayta yaratmadi. Shunga qaramay hozirgi kunga qadar olimlar o'rtasida ta'lim sifatini baholashda test topshiriqlaridan foydalanish bahsli masala bo'lib kelmoqda. Buning sababi, test topshiriqlarining sifati har doim ham maqsadga muvofiq bo'lavermasligidadir. Buning sababini rus olimi Y.A.Mixaylichev quyidagicha izohlaydi: "Zamonaviy didaktik testologiyada testlarning sifatsizligi asosan ularni shakllantirish jarayonlari bilan bog'liqdir".⁷ Haqiqatan ham, test topshiriqlarini shakllantirish ko'p bosqichli murakkab jarayon bo'lib, testning sifati bu jarayonlarning to'g'ri amalga oshirilishi va soha mutaxassislarining ilmiy va pedagogik saviyasiga bog'liqdir. Test tayyor holatga kelgunga qadar bir qancha nazariy va amaliy bosqichlarni bosib o'tadi. Bular: test spetsifikatsiyasini ishlab chiqish, test topshiriqlarini tuzish va tahrirlash, ekspertiza qilish, aprobatsiyadan o'tkazish, statistik tahlil qilish, tahlil asosida test topshiriqlarini tahrirlash va boshqalar.

Baholash vositalarini ekspertiza qilish turlari. Ekspertiza jarayoni validlik tushunchasi bilan bog'liq bo'lib, uning si-

⁷ Михайлычев Е. А. Дидактическая тестология. – М.: Народное образование, 2001. – 432 с.

fatli amalga oshirilishi validlikning birinchi dalili, ya'ni "testning mazmuni bilan bog'liq dalil"ning muvaffaqiyatli kechishini ta'minlaydi. Testologiyaga oid manbalarda ekspertiza jarayoni odatda to'rtta bosqichda amalga oshirilishi qayd etilgan⁸. Bular dastlabki, ichki, testologik va yakuniy eksperiza.

Yuqoridagilar asosida baholash vositalarni sifatini har tomonlama tekshirish, ekspertiza qilish to'rtta asosiy bosqichga ajratish mumkin:

- *ichki nazariy ekspertiza;*
- *tashqi nazariy ekspertiza;*
- *testologik ekspertiza;*
- *xulosalovchi ekspertiza.*

Ichki nazariy ekspertiza – ta'lim muassasa yoki baholash markazining tegishli soha bo'yicha malakali mutaxassislari tomonidan nazorat ishlari materiallarining baholash qonuniyatlariga mosligini nazariy jihatdan baho berish jarayoni.

Tashqi nazariy ekspertiza – ta'lim muassasasi yoki baholash markaziga boshqa tashkilotdan tegishli sohaning malakali mutaxassislari chaqirtirilib, muhim sinovlar (*yakuniy davlat attestatsiyasi, fan olimpiadalari, ko'rik-tanlovlar v.b.*) uchun tuzilgan test materiallarini baholash qonuniyatlariga mosligini nazariy jihatdan baho berish jarayoni.

Shundan so'ng test topshiriqlari spetsifikatsiyaga muvofiq tarzda 1-, 2-, 3-variantkabitestvariantlariga ajratib olinadi. Keyin esa testning ishonchlilik va validlik ko'rsatkichlarini aniqlash maqsadida topshiriqlar aprotatsiyadan o'tkaziladi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, aprotatsiya imtihon o'tkazish me'yorlariga amal qilgan holatda tashkil etilishi shart. Aprotatsiya natijalari

⁸ Пермяков О.Е., Максимова О.А. Формализация экспертного оценивания качества тестовых материалов с позиций системного подхода // Вестник педагогических инноваций. № 3 (7). Новосибирск, 2006. – 178 с.

testologlar tomonidan matematik-statistik modellar asosida o'rganib, tahlil qilib chiqiladi.

Testologik ekspertiza – yuqori ta'sir kuchiga ega sinovlar uchun shakllantirilgan test materiallari tegishli kontingent (imtihon olinadigan sinflar, kurslar, guruhlar) ishtirokida tajriba-sinov jarayonidan o'tkazilib, testologlar tomonidan ularning validlik va ishonchlilik ko'rsatkichlari aniqlanib, topshiriqlar bo'yicha testologik xulosa berish jarayoni.

Xulosalovchi ekspertiza – sinovlar uchun shakllantirilgan va ekspertiza xulosalari olingan test materiallarini sinov jarayoni boshlanishidan oldin qaytadan so'nggi bor umumiy baho berish jarayoni.

Shundan so'ng yaroqli ekanligi tasdiqlangan test topshiriqlaridan foydalanib, yuqori ta'sir kuchiga ega sinovlarni tashkil etish mumkin.

Baholash vositalarini ekspertiza qilish tartibi. Ekspertizada yaratilgan barcha test topshiriqlari mutaxassislar, ya'ni soha ekspertlari tomonidan tahlil qilinadi va kamchiliklari bar-taraf etiladi. Bu jarayonda ekspertlar tomonidan quyidagilar amalga oshiriladi:

1. Testning tushunarliyligi va aniqligiga e'tibor beriladi.
2. Test topshiriqlarining test yaratish qoidalariga mosligi tekshiriladi.
3. Topshiriqlarining spetsifikatsiya bilan mutanosibligi ko'rib chiqiladi.

Bu jarayonda bir qancha ekspertlar qatnashib, har bir ekspert test topshirig'ining bir jihatini tahlil qilib berishi yoki barcha ekspertlar har tomonlama tahlil qilishlari mumkin. Bunda ekspertlar oldiga aniq maqsadlar qo'yish ekspertiza jarayonining samara-dorligini oshiradi. Bundan tashqari, "odatda ekspertlar soni har bir test uchun uch kishidan kam bo'lmasligi lozim".⁹

⁹ Zakirova M.Sh., Ermatova N.N. Test tuzish metodikasi va ekspertizasi. Toshkent, 2018. – 41 b.

Shuningdek, jarayonda amalga oshiriladigan ishlar fanlarning xususiyatiga ko'ra ham farq qiladi. Chunki aniq fanlar va ijtimoiy-gumanitar fanlardan bilim darajasini tekshirish shakllangan domenning o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Xususan, ona tili orqali o'quvchilarda shakllangan domen va konstruktlarni bevosita tekshirishning iloji yo'q. Shu asosda test ekspertizasi jarayonida mutaxassislar ona tili fanining o'ziga xosligidan kelib chiqqan holda topshiriqlarni ekspertiza qiladi.

Test topshirig'ini nazariy jihatdan ekspertiza qilishda ikki xil talablar mavjud bo'ladi. Bular:

- umumiy talablar;
- xususiy talablar.¹⁰

Umumiy talablar – test topshirig'ining to'g'ri tuzilganligi, uning validligi, ishonchligi, qiyinlik darajasi, ahamiyatlilik darajasi, topshiriqni bajarishga sarflanadigan vaqt, testning bola psixologiyasiga ta'siri, testlarning o'zaro munosabati kabilarni o'z ichiga oladi.

Xususiy talablar – fanga oid talablar bo'lib, fan va uning o'ziga xosligi va mazmunidan kelib chiqib belgilangan talablar hisoblanadi.

Bir so'z bilan aytganda, ekspertiza jarayoni quyidagi tur va talablarga ega:



5.6-rasm. Ekspertiza turlari va talablari

¹⁰ Abduraimov Sh., Ona tilidan test topshiriqlarini ekspertiza qilishning o'ziga xosligi. Axborot-noma: – 2020

Umuman, summativ baholash jarayonida foydalaniladigan baholash vositalari quyidagi talablarga javob berishi kerak:

baholash spetsifikatsiyasining mazmuniy tarkibi davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlarida keltirilgan bilim va ko'nikmalarga mos bo'lishi;

baholash spetsifikatsiyasining mazmuniy tarkibi fan mazmunining barcha muhim jihatlarini qamrab olishi;

har bir topshiriq baholash spetsifikatsiyasiga muvofiq bo'lishi;

har bir topshiriq uchun belgilangan ball topshiriqni bajarishda talab etiladigan amallar murakkabligiga mos bo'lishi;

topshiriqlar davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlarida nazarda tutilmagan bilim va ko'nikmalarini aks ettirmasligi;

topshiriqlar muayyan qatlamlar (shaharda yashovchilar yoki qishloqda yashovchilar, o'g'il bolalar yoki qiz bolalar v.b.) uchun ustunlik taqdim etishi mumkin emas;

har bir topshiriq mustaqil bo'lishi, ya'ni testda ishlatilgan bir test topshirig'i xuddi shu testdagi boshqa test topshirig'ining javobini topishga yordam bermasligi;

topshiriqda ishlatilgan misollar va namunalar darsliklarda aynan keltirilgan bo'lmasligi, balki yangi misollar va namunalar asosida shakllantirilgan bo'lishi;

topshiriq mazmuni faqat test tuzuvchiga ma'lum bo'lgan yoki uning shaxsiy qarashiga mos bo'lgan subyektiv mazmunda bo'lmasligi;

topshiriqning savol qismi ko'plab (uch va undan ortiq) elementlarni hal etishni talab etmasligi;

topshiriqda muammo aniq ifodalanishi, test topshiruvchi uchun tushunarli, sodda va ravon tilda yozilishi, hamma uchun bir xil tushunilishi;

test topshirig'ining savol qismida inkor so'zlarning ishlatilmasligi, agarda ishlatilishga zarurat tug'ilsa, ajratib ko'rsatilishi;

*topshiriq shartida test topshiruvchidan nima talab qilina-
yotganligi (hajmiy va mazmuniy chegaralari) aniq berilishi,
unga ma'lum bir yo'nalish ko'rsatishi;*

*topshiriqlar asosan test topshiruvchidan yuqori darajadagi
kognitiv va kognitiv bo'lmagan ko'nikmalarni ishga solishni ta-
lab qilishi;*

*topshiriqlar murakkabligi va uni bajarish uchun ajratilgan
vaqt bir-biriga mos bo'lishi;*

*topshiriqlar orqali baholanadigan ko'nikmalar nazariy
bilimlarni hayotiy vaziyatlarda qo'llashni talab etishi;*

*amaliy topshiriqlar orqali ham jarayon (topshiriq qanday
bajarilgani), ham natija (yaratilgan mahsulot) baholanishi;*

*topshiriq o'quvchining yoshi, tushunish darajasiga mos bo'li-
shi;*

topshiriqlar o'rtasida ichki bog'liqlik bo'lishi;

*test dizayni ko'rimli bo'lishi, bajarish uchun noqulaylik kelti-
rib chiqarmasligi;*

*topshiriq grammatik, uslubiy, imloviy, ishoraviy, texnik xato-
lardan xoli bo'lishi.*

Test topshiriqlari umumiy va xususiy talablar asosida na-
zariy ekspertizadan o'tkaziladi. Shuningdek, test topshiriqlari
sifatini o'rganayotganda ularning har bir tarkibiy qismini nafa-
qat alohida, balki boshqa test topshiriqlari bilan munosabatlar
tizimida ham baholash zarur.

Umuman, test topshiriqlarini nazariy jihatdan ekspertiza-
dan o'tkazishda, test topshirig'ini testologiya talablariga mos
ekanini, test topshiruvchining haqiqiy bilimini aniqlashga sal-
biy ta'sir qiladigan holatlar bor yoki yo'q ekanligini aniqlashga
asosiy e'tibor qaratiladi.

Quyida ona tili fanidan bitta test misolida nazariy eksperti-
za namunasi berilgan:

Ekspertiza namunasi

1. Qaysi javobdagi ajratib ko'rsatilgan so'z "tez" so'zi bilan o'zaro ma'nodoshlik hosil qila olmaydi?

A) **jizzaki** odam

B) **ko'p** o'ylamoq

C) **jadal** harakatlanmoq

D) **yaqin** kunlarda

1. **Topshiriq metodikasi:** yopiq test: bitta to'g'ri javobli, muqobil javobli test

2. **Mazmun soha:** leksikologiya

3. **Baholanadigan kompetensiya:** o'qib tushunish

4. **Baholanadigan ko'nikma:** leksik sinonimlar farqlash

5. **Topshiriqning qiyinlik darajasi:** 2 daraja

6. **Topshiriqni bajarish uchun sarflanadigan vaqt:** 2 daqiqa

6. **Baholash mezon:** 2 ball

7. **Testning kaliti:** B

8. **Testning ahamiyatlilik darajasi:** o'rta

9. **O'quv dasturiga mosligi:** mos

10. **Distraktorlarning ahamiyatlilik darajasi:** A-o'rta, B-o'rta, C-o'rta

11. **Testning psixologik taqrizi:** yaroqli

12. **Imloviy, uslubiy, ishoraviy va texnik xatolarning mavjudligi bo'yicha:** xatolik mavjud emas.

Ushbu test topshirig'i o'quvchilarning lug'at boyligini tekshirgani bois savol kontekst bilan berilishi maqsadga muvofiq. Testning o'zak(savol) qismi tushunarsiz, mujmal ifoda etilgan. Ma'lumki, bunday holat o'quvchining haqiqiy bilimini aniqlashga, tekshirishga salbiy ta'sir qiladi. Yuqoridagi test topshirig'ini quyidagicha ifoda etish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

“Xarakteri tez odam atrofdagilarni xunob qiladi”. Mazkur gapda ajratib ko'rsatilgan so'z bilan ma'nodoshlik hosil qila oladigan birlikni aniqlang.

- | | |
|------------------------|-----------------------|
| A) yaqin kunlarda | B) shitob bilan oqmoq |
| C) jadal harakatlanmoq | D) jizzaki yigitdan |

Umuman, testlarni ekspertizadan o'tkazish muhim jarayon bo'lib, testlarning sifatini, ishonchliligini va adolatililigini ta'minlash uchun zarur. Bu jarayon orqali testlar yaxshilanadi, baholash jarayonlari yanada adolatli va ishonchli bo'ladi. Shuningdek, ekspertiza jarayonida testlarning dolzarbligi va validligi ta'minlanadi, bu esa baholash natijalarining haqqoniyligini oshiradi.



Mustahkamlash.

Quyidagi savollarga birma-bir og'zaki javob bering hamda keys topshiriqlarini tengqurlaringiz bilan muhokama qilib mavzuni mustahkamlang.



SAVOLLAR

1. Baholash vositalariga qo'yilgan talablar haqida ma'lumot bering.
2. Testlarni ekspertiza qilish qanday tartibda amalga oshirilar ekan?
3. Test topshiriqlarini dastlabki va ichki ekspertiza qilish haqida ma'lumot bering.
4. Test topshiriqlarini testologik va yakuniy ekspertiza haqida ma'lumot bering.
5. Test topshiriqlarini ekspertiza qilish ahamiyati haqida ma'lumot bering.



KEYS

Quyidagi pedagogik vaziyatni o'qing va savolga munosabatingizni bildiring.

“N” fan o'qituvchisi yakuniy nazorat uchun test topshiriqlari bankini shakllantirdi. Imtihon sanasiga kam vaqt qolganligi uchun topshiriqlarni bazaga kiritib yubordi. Mazkur testlardan foydalanib yakuniy imtihonni o'tkazdi. Imtihon tugagach, juda ko'plab o'quvchilar apellyatsiya uchun ariza qoldirishdi. Apellyatsiya jarayonidan ko'plab o'quvchilarga testlardagi xatolik sabab ball qo'shib berishga to'g'ri keldi. Bu “o'qituvchi vazifasini lozim darajada bajarmagan” sifatida baholanib, hayfsan berilishiga olib keldi.

Yuqoridagi vaziyatdan kelib quyidagi savollarga javob toping.

1. Ushbu vaziyatda test topshiriqlarini ekspertizadan o'tkazish yuzasidan qanday xatoliklarga yo'l qo'ydi?
2. Ushbu vaziyatdagi kabi xatolikka muttasil yo'l qo'yish qanday oqibatlariga olib keladi?
3. Ushbu vaziyatdagi xatolikni to'g'rilash uchun siz qanday yo'l tutar edingiz?

ADABIYOTLAR

1. Zakirova M.Sh., Ermatova N.N. (2018) Test tuzish metodikasi va ekspertizasi. Toshkent, 41 b.
2. Abdiraimov Sh.S. Ona tilidan test topshiriqlarini ekspertiza qilishning o'ziga xosligi. Davlat test markazi. Axborotnoma. 2020 №2. 21-27-betlar.
3. Михайлычев Е. А. (2001) Дидактическая тестология. – М.: Народное образование, 432 с.

4. Пермяков О.Е., Максимова О.А. (2006.) Формализация экспертного оценивания качества тестовых материалов с позиций системного подхода // Вестник педагогических инноваций. № 3 (7). Новосибирск, 178 с.
5. Standards for Educational and Psychological Testing. (2014) Published by the American Educational Research Association. 230 p.

VI. TA'LIMDA MONITORING VA BAHO BERISH

6.1. Ta'limda monitoring va uning modellar

Ta'lim sifatini monitoring qilish va baho berishdan oldin ushbu tushunchaning mazmun-mohiyatini aniqlab olish maqsadga muvofiq. Shuni ta'kidlash lozimki, *“ta'lim sifati”* tushunchasining mazmun-mohiyatini izohlashda yakdil qarash mavjud emas. Ta'lim nazariyasida bu tushunchaga muayyan izoh berilgan bo'lsa, real amaliyotda esa bu boshqacha bir mazmunni ifoda etishi ham mumkin. Shuning uchun ham nazariyachilar *“ta'lim sifati”* tushunchasiga umumiy ta'rif berishning iloji yo'qligini ta'kidlashadi. Biroq mavjud tajribalar va nazariy qarashlarni umumlashtirsak, ushbu tushunchaga quyidagicha izoh berish mumkin: *Ta'lim sifati – o'qitishdan kutilayotgan natijalarni amalga oshirish darajasi va mavjud ta'limiy ehtiyojlarni qondirish salohiyati.*

Ushbu tushunchani maktab ta'limi darajasida tushuntiradigan bo'lsak, ta'lim sifati – umumiy o'rta ta'limda davlat ta'lim standartlarini bajartirish darajasi hamda ta'lim muassasasi joylashgan hududdan kelib chiqib, o'quvchilarning boshqa ta'limiy ehtiyojlarini qondirish salohiyati hisoblanadi. Masalan, kichik sanoat hududida joylashgan 21-maktabda ta'lim sifatini ta'minlash uchun quyidagi ishlar qilinadi.

Avvalo, vakolatli tashkilot tomonidan fanlar bo'yicha belgilangan davlat ta'lim standarti talablari bajartiriladi. Qolaversa, o'quvchilarning boshqa ta'lim ehtiyojlari o'rganilib maktabda yetarli darajada berilmayotgan kasbiy va sport ta'limi kabi yo'nalishlarda qo'shimcha to'garaklar faoliyati yo'lga qo'yiladi va o'quvchilar unga jalb etiladi. Shuningdek, yuqori sinflar uchun darsdan tashqari paytda sanoat korxonalarida ishlash uchun lozim bo'lgan ko'nikmalarni shakllantiradigan

boshlang'ich kasbiy ta'limni tashkil etish ham ta'lim sifati hisoblanadi.

Ta'lim tashkilotlarida sifatni ta'minlash uchun uni kuzatib borish kerak.¹

Ta'lim sifatini ta'minlashda ikkita asosiy g'oyadan foydalaniladi: ichki jarayonni optimal tashkil qilish orqali mahsulot sifatini ta'minlash va asosiy manfaatdor tomonlarni qoniqtiradigan sifatga erishish².

Ko'rinadiki, mahsulot sifatli bo'lishi uchun ishlab chiqish, tayyorlash jarayonlarini to'g'ri va optimal tashkil etish lozim. Shuning uchun maktab ta'limida ham ta'lim jarayonlarini to'g'ri va tizimli tashkil etish, mavjud resurslardan samarali foydalanish, xalqaro ta'lim trendlarida ortda qolmaslik va sifat nazoratini olib borish ta'lim sifatini kafolatlaydi.

Ta'limda sifatni nazorat qilishni bir qator modellari mavjud³. Ularning ayrimlari bilan tanishamiz:

Maqsad va texnik ko'rsatkichlar modeli (Goal and Specification Model). Ushbu modelda ta'lim sifati – belgilangan maqsadlarga va ko'rsatkichlarga erishishni anglatadi. Ya'ni ta'lim standartlari va talablarini bajarilishini ta'minlashga urg'u beriladi.

Ushbu modelda sifat ko'rsatkichlari sifatida quyidagi indikatorlar belgilangan:

- ta'lim natijalari;
- xodimlarning kasbiy malakasi;

¹ Willms, J. D. (1992). *Monitoring school performance: A guide for educators*. London, UK: The Falmer Press

² Scherman, V., Bosker, R. J., & Howie, S. J. (Eds.). (2016). *Monitoring the quality of education in schools: Examples of feedback into systems from developed and emerging economies*. Springer. P – 1

³ Scherman, V., Bosker, R. J., & Howie, S. J. (Eds.). (2016). *Monitoring the quality of education in schools: Examples of feedback into systems from developed and emerging economies*. Springer. – P 2-5

- o'quvchilar soni;
- davomat darajasi;
- o'qishni tark etish darajasi;
- shaxsiy rivojlanish.

Ushbu modelda ixtisoslashtirilgan maxsus maktablar sifat bo'yicha yuqori natija qayd etadi. Chunki maktabga qanchalik yuqori salohiyatli o'quvchilar qabul qilinsa, unda sifat ko'rsatkichi shunchalik yuqori bo'ladi.

Jarayon modeli (Process Model). Ushbu modelda ta'lim sifati – sog'lom va izchil ichki jarayonlar hamda samarali o'rgatish tajribasidan kelib chiqib belgilanadi. Ta'lim muassasasidagi o'quv jarayonlari tabiati va sifati – natijalar sifatini hamda belgilangan maqsadlarga erishish darajasini belgilaydi.

Umuman olganda, ta'limni boshqarish, o'qitish va o'rgatish jarayonlari tizimli va sog'lom tashkil etish ta'lim sifatini ta'minlaydi deb qaqraladi.

Ushbu modelda sifat ko'rsatkichlari sifatida quyidagi indikatorlar belgilangan:

- rahbarlik va qaror qabul qilish darajasi;
- faoliyatlarni rejalashtirish va muvofiqlashtirish;
- ta'lim natijalari;
- o'qitish usullari samaradorligi;
- o'quvchilarning o'rganishga munosabati;
- hamkorlik darajasi.

Ushbu model jarayon va natija o'rtasida aniq bog'liqlik mavjud bo'lgan holatlarda samarali hisoblanadi, biroq ta'lim doim ham bunday bo'lavermaydi. Shu bilan birga, ushbu modelning yana bir kamchiligi unda asosiy e'tibor "sifat maqsadlari o'rniga sifat vositalariga"⁴ qaratilishiga ham mumkin.

⁴ Cheng, Y. C., & Tam, W. M. (1997). Mutli-models of quality in education. Quality Assurance in Education, 5(1), p-26.

Qoniqish modeli (*Satisfaction Model*). Ushbu modelda ta'lim sifati – manfaatdor tomonlarning ehtiyojlari va kutilmalariga o'qitish natijalari qay darajada mos kelishi orqali aniqlanadi. Ya'ni ta'lim iste'molchilari, manfaatdor tomonlarning berilgan ta'limdan qoniqish darajasi hisoblanadi. Mazkur modelda sifat ko'rsatkichi indikatorlari manfaatdor tomonlardan so'rovnoma olish orqali belgilanadi. Bu esa vaqt o'tishi va hududiy nuqtayi nazardan ta'lim sifati nisbiy tushunchaga aylanishiga olib keladi. Har bir hudud o'zining geografik joylashuvi va iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish darajasidan kelib chiqib, ta'lim oldida muayyan talablarni qo'yadi va shu talablarga erishilishini kutadi. Shuning uchun bu model manfaatdor tomonlar bilan yaqin hamkorlikni talab qiladi.

Umumiy sifat menejmenti modeli (*Total quality management model*). Ushbu modelda ta'lim sifati – ta'limning boshlanishidagi natijalar, o'qitish jarayonlari va tugashidagi natijalarning majmui sifatida ko'rib chiqiladi. Bunda jarayon ta'lim ichki va tashqi manfaatdor tomonlarni qondirish bilan yakunlanadi. Ya'ni ta'lim beruvchilar va ota-onalar, jamiyatning maqsadlari va ehtiyojlari bir-biriga mutanosib bo'ladi.

Ushbu modelda sifat ko'rsatkichlari sifatida quyidagi indikatorlar belgilangan:

- rahbarlik va qaror qabul qilish darajasi;
- strategik rejalashtirish darajasi;
- xodimlarni boshqarish salohiyati;
- jarayonlarni boshqarish;
- ta'lim natijalari;
- manfaatdor tomonlarning qoniqish darajasi.

Ushbu model ta'lim muassasalarida ichki jarayonlarning samaradorligini oshirish, natijalarni optimallashtirish va barcha manfaatdor tomonlarning qoniqishini ta'minlashda yordam beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, turli modellardan foydalanib ta'lim sifatini monitoring qilish, monitoring natijalari asosida qarorlar qabul qilish sifatini oshishiga, ta'lim natijalarini yaxshilanishiga olib keladi.



Mustahkamlash.

Quyidagi savollarga birma-bir og'zaki javob bering hamda keys topshiriqlarini tengqurlaringiz bilan muhokama qilib mavzuni mustahkamlang.



SAVOLLAR

1. "Ta'lim sifati" tushunchasining mazmun-mohiyatiga izoh bering.
2. Ta'lim sifatini nazorat qilishning Maqsadlar va texnik ko'rsatkichlar modelining afzalligi va kamchiliklarini izohlang?
3. Ta'lim sifatini nazorat qilishning Jarayon modelining afzalligi va kamchiliklarini izohlang?
4. Ta'lim sifatini nazorat qilishning Qoniqish modelining afzalligi va kamchiliklarini izohlang?
5. Ta'lim sifatini nazorat qilishning Umumiy sifat menejmenti modelining afzalligi va kamchiliklarini izohlang?



KEYS

Quyidagi ta'limiy vaziyatni o'qing va savolga munosabatingizni bildiring.

Xususi maktabda ichki monitoringni o'tkazishdan oldin o'quvchilarning ota-onalaridan so'rovnoma olindi.

So'rovnomada ulardan ta'limdan kutilayotgan asosiy kutilmalari nima ekanligini aniqlash maqsad qilingan edi. So'rovnoma natijalari tahlil qilinganda ota-onalar bolalarini ingliz tilini va matematikani mukammal bilishini kutayotgani ma'lum bo'ldi. Shundan so'ng doim ikki fandan ichki monitoring tashkil etilib kelindi. Ota-onalar kutganidek bolalari matematika va ingliz tilini chuqur o'rganishdi. Biroq Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlarida Davlat tili va tarixini bilish bo'yicha jiddiy muammolari mavjud ekanligi aniqlandi. O'quvchilarning aksariyati sinovlardan o'ta olmadi qayta-qayta tayyorgarliklardan so'ng minimal ball bilan sinovlardan o'tishdi.

Yuqoridagi vaziyatdan kelib quyidagi savollarga javob toping.

1. Ushbu vaziyatda xususiy maktabda ta'lim sifati bo'yicha ichki monitoringda qanday jiddiy xatolikka yo'l qo'yildi, sababi nimada?
2. Ushbu vaziyatda xususiy maktabda ta'lim sifati bo'yicha ichki monitoringni tashkil etishda qaysi modeldan foydalanildi?
3. Ushbu vaziyatda xususiy maktabda ta'lim sifati bo'yicha ichki monitoringni tashkil etishda menejerlar qanday yo'l tutishi lozim edi?

ADABIYOTLAR

1. Willms, J. D. (1992). Monitoring school performance: A guide for educators. London, UK: The Falmer Press
2. Scherman, V., Bosker, R. J., & Howie, S. J. (Eds.). (2016). Monitoring the quality of education in schools: Examples of feedback into systems from developed and emerging economies. Springer.
3. Mayer, D. P., Mullens, J. E., Moore, M. T., & Ralph, J. H. (2000). Monitoring school quality: An indicators report. US De-

partment of Education, Office of Educational Research and Improvement.

4. Cheng, Y. C., & Tam, W. M. (1997). Mutli-models of quality in education. *Quality Assurance in Education*, 5(1), 22–31.
5. Jaap Scheerens. Cees Glas, Sally M.Thomas. Educational evaluation, assessment, and monitoring. A systemic approach. Lisse abingdon exton (pa) Tokyo.

6.2. Ta'lim sifatini monitoring qilish turlari

Ta'lim jarayonining muhim qismi monitoring va baho berish hisoblanadi. Bu o'qitish va o'rganish jarayonlari haqida "qiymatli ma'lumotlar" yig'ish va u asosida qarorlar qabul qilishda ahamiyatli hisoblanadi.

Monitoring [inglizcha, – kuzatish, nazorat qilish] – 1) biron-bir jarayonni uning kutilgan natija yoki dastlabki taxminga muvofiqligini aniqlash maqsadida doimiy kuzatib borish; 2) muayyan voqelikni tekshiruvchi, nazorat etuvchi va uning natijalarini umumlashtiruvchi jarayon.⁵

Ta'lim sifatini tahlil va monitoring qilish murakkab jarayon bo'lib, o'quv jarayonini o'rganish, tahlil qilish va sifat jihatdan baho berish hamda baholashning qayta aloqasini ta'minlashni o'z ichiga oladi.

Ta'limda monitoring – milliy ta'lim tizimining yutuqlarini, ta'lim dasturlari va o'qitish kontentlari (darslik, multimedia vositalari va boshqalar)ning samaradorligini, maktabdagi ta'lim sifati va muhitini, o'qituvchilar salohiyatini, o'quvchilarning shaxsiy muvaffaqiyatlarini aniqlash orqali ta'lim tashkilotlarini davlat akkreditatsiyadan o'tkazish, ularda javobgarliklarni oshirish

⁵ Pedagogika ensiklopediyasi. II jild. – Toshkent, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 2015. 318 b.

va o'zini-o'zi takomillashtirish choralari tavsia etish jarayoni. Bunda ta'lim jarayonining borishi, uning uslubiy va tashkiliy jihatdan ta'minlanganligi kuzatiladi, tahlil qilinadi, baho beriladi va sifat ko'rsatkichlari aniqlanib, qarorlar qabul qilinadi.

Ta'limda monitoring quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi:

- o'quv jarayonining belgilangan standart va talablari asosida olib borilayotganligini tekshirish;

- ta'lim tashkilotlarida o'qitish sifati va samaradorligini aniqlash;

- o'quv jarayonining tashkiliy va uslubiy jihatdan ta'minlanganligini aniqlash;

- ta'lim tashkilotida ta'lim muhitining mavjud holatini o'rganish;

- o'qituvchilar tomonidan ta'lim jarayoniga oid hujjatlarga rioya etilishini o'rganish;

- o'qituvchilar tomonidan zamonaviy o'qitish metodikasidan foydalanish holatini o'rganish;

- o'quvchilarning fanlarni o'zlashtirish va sifat ko'rsatkichlarini aniqlash;

- o'quvchilarning ta'lim berish samaradorlikko'rsatkichlarini aniqlash;

- o'quv jarayoni sifatini oshirish va faoliyatini takomillashtirish bo'yicha maktab, boshqaruv sohasi, sinflar va fanlar kesimida tavsiyalar kiritish;

- ta'lim sifatiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash.

Ta'lim monitoringi va baholashning asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat⁶:

- a) attestatsiya va akkreditatsiya qilish;

- b) javobgarlikni oshirish;

- c) o'zini-o'zi takomillashtirish.

⁶ Jaap Scheerens. Cees Glas, Sally M. Thomas. Educational evaluation, assessment, and monitoring. A systemic approach. Lisse abingdon exton (pa) Tokyo.

Monitoringda ta'lim jarayonining borishi, uning uslubiy va tashkiliy jihatdan ta'minlanganligini kuzatiladi, tahlil qilinadi, baho beriladi va sifat ko'rsatkichlari aniqlanib, xulosa beriladi.

Monitoring va baholashning obyekti quyidagilar bo'lishi mumkin:

- *ta'lim tizimi;*
- *o'quv dasturi va standartlar;*
- *ta'lim muassasasi faoliyati;*
- *ta'lim beruvchining faoliyati;*
- *ta'lim oluvchining o'zlashtirishi.*

Monitoring vakolatli tashkilot tomonidan tashkil etiladi va o'tkaziladi. Monitoring natijalari quyidagi uchta asosiy ma'lumot orqali shakllantiriladi⁷:

- *ta'lim oluvchilarning yutuqlari va baholash natijalari;*
- *tashkiliy-boshqaruvga oid ma'lumotlar va tavsiflovchi statistikalar;*
- *ekspert tekshiruvi yoki tizimli so'rovnomalar natijalari.*

Bu ma'lumotlar korrelyatsiyasi asosida muhim qarorlar qabul qilinadi.

Odatda, ta'limda monitoringning qamroviga ko'ra ikki turi farqlanadi.

1. *Tizim darajasidagi monitoring.*
2. *Ta'lim muassasasi darajasidagi monitoring.*

1. Tizim darajasidagi monitoring. Bunda davlatning ta'lim tizimi milliy yoki xalqaro miqyosda monitoring qilinadi va baho beriladi. Bu monitoring tizimida respublika miqyosida rejali monitoringlar o'tkazish yoki xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etish orqali amalga oshirilib, yutuqlar va yaxshilanishi kerak bo'lgan jihatlar aniqlanadi.

⁷ Jaap Scheerens. Cees Glas, Sally M. Thomas. Educational evaluation, assessment, and monitoring. A systemic approach. Lisse abingdon exton (pa) Tokyo.

2. Ta'lim muassasasi darajasidagi monitoring. Bunda respublika miqyosida vakolatli tashkilotlar yoki maktab rahbariyati tashabbusi bilan maktabdagi ta'lim sifati va muhitini, o'qituvchilar salohiyatini, o'quvchilarning shaxsiy muvaffaqiyatlari, o'qitish natijalari va sifatini aniqlash maqsadida rejali monitoring o'tkaziladi. Monitoring natijalari asosida maktab miqyosida *tashkiliy-boshqaruv, o'qituvchilar malakasini oshirish, o'qitish sifatini yaxshilash* hamda "ota-ona – o'quvchi – o'qituvchi" hamkorligini ta'minlash sohalarida asosli qarorlar qabul qilinadi.

Bundan tashqari monitoring va baholash kim tomonidan o'tkazilishga ko'ra ham ikki turi farqlanadi:


- *ichki monitoring;*
- *tashqi monitoring.*

Ichki monitoring – ta'lim muassasasida o'qituvchilar va o'quvchilar faoliyatini baholash, ta'lim sifatini tekshirish, ta'lim muhitini nazorat qilish, o'qituvchilarning ota-onalar bilan kallobaratsiya darajasini aniqlash jarayoni hisoblanadi. Ichki monitoring maktab rahbariyati tomonidan ta'lim sifatining mavjud holatini aniqlash, rivojlanish uchun zaruriy choralarni ko'rish maqsadida tashkil etiladi va o'tkaziladi.

Tashqi monitoring – vakolatli tashkilot va u bilan kelishilgan holda jamoat tashkilotlari hamda talabgorlar tomonidan ta'lim tashkilotidagi ta'lim sifatini tekshirish uchun normativ hujjatlarda belgilangan tartibda o'tkaziladigan baholash jarayoni.

Umuman, ta'lim tizimida ta'lim sifati bo'yicha monitoring-ni bir qancha turlaridan foydalaniladi. (6.1-rasmga qarang.)

Umuman, ta'lim samaradorligini oshirish va ta'limga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash maqsadida ta'lim muassasalarida monitoring va baholash muntazam tashkil etilib boriladi.



6.1-rasm. Monitoring turlari



Mustahkamlash.

Quyidagi savollarga birma-bir og'zaki javob bering hamda keys topshiriqlarini tengqurlaringiz bilan muhokama qilib mavzuni mustahkamlang.



SAVOLLAR

1. "Ta'lim sifatini monitoring qilish" tushunchasining mazmun-mohiyatiga izoh bering.
2. Ta'lim sifatini monitoring qilishning qanday turlari farqlanadi?
3. Ta'lim sifatini monitoring qilishning obyektlari qaysilar?
4. Ichki monitoringni o'tkazishdan asosiy maqsad nima?
5. Xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etishdan bosh maqsad nima?



KEYS

Quyidagi ta'limiy vaziyatni o'qing va savolga munosabatingizni bildiring.

“A” va “B” maktablarda ichki monitoring muntazam tashkil etildi. “A” maktabda ichki monitoring sinovlarida o'quvchilarning bilish darajasi yopiq test topshiriqlari yordamida baholandi. Ushbu maktabda ichki monitoringni tashkil etish oson va qulay kechdi. “B” maktabda tashkil etilgan ichki monitoring sinovlarida esa turli amaliy topshiriqlar yordamida o'quvchilarning funksional savodxonlik darajasi baholandi. Bu esa jarayonni tashkil etishda biroz ortiqcha vaqt va resurs talab qildi. PISA xalqaro baholash dasturida har ikki maktab o'quvchilari ishtirok etdi. “B” maktabning o'quvchilari jahon bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan yuqori natija qayd etishdi. “A” maktab o'quvchilari esa eng quyi natija qayd etishib, O'zbekiston natijasiga salbiy ta'sir qildi.

Yuqoridagi vaziyatdan kelib quyidagi savollarga javob toping.

1. Ushbu vaziyatda “A” maktab o'quvchilari PISA xalqaro baholash dasturida nega quyi natija qayd etishdi, sababi nimada?
2. Ushbu vaziyatda “B” maktab o'quvchilari PISA xalqaro baholash dasturida natijalari ijobiy bo'lishning asosiy omili nimada deb o'ylaysiz?
3. Ushbu vaziyat asosida monitoringni tashkil etish bo'yicha qanday xulosaga keldingiz?

ADABIYOTLAR

1. Jaap Scheerens. Cees Glas, Sally M.Thomas. Educational evaluation, assessment, and monitoring. A systemic approach. Lisse abingdon exton (pa) Tokyo.

2. Pedagogika ensiklopediyasi. I–III jildlar. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. 2015.
3. Каримов Р.Қ. Умумий ўрта таълим давлат таълим стандартлари мониторингини таъминлашнинг педагогик асослари: пед.фан.номз. ... дис. – Тошкент, 2006. – 181 б.

6.3. Ta'lim muassasasida monitoring o'tkazish tartibi

Ta'lim muassasasida ta'lim sifati bo'yicha tashkil etilgan monitoring va baholashda o'quvchilarni o'qish va o'rganish darajasini aniqlash, ta'lim sifatini tekshirish, o'qituvchilar va rahbar xodimlar faoliyatini baholash, ota-onalar bilan hamkorlik darajasini aniqlash hamda ta'lim muhitini nazorat qilish jarayoni hisoblanadi.


Ta'lim muassasasida monitoring maktab rahbariyati yoki vakolatli tashkilot va birlashmalar tomonidan amalga oshiriladi. Dastlab, ichki monitoring haqida to'xtalamiz.

Ichki monitoring maktab rahbariyati tomonidan ta'lim sifatining mavjud holatini va ta'limdagi bo'shliqlarni aniqlash, ta'limni rivojlantirish uchun zaruriy choralarni ko'rish maqsadida tashkil etiladi.

Ta'lim muassasasida ichki monitoring quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi(6.2-rasmga qarang):

1. Rejalashtirish bosqichi. Bu bosqichda ichki monitoring rejasi tuziladi, mas'ullar va amalga oshiriladigan chora-tadbirlar belgilanadi hamda Pedagogik kengashda monitoring rejasi muhokama qilinib, tasdiqlanadi. Shu asosida ichki monitoringni tashkil etish yuzasidan rahbar buyrug'i chiqarilib, ijroga yo'naltiriladi.

2. Tayyorlanish bosqichi. Bu bosqichda ichki monitoring rejasiga muvofiq sinflar kesimida o'quv fanlaridan test topshiriqlari banki shakllantiriladi va baholash mezonlari ishlab chiqiladi. Shuningdek, o'qitish sifati, maktabdagi va oiladagi ta'lim muhiti, boshqaruv samaradorligi kabilar yuzasidan o'qituvchilar, o'quvchilar va ularning ota-onalari uchun so'rovnomal banki shakllantiriladi.



6.2-rasm. Monitoring bosqichlari

3. Imtixon va baholash bosqichi. Bu bosqichda ichki monitoring sinovlari va so'rovnomalari o'tkaziladi va natijalari tekshirilib baholanadi. Sinovlarni va so'rovnomalarni o'tkazishda obyektivlik va shaffoflikka alohida e'tibor qaratiladi. Agarda imtixon va so'rovnomal banki obyektiv tashkil etilmasa, natijalar va ular asosida chiqarilgan xulosalar valid-yaroqli bo'lmaydi.

4. Monitoring va baho berish bosqichi. Bu bosqichda ichki monitoring imtihoni va so'rovnomalari natijalarini o'quvchilar, sinflar, o'qituvchilar va maktab kesimida tahlil etiladi va natijalar asosida ta'lim sifati va muhitini yaxshilashga qaratilgan qarorlar qabul qilinadi. Jumladan, har bir o'qituvchining kasbiy rivojlanishga bo'lgan ehtiyojlari, har bir o'quvchining ta'limiy yutuq va bo'shliqlari, ta'lim muassasasidagi mavjud shart-sharoitlarni yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Shuningdek, ichki monitoring natijalari pedagogik xodimlar o'rtasida umumiy muhokama qilinadi hamda o'quvchilar va ularning ota-onalari ishtirokida alohida muhokama qilinadi. Monitoring va baholash siklining yakuniy bosqichida o'lchash va baholash natijalari haqida hisobot tayyorlanadi. Shundan so'ng ta'lim samaradorligini oshirish uchun yo'l xaritasi ishlab chiqilib, keyingi o'quv yiliga qadar vazifalar amalga oshiriladi.

Monitoring sinovlarida o'quvchilar test topshiriqlarini bajaradi va ta'lim ishtirokchilari(o'qituvchi, o'quvchi va ota-onalar) so'rovnomalarga javob berishadi.

Bunda, avvalo, fan bo'yicha davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarida belgilangan maqsadga erishilganlik darajasini aniqlashga imkon beradigan topshiriqlar yordamida fanlar bo'yicha o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi aniqlanadi. Qo'laversa, o'qituvchilardan, o'quvchilar va ularning ota-onalaridan so'rovnomalar olinadi. Bunda o'quvchilardan olinadigan so'rovnomalar mazmuni ta'lim sifati va unga ta'sir qiluvchi omillar, maktabdagi, oiladagi ta'lim muhitiga, ota-onalardan olinadigan so'rovnomalar mazmuni maktabdagi ta'lim sifati va muhiti bo'yicha, o'qituvchilardan olinadigan so'rovnomalar esa maktabda yaratilgan shart-sharoitlar va maktabni boshqarish sohalariga doir bo'ladi. Quyida o'quvchilardan olinishi mumkin bo'lgan so'rovnoma namunasi berilgan.

SO'ROVNOMA

Ushbu so'rovnoma o'quvchilarning ona tili va adabiyot fanidan dars samaradorligi va o'qitish sifatini aniqlash maqsadida tashkil etilmoqda.

Demografik ma'lumotlar:

Ism, familiyangiz:

Javob: _____

Otangizning kasbi:

Javob: _____

Onangizning kasbi:

Javob: _____

DARS SIFATI

1. O'qituvchingizning o'z fanini bilish darajasi – fanga oid nazariy bilimlarni chuqur bilishi va amaliy ko'nikmalarga ega ekanligi, o'quvchilar bergan savollarga batafsil javob bera olishiga baho bering.

☐ 5 ☐ 4 ☐ 3 ☐ 2 ☐ 1

2. O'qituvchingizning dars berish metodikasiga – mavzuni yaxshi tushuntirib berishi, o'qitish jarayonida darsga mos o'qitish metodlari, texnologiyalari va usullaridan samarali foydalanish darajasiga baho bering.

☐ 5 ☐ 4 ☐ 3 ☐ 2 ☐ 1

3. O'qituvchingizning auditoriyani boshqarish, o'quvchilarni tinchlantira olish, ularni darsga qiziqitira olish qobiliyati – pedagogik-psixologik kompetensiyasiga baho bering.

☐ 5 ☐ 4 ☐ 3 ☐ 2 ☐ 1

4. O'qituvchingizning ta'lim jarayonida kompyuter qurilmalaridan, internet manbalaridan, raqamli vositalardan, sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanishi – raqamli savodxonlik darajasiga baho bering.

☐ 5 ☐ 4 ☐ 3 ☐ 2 ☐ 1

5. O'qituvchingizning o'quvchilar bilan samarali muloqot qilishi, ular bilan samimiy aloqa o'rnatganligi, pedagog etikasiga amal qilishiga baho bering.

☐ 5 ☐ 4 ☐ 3 ☐ 2 ☐ 1

6. O'qituvchingizning o'quvchilarni xolis, mezonlarga tayanib, haqqoniy baholash qobiliyatiga – baholash savodxonlik darajasiga munosabat bildiring.

☐ 5 ☐ 4 ☐ 3 ☐ 2 ☐ 1

7. O'qituvchingizning fan kontenti sifatiga, ya'ni mavzular bo'yicha taqdimotlar, topshiriqlar sifatiga va qiziqarli ekanligiga baho bering.

☐ 5 ☐ 4 ☐ 3 ☐ 2 ☐ 1

8. O'qituvchingizning o'quvchilar bilan ishlash darajasiga baho bering.

☐ Faqat yaxshi o'zlashtiradigan o'quvchilar bilan dars o'tadi.

☐ Faqat o'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchilar bilan dars o'tadi.

☐ Ham past, ham yaxshi o'zlashtiradigan o'quvchilar bilan ishlaydi.

☐ Na past, na yaxshi o'zlashtiradigan o'quvchilar bilan ishlaydi.

9. O'qituvchingizning o'g'il va qiz bolalar bilan munosabati, ya'ni gender tengligiga amal qilish darajasiga baho bering.

☐ Faqat o'g'il bolalarga yaxshi munosabatda bo'ladi.

☐ Faqat qizlarga yaxshi munosabatda bo'ladi.

☐ Ham o'g'il, ham qiz bolalarga yaxshi munosabatda bo'ladi.

☐ Na o'g'il, na qiz bolalarga yaxshi munosabatda bo'ladi.

10. Ona tili va adabiyot fanini yanada qiziqarli bo'lishi, fan sifatini oshirish bo'yicha taklif va mulohazalaringizni yozing.

Javob: _____

OILADAGI TA'LIM MUHITI

1. Uyga vazifalarni bajarish uchun qancha vaqt ajratasiz?

☐ 0-30 daqiqa

☐ 31- 60 daqiqa

☐ 1-3 soat

☐ 3 soatdan ko'p

☐ uyga vazifalarni tayyorlamayman.

2. Uyga vazifalarni bajarishda sizga kim yordam beradi?

☐ otam

☐ onam

☐ aka-opam

☐ buvi-buvam

☐ hech kim

3. Uyda bo'sh vaqtingizda nimalar bilan band bo'lasiz?

☐ Badiiy kitob o'qiymen.

☐ Sport bilan shug'ullanaman.

☐ Uy ishlariga qarashaman.

☐ Internetda vaqtimni o'tkazaman.

☐ Xonamda uxlashni yoqtiraman.

☐ Korxona va boshqalarda ishlayman.

4. Odatda, har kuni necha sahifa badiiy asar o'qiysiz?

☐ 0-10 sahifa

☐ 11- 20 sahifa

☐ 21-30 sahifa

☐ 30 sahifadan ko'p

☐ muntazam badiiy asar o'qimayman.

5. Oilada nechanchi farzandsiz?

☐ to'ng'ich farzand

☐ kenja farzand

☐ ikkinchi farzand

☐ uchinchi farzand

☐ to'rtinchi farzand

☐ _____

6. Sizga uyda dars qilishingiz uchun ota-onangiz shaxsiy kompyuter olib berishganmi?

☐ ha

☐ yo'q

7. Sizga uyda dars qilishingiz uchun dars stoli olib berishganmi?

☐ ha

☐ yo'q

8. Sizga uyda dars qilishingiz uchun doimiy internet bormi?
☐ ha ☐ yo'q
9. Ota-onangiz fan bo'yicha qanday baholarda o'qiyotganingiz bilan qiziqishadimi?
☐ ha, doim ☐ yo'q, aslo ☐ ha, ba'zan
10. Ota-onangiz sizni kelajakda buyuk inson bo'lishingizga undashadimi?
☐ ha, doim ☐ yo'q, aslo ☐ ha, ba'zan

MAKTABDAGI TA'LIM MUHITI

1. Maktabingizning sport zali bormi?
☐ ha ☐ yo'q
2. Maktabingizda dars qilish uchun kutubxona bormi?
☐ ha ☐ yo'q
3. Maktabingizda hamma foydalanadigan tekin internet bormi?
☐ ha ☐ yo'q
4. Maktabingizning katta uzumzor, olmazor va boshqalardan iborat bog'-rog'i bormi?
☐ ha ☐ yo'q
5. Maktabingizda nonushta qilish uchun oshxona bormi?
☐ ha ☐ yo'q
6. Maktabingizda ichish uchun toza ichimlik suvi bormi?
☐ ha ☐ yo'q
7. Maktabingizda foydalanish uchun doimiy ochiq turadigan kompyuter xonasi bormi?
☐ ha ☐ yo'q
8. Maktabingizda mushoira, badiiy kechalar o'tkazilib turadimi?
☐ ha, tez-tez ☐ yo'q, aslo ☐ ha, ba'zan
9. Maktabingizda sinfdoshlaringiz orasida janjal bo'lib turadimi?

☐ ha, tez-tez☐ yo'q, aslo☐ ha, ba'zan

10. Maktabingizda ona tili va adabiyot fani o'qituvchingiz o'rniga boshqa fan o'qituvchilar dars o'tishadimi?

☐ ha, tez-tez☐ yo'q, aslo☐ ha, ba'zan

Ichki monitoring natijalarini tahlil qilish. O'quvchilarning fanlar kesimida nazorat ishlaridan olgan natijalarini tahlil qilish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1. *Fan bo'yicha o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichini aniqlash.*

2. *Fan bo'yicha o'quvchilarning sifat ko'rsatkichini aniqlash.*

Bu ikki fan bo'yicha o'qitish samaradorligini aniqlashda muhim hisoblanadi.

1. Fan bo'yicha o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichini aniqlash. Bunda nazorat ishlari natijalari tahlil etiladi.

$$\frac{Q}{S} * 100 = U$$

Fan bo'yicha o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

Q – sinfdagi o'quvchilarning fan bo'yicha “qoniqarli” va undan yuqori baho olganlari miqdori;

S – sinfdagi o'quvchilarning umumiy soni;

U – fan bo'yicha o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichi.

2. Fan bo'yicha o'quvchilarning sifat ko'rsatkichini aniqlash. Bunda ham nazorat ishlari natijalari tahlil etiladi. Fan bo'yicha o'quvchilarning sifat ko'rsatkichi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$\frac{T}{S} * 100 = K$$

T – sinfdagi o'quvchilarning fan bo'yicha "yaxshi" va undan yuqori baho olganlari miqdori;

S – sinfdagi o'quvchilarning umumiy soni;

K – fan bo'yicha o'quvchilarning sifat ko'rsatkichi.

Masalan, maktabda matematika fani o'qituvchisining dars beradigan sinflarning natijalarini tahlil qilib ko'ramiz. (6.1-jadvalga qarang.)

6.1-jadval

Matematika fani o'qituvchisining dars beradigan sinflarning natijalari

O'quvchilar F.I.Sh.	O'quvchi natijasi ballda	O'quvchi natijasi bahoda
A o'quvchi	87	a'lo
B o'quvchi	68	qoniqarli
D o'quvchi	58	qoniqarli
E o'quvchi	62	qoniqarli
F o'quvchi	80	yaxshi
G o'quvchi	79	yaxshi
H o'quvchi	82	yaxshi
N o'quvchi	60	qoniqarli
L o'quvchi	62	qoniqarli
I o'quvchi	25	qoniqarsiz

Ushbu matematika fani o'qituvchisi dars beradigan o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichi $\frac{9}{10} * 100 = 90$ foizni tashkil etmoqda. Mazkur fandan 10 foizni o'quvchilar belgilangan minimal talabni ham bajara olmagan. Ushbu o'quvchilarning boshqa fanlardan o'zlashtirish darajasiga va so'rovnoma bergan javoblariga tayanib, natijalarni yaxshilash uchun tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Ushbu o'quvchilarning sifat ko'rsatkichi $\frac{4}{10} * 100 = 40$ foizni tashkil etmoqda.

Maktab kesimida natijani aniqlash tartibida ham xuddi shu formuladan foydalaniladi. Masalan, 21-maktabda 2023/2024-o'quv yilining birinchi yarim yilligi yakunida 6 ta fandan ichki monitoring o'tkazildi. Maktabda 260 nafar o'quvchi mavjud. Bunda ham shu yondashuvdan foydalaniladi. Avvalo, har bir fandan qoniqarsiz, qoniqarli, yaxshi va a'lo o'zlashtirgan o'quvchilar ro'yxati shakllantirib olinadi. (6.2-jadvalga qarang.)

6.2-jadval


21-maktabda 2023/2024-o'quv yilining birinchi yarim yilligi yakunida tashkil etilgan ichki monitoring natijalari

T/R	Fan	Natijalar			
		A'lo	Yaxshi	Qoniqarli	Qoniqarsiz
1	Ona tili	30	100	122	8
2	Matematika	25	85	143	7
3	Tarix	40	90	125	5
4	Chet tili	45	95	109	11
5	Informatika	35	116	100	9
6	Jismoniy tarbiya	70	140	50	0
	Jami	245	626	649	40

Shundan so'ng formulaga qo'yib, maktabdagi sifat ko'rsatkichi va o'zlashtirish ko'rsatkichi aniqlanadi (6.3-rasmga qarang.).

Ushbu maktabda o'zlashtirish $\frac{1520}{1560} * 100 = 97$ ko'rsatkichi foizni tashkil etmoqda. Mazkur fandan 3 % o'quvchilar belgilangan minimal talabni ham bajara olmagan. Ushbu o'quvchilarning so'rovnoma bergan javoblari tahlil etilib, fanlarni o'zlashtira olmaganlik sababi aniqlanadi va natijalarni yaxshilash uchun psixologlar chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqadi.

Ushbu maktabda sifat ko'rsatkichi $\frac{871}{1560} * 100 = 58$ foizni tashkil etmoqda.



6.3-rasm. 21-maktabning 2023/2024-o'quv yilining birinchi yarim yilligi yakunida ichki monitoring natijalari

Demak, 21-maktabda 2023/2024-o'quv yilining birinchi yarim yilligi yakuniga ko'ra ta'lim sifati ko'rsatkichi 58 foizni, davlat ta'lim standartini bajartirish ko'rsatkichi 97 foizni tashkil etmoqda, deyish mumkin.

Shundan so'ng so'rovnoma va o'quvchilar natijalarini o'zaro qiyoslab ta'lim sifatini yaxshilash maqsadida fan o'qituvchilarga o'z fanini bilish darajasini, dars berish metodikasini, pedagogik-psixologik kompetensiyasi, pedagog etikasi, estetikasini oshirish va raqamli savodxonlik, baholash ko'nikmalarini rivojlantirish hamda fan kontentini yanada yaxshilash, ota-onalarga oiladagi ta'lim muhitini yaxshilash, maktab rahbariyatiga maktabdagi ta'lim muhiti va shart-sharoitlarini yaxshilash yuzasidan tavsiyalar berish mumkin. Shu bilan birga, fan o'qituvchilari va ota-onalar o'rtasida ta'lim muhiti va boshqaruv samaradorligini oshirish yuzasidan so'rovnomalar tashkil etib, natijalari asosida boshqaruv samaradorligini yaxshilash yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish mumkin.

Tashqi monitoring ham shunga yaqin mezonlar asosida tashkil etiladi. O'zbekiston Respublikasida "Maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarini attestatsiyadan hamda davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasi qarorida belgilangan tartibga ko'ra tashqi monitoringlar tashkil etiladi.



Mustahkamlash.

Quyidagi savollarga birma-bir og'zaki javob bering hamda keys topshiriqlarini tengqurlaringiz bilan muhokama qilib mavzuni mustahkamlang.



SAVOLLAR

1. Ichki monitoring bosqichlari haqida ma'lumot bering.
2. Ta'lim sifati ko'rsatkichi qanday aniqlanadi?
3. O'zlashtirish ko'rsatkichi qanday aniqlanadi?
4. Ichki monitoring va nazorat ishining (summativ baholashning) nima farqi bor?
5. Tashqi monitoring va ichki monitoringning asosiy farqlari nimada?



KEYS

Quyidagi ta'limiy vaziyatni o'qing va savolga munosabatingizni bildiring.

Pedagogik kengashning qarori asosida maktabda ta'lim sifati bo'yicha ichki monitoringni o'tkazish yuzasidan ishchi guruh tuzildi. Bunda dastlab ishchi guruh tomonidan

test topshiriqlari banki shakllantirildi va shundan so'ng ichki monitoring o'tkazildi. Ichki monitoring natijasi asosida o'zlashtirishi bo'sh o'quvchilar bilan ishlash reja-grafigi tuzildi va natijasi past bo'lgan o'qituvchilarga qo'shimcha darslar o'tishi belgilandi. Bunga o'qituvchilar norozi bo'lib, e'tiroz bildirdi, biroq e'tiroz o'rinsizligi ta'kidlandi. Samarali dars berayotgan o'qituvchilar uchun esa direktor jamg'armasidan qo'shimcha rag'batlantirish berilishi belgilandi.

Yuqoridagi vaziyatdan kelib quyidagi savollarga javob toping.

1. Ushbu vaziyatda e'tiroz bildirgan o'quvchilarning harakatiga qanday baho berasiz, e'tirozlari o'rinli yoki o'rinsiz ekanligini asoslang.
2. Ushbu vaziyatda samarali dars berayotgan o'qituvchilarni rag'batlantirish to'g'rimi, nima uchun?
3. Ushbu vaziyatda ichki monitoring o'tkazish bo'yicha qanday xatoliklarga yo'l qo'yildi?

ADABIYOTLAR

1. Jaap Scheerens. Cees Glas, Sally M.Thomas. Educational evaluation, assessment, and monitoring. A systemic approach. Lisse abingdon exton (pa) Tokyo.
2. Каримов Р.Қ. Умумий ўрта таълим давлат таълим стандартлари мониторингини таъминлашнинг педагогик асослари: пед.фан.номз. ... дис. – Тошкент, 2006. – 181 б.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarini attestatsiyadan hamda davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi 2024-yil 14-fevraldagi 91-son qarori. <https://lex.uz/docs/-6800815>

VII. XULOSA

Ta'lim sifatini oshirishda baholash va monitoringning o'рни

Mamlakat iqtisodiy o'sishi uchun o'quvchilarga nafaqat maktabda to'g'ri ta'lim berish, balki ta'limda baholash va monitoringni to'g'ri amalga oshirish ham kerak. Darhaqiqat, baholash va monitoring ta'lim sifatini oshirish, jarayonni yaxshilash va takomillashtirishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu ikkala jarayon o'zaro bog'liq bo'lib, bir-birini to'ldiradi.

Ta'lim sifatini oshirishda baholash va monitoringning o'рни va ahamiyati bir necha asosiy jihatlardan namoyon bo'ladi:

1. Ta'lim sifati va muhitini boshqarish. Baholash va monitoring ta'lim jarayonining samaradorligini o'lchaydi va unga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlaydi. Bu ta'lim sifatiga salbiy ta'sir qiluvchi omillarni bartaraf etish, ta'lim muhitini yaxshilash, ta'lim jarayonini tizimli takomillashtir, ta'lim sifatini boshqarishga imkon beradi.

2. O'quvchilarning natijalarini yaxshilash. Baholash va monitoring o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini o'lchab, ularning ta'limdagi doimiy rivojlanishini kuzatib borib, yutuqlari hamda muvaffaqiyatsizliklarini aniqlashga imkon beradi. Bu esa o'qituvchilar o'quvchilarning imkoniyatlaridan kelib chiqib dars jarayonini ularga moslashtirishga, individual ta'lim berishiga olib keladi. Natijada o'quvchilarning natijalari yaxshilanadi, sifat oshadi.

3. O'qituvchilarni kasbiy rivojlantirish. Baholash va monitoring o'qituvchilarning ta'lim jarayonidagi faoliyatini muntazam kuzatib, ularning tajribalarini tahlil qilish, kuchli tomonlarini va zaif tomonlarini aniqlash imkonini beradi.

Agar o'qituvchilarning yondashuvlari, tutumlari, faoliyati samarali bo'lmasa, darsda foydalanadigan metod va texnolo-

giyalarini, yondashuvlarini qayta ko'rib chiqishi va natijalarini yaxshilash bo'yicha aniq harakatlarni amalga oshirishi kerak bo'ladi.

4. Ta'lim resurslarini samarali taqsimlash. Baholash va monitoring o'quvchilar va o'qituvchilarning ehtiyojlarini va ta'lim resurslarining samaradorligini aniqlashga yordam beradi. Jumladan, o'quvchilarning qo'shimcha resurslarga yoki o'qituvchilarning yangi materiallarga ehtiyoji bor yoki yo'q ekanligini ko'rsatishi mumkin. Agar ba'zi resurslar samarali ishlatilmayotgan bo'lsa, ularning qayta taqsimlanishi yoki yaxshilanishi kerakligini ko'rsatadi.

5. O'quv dasturlarining samaradorligini oshirish. Baholash va monitoring o'quv dasturlarining natijalarini tahlil qiladi va qaysi o'quv dasturlarining samarali ekanligini ko'rsatadi. Agar biror dastur o'quvchilarning yuqori natijalarini ta'minlayotgan bo'lsa, uni boshqa guruhlar uchun ham qo'llash mumkin. Shuningdek, o'quv dasturlarining amalga oshirilish jarayonini kuzatish va ularni doimiy ravishda yaxshilash imkonini beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ta'lim natijalariga o'quv dasturlari, o'qitishdagi yondashuv va metodlar, o'qituvchining kasbiy mahorati, o'quv adabiyotlar sifati, ta'limiy resurslar, ta'lim muassasasining moddiy-texnik bazasi, maktabdagi va oiladagi ta'lim muhiti, o'qituvchi va o'quvchilar munosabati, maktab va ota-onalar hamkorligi kabi bir qator omillar ta'sir qiladi. Baholash va monitoring ta'limdagi mavjud holatni aniqlashga, uni to'g'ri boshqarishga, dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilishga, umuman, ta'limga ta'sir qiluvchi omillarni boshqarish hamda sifatni oshirishga xizmat qiladi.

SH.S. ABDIRAIMOV, A.Z. MAXMUDOV, R.S. TOJIBOYEV

TA'LIMDA BAHOLASH VA MONITORING ASOSLARI

O'quv-uslubiy qo'llanma

Toshkent davlat yuridik universiteti
Toshkent – 2026

Bosh muharrir
Muharrir
Musahhih
Texnik muharrir
Dizayner

O. Choriyev
K. Abduvaliyeva
R. Yunusova
U. Sapayev
D. Rajapov

Tasdiqnoma
№ 174625, 29.11.2023-y.

07.07.2026-yilda bosishga ruxsat etildi. Bichimi $60 \times 84 \frac{1}{16}$,
“Cambria” garniturası. Nashriyot hisob tabog‘i 6,6.
Shartli bosma tabog‘i 12,1. Adadi 100. Buyurtma raqami 74.

Toshkent davlat yuridik universiteti nashriyoti.
100047. Toshkent shahri, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy.
Tel.: +998 71 233-66-36. Veb-sayt: www.tsul.uz

Toshkent davlat yuridik universiteti bosmaxonasida chop etildi.
100047. Toshkent shahri, Sayilgoh ko‘chasi, 37-uy.

This image shows a single sheet of white paper with horizontal ruling lines. The lines are evenly spaced and run across the width of the page. There are no margins, text, or other markings on the paper.

This image shows a single sheet of white paper with horizontal ruling lines. The lines are evenly spaced and run across the width of the page. There are no margins, text, or other markings on the paper.

ISBN 978-9910-239-60-1



9 789910 239601